

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

NURBOYEV JALOLIDDIN MAMADIYEVICH

**MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TASHKIL ETISH VA ULARNING
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.01– « Iqtisodiyot nazariyasi» ixtisosligi

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
yoziladigan dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar: i.f.d., professor
Nasirxodjayeva Dilafuz Sobitxanovna**

Toshkent-2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TASHKIL ETISH VA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1. Maxsus iqtisodiy zonani tashkil etilish maqsadlari va asosiy xususiyatlari. ...	12
1.2. Jahon amaliyotida maxsus iqtisodiy zonalar tasnifi.....	27
1.3. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini baholovchi mezonlar	41
I-bob bo'yicha xulosa.....	50
II BOB. MAXSUS IQTISODIY ZONALAR TASHKIL ETILISHINING JAHON TAJRIBASI.....	52
2.1. AQSH iqtisodiyotida maxsus iqtisodiy zonalarning ahamiyati	52
2.2. Xitoyning maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish amaliyoti va tajribalari....	57
2.3. Qozog'istonda iqtisodiy zonalarning rivojlanish xususiyatlari.....	67
II-bob bo'yicha xulosa.....	76
III BOB. O'ZBEKISTONDA TASHKIL ETILGAN MAXSUS IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI....	78
3.1. O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarning tashkil etilishining zamonaviy holatini takomillashtirish.	78
3.2. O'zbekiston MIZ lari faoliyati samaradorligining iqtisodiy sohalardagi yo'nalishlar	94
3.3. O'zbekiston MIZ lari eksport ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillar regeression tahlili	107
III-bob bo'yicha xulosa.	116
XULOSA.....	118
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:.....	123
ILOVA.....	129

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jahonda global raqobatning kuchayib borishi sharoitida milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishning ta'sirchan choralaridan biri sifatida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirishning ahamiyati oshib borib, jumladan, samarali faoliyat yuritayotgan ayrim maxsus iqtisodiy zonalarning daromadi jahon iqtisodiyoti va alohida davlat iqtisodiyoti o'sish darajasidan ham bir necha barobar yuqori bo'lmoqda. Masalan, "Xitoyda tashkil etilgan "Shenjen" MIZning daromadi 2022-yilda Singapur yalpi ichki mahsulotidan o'rtacha yillik o'sish sur'ati 20,7 foizni tashkil etdi, aholi jon boshiga YaIM 30 ming dollar bo'lganligi buni yaqqol namunasidir. Maxsus iqtisodiy zonalar bo'yicha olimlarning izlanishlari natijasiga ko'ra, muvaffaqiyatli MIZlarning daromadi mamlakat YaIMda 5-o'ringa, shuningdek, mamlakat yalpi eksport hajmining qariyb 40-60% qismi, barcha xorijiy investitsiyalarning 30% dan 80% gacha qismi aynan maxsus iqtisodiy zonalar orqali kirib keladi. Hozirgi kunda milliy MIZlarda 369 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, umumiy jalb etilgan investitsiya miqdori 2090,7 mln. AQSh dollarini tashkil etadi"¹. Bundan ko'rinadiki, jahonda maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish va ularning samaradorligini oshirish masalalari o'zining dolzarbligini namoyon etmoqda.

Jahon mamlakatlarining iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish orqali o'z raqobatbardoshliklarini oshirishga harakatlari kuchayib borayotgan sharoitda maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirish muammolariga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish orqali hudud rivoji uchun muhim bo'lgan ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishga zamonaviy ilg'or texnologiyalar va puxta o'ylangan menejment tizimi qo'llanilishini yo'lga qo'yish, hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish, mamlakat eksport salohiyatini oshirish, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini baholash uslubiyotini takomillashtirish, mazkur

¹ O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqildi.

sohaga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda isiqbol ko'rsatkichlarini baholash kabi masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish va rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Agar mamlakatda 2008-yilda dastlabki Navoiy erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib 24 ta erkin iqtisodiy zona o'z faoliyatini olib bormoqda. Tashkil etilgan MIZlarning faoliyat samaradorligini oshirish, EIZ hududlarida loyihalarni joylashtirish uchun loyihalarni tanlashning aniq mezonlarini ishlab chiqish, investitsiya loyihalarini ko'rib chiqishda tashkil etiladigan ish o'rinlari soni, salohiyatli xorijiy sherikning aniqligini ta'minlash, mahsulotga bo'lgan ichki va tashqi talab, eksport hajmi kabi omillarni tadqiq etish, investitsiya loyihalarini ma'qullash mexanizmidagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, EIZ faoliyati uchun zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzlimasini o'z vaqtida barpo etish, taklif etilyotgan investitsiya loyihalarining mahalliy va xorijiy kredit resurslari bilan ta'minlash, ularga birlashtirilgan tijorat banklarining faoliyatini jonlantirish, EIZda faoliyat olib borayotgan korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish va eksport hajmi, yaratilgan ish joylari sonining tasdiqlangan biznes-reja parametrlariga to'g'ri kelishini ta'minlash vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishi MIZlarning joriy holatini tahlil etish, istiqboldagi mumkin bo'lgan holatlarini prognoz qilish va baholash orqali samaradorlik darajasini oshirish yo'llarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 14-sentabrdagi PQ-5243-son "Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 30-apreldagi PQ-5101-son "Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini

muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishida mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Maxsus iqtisodiy zonalarning rivojlanishini tadqiq etish, samaradorligini baholash masalalari, MIZlarni tashkil etilishida o'rganilib chiqilishi lozim bo'lgan jihatlar S.Ven, U.S.Tiefenbrun², erkin iqtisodiy zonalarning o'zaro bir-biridan farqlanishi esa P.Radoslav, B.Fransua, B.Litvak, Yingyi Qian, F.Bost³ tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Shuningdek, MDH davlatlari olimlari taqdiqotlarida jumladan, A.Kalinina, E.S.Kapustina, N.P.Volovik, R.I.Zimenkov, T.G.Motovis, S.V.Prixodko, M.A.Furshchik, A.V.Shutova, N.A.Asadova ilmiy izlanishlarida samarali va samarasiz faoliyat yuritayotgan MIZlarni aniqlash masalalari ko'rsatib o'tilgan⁴.

² Radoslaw P "Special Economic Zones effectiveness assessment based on the adjusted enclave model. The Case of Poland", Dissertatsiya, 2016. S.Ven "Special Economic Zones as a Tool for Accelerating Economic Growth". Dissertatsiya. Kombodja Taraqqiyot Instituti, PhD, 2018. U.S. Tiefenbrun "Foreign Trade Zones of the United States, FreeTrade Zones of the World, and their Impact on the Economy", Dissertatsiya, 2016

³ A.Kalinina "Особая экономическая зона как инструмент регионального развития опыт Астраханской области". Dissertatsiya. Volgograd davlat universiteti, Iqtisod fanlari doktori, Amaliy informatika va iqtisodiyotdagi matematik usullar kafedrası professori, 2019. B.Francois "Special economic zones: methodological issues and definition", Maqola. – Transnational Corporations, №2, 2022. John M. Litwack and Yingyi Qian "Balanced or Unbalanced Development: Special Economic Zones as Catalysts for Transition", Maqola- Journal of Comparative Economics, 1998. F.Bost "Special economic zones:methodological issues and definition", Maqola. – Transnational Corporations, №2, 2019

⁴ E.S.Kapustina "Отсценка эффективности функционирования особых экономических зон в России", 2012. Воловик Н.П. Международная практика создания специальных экономических зон. – М.: ИПЕИ, 2016. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2005. Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны: становление и развитие. Монография. – Хабаровск: изд-во Тихоокеан. гос. унта, 2017. Приходко С.В., Воловик Н.П. Особие экономические зоны. – М.: ИЕПП, 2007. Фуршчик М.А., Шутова А.В. Особие экономические зоны: опыт и перспективы. – М.: Медиа Инфо Групп, 2014. Асадова Н.А., "Необходимость и особенности создания свободных экономических зон в Азербайджане", dissertatsiya. 2022

MIZlarning samarali faoliyat yuritishi, ularning faoliyati tahlili, ishlab chiqarish hajmining prognoz darajalari, erkin iqtisodiy zonalar yaratilish maqsadlari, turlari, huquqiy asoslari o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.V.Vaxabov, A.U.Akramov, S.S.Nazirova, D.Y.Xujamkulov, erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini mutlaq va nisbiy miqdor ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholash tizimi Sh.A.Qoraboev, G.A.Inomova, S.I.Alabaev tadqiqotlarida o‘z aksini topgan⁵.

Shunga qaramay, maxsus iqtisodiy zonalar ishlab chiqarish hajmini ARIMA modellari bilan yuqori aniqlikda prognozlash, maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirish masalalari yetarlicha yoritilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1 «Maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish va ularning samaradorligini oshirish» mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish va samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etilish maqsadlari va asosiy xususiyatlarini o‘rganish;

jahon amaliyotida maxsus iqtisodiy zonalar tasnifini o‘rgangan holda tahlil qilish;

maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini baholovchi mezonlarni o‘rganish;

AQSh, Xitoy, Qozog‘istonda maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish amaliyoti va tajribalarini o‘rganish;

⁵ Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar.O‘quv qo‘llanma. – T.: Moliya, 2010. Nazirova S.S. “Свободные экономические зоны (СЭЗ) как инструмент привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику”, dissertatsiya, 2016. A.U.Akramov “Анализ опыта функционирования свободных экономических зон в России и Китая и возможности его использования в Узбекистане”, Maqola, Journal of Central Asia Economy, №3, 2017. D.Y.Xujamkulov “Erkin iqtisodiy hududlar”, Darslik, Toshkent – Iqtisodiyot, 2019

O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarining tashkil etilishining zamonaviy holatini o‘rganish;

O‘zbekiston MIZlari faoliyati iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish;

O‘zbekiston MIZlari eksport ko‘rsatkichiga ta’sir etuvchi omillarning regression tahlili asosida prognoz qilish.

Tadqiqotning ob’ekti O‘zbekiston Respublikasidagi maxsus iqtisodiy zonalarining iqtisodiy faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini maxsus iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi va rivojlanishi bilan bog‘liq iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “maxsus iqtisodiy zonalar” tushunchasi muayyan hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun yuqori texnologiyalar va ilg‘or boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo‘lgan hudud hamda unda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi jihatidan takomillashtirilgan;

uslubiy yondashuvga ko‘ra hududlarda tashkil etilayotgan maxsus iqtisodiy zonalar uchun muayyan vaqt davomida erishishi lozim bo‘lgan iqtisodiy natijalarning mo‘ljal ko‘rsatkichlarini belgilash hamda tegishli oraliq davrlardagi natijalar asosida maxsus iqtisodiy zonalar bo‘yicha imtiyozlar tarkibiga tuzatishlar kiritib borish orqali hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash hamda raqobatbardoshligini oshirish taklifi asoslangan;

milliy iqtisodiyot rivojlanganligi darajasi va taraqqiyot bosqichlariga muvofiq holda maxsus iqtisodiy zonalarining tadbirkorlik zonalari, hududiy ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologiya va innovatsiyalar, texnoparklar, xizmat ko‘rsatish zonalari kabi turlarini tashkil etishning asosiy xususiyat va tamoyillarini belgilash orqali yuqori iqtisodiy samaraga erishish hamda barqaror faoliyatni ta’minlash asoslangan;

O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar eksport hajmiga YaIM deflyatorining ta’sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida maxsus iqtisodiy zonalar eksport hajmining 2028-yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“maxsus iqtisodiy zonalar” tushunchasi bo‘yicha yangicha yondashuv ishlab chiqilgan;

hududlarda tashkil etilayotgan maxsus iqtisodiy zonalar uchun muayyan vaqt davomida erishishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlar ishlab chiqilgan;

milliy iqtisodiyot rivojlanganligi darajasi va taraqqiyot bosqichlariga muvofiq holda maxsus iqtisodiy zonalar turlarini tashkil etish ko‘rsatilgan;

maxsus iqtisodiy zonalar eksport hajmiga YaIM deflyatorining ta’sirini ifodalovchi ekonometrik modellar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot ishlarining ishonchliligi, ularni mahalliy va xorijiy olimlarning maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarni o‘rganish va ko‘rib chiqilgan muammolarni aniqlash va qayta ishlash, muallifning ilmiy-tadqiqot ishlari bo‘yicha natijalarni jamlash, rasmiy statistik manbalar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlaridan olinganligi, keltirilgan tahlillar matematik va ekonometrik usullar orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy qoidalar, xulosa va takliflardan maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy apparatini boyitish, kelgusida bajariladigan tadqiqotlarning uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati maxsus iqtisodiy zonalar rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlarini modellashtirishning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirilganligi va buning natijasida erkin iqtisodiy

zonalarni rivojlanish tendensiyalarini prognozlash, ushbu prognozlardan erkin iqtisodiy zonalarining istiqboldagi rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash, mazkur yo‘nalishdagi boshqaruvga oid qarorlari, chora-tadbirlar va dasturlar shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil qilish va ularning samaradorligini oshirish borasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “maxsus iqtisodiy zonalar” tushunchasi muayyan hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun yuqori texnologiyalar va ilg‘or boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo‘lgan hudud hamda unda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi jihatidan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy tavsifdagi ma‘lumotlardan oliy o‘quv yurti talabalari uchun tavsiya etilgan “Экономическая теория” o‘quv qo‘llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2023-yil 26-iyundagi 211-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy o‘quv yurti talabalarida “maxsus iqtisodiy zonalar” tushunchasining yuqori texnologiyalar va ilg‘or boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadi hamda ularda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi jhati yuzasidan nazariy bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish imkoni yaratilgan;

uslubiy yondashuvga ko‘ra hududlarda tashkil etilayotgan maxsus iqtisodiy zonalar uchun muayyan vaqt davomida erishishi lozim bo‘lgan iqtisodiy natijalarning mo‘ljal ko‘rsatkichlarini belgilash hamda tegishli oraliq davrlardagi natijalar asosida maxsus iqtisodiy zonalar bo‘yicha imtiyozlar tarkibiga tuzatishlar kiritib borish orqali hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash hamda raqobatbardoshligini oshirishga oid nazariy-uslubiy tavsifdagi ma‘lumotlardan oliy o‘quv yurti talabalari uchun tavsiya etilgan “Экономическая теория” o‘quv qo‘llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2023-yil 26-iyundagi 211-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy

taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy o‘quv yurti talabalarida tegishli oraliq davrlardagi natijalar asosida maxsus iqtisodiy zonalar bo‘yicha imtiyozlar tarkibiga tuzatishlar kiritib borish orqali hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash hamda raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan nazariy bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish imkoni yaratilgan;

milliy iqtisodiyot rivojlanganligi darajasi va taraqqiyot bosqichlariga muvofiq holda maxsus iqtisodiy zonalarning tadbirkorlik zonalari, hududiy ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologiya va innovatsiyalar, texnoparklar, xizmat ko‘rsatish zonalari kabi turlarini tashkil etishning asosiy xususiyat va tamoyillarini belgilash orqali yuqori iqtisodiy samaraga erishish hamda barqaror faoliyatni ta‘minlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 11-yanvardagi 08-0151-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida maxsus iqtisodiy zonalarning tadbirkorlik zonalari, hududiy ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologiya va innovatsiyalar, texnoparklar, xizmat ko‘rsatish zonalari kabi turlarini tashkil etishning asosiy xususiyat va tamoyillarini belgilash orqali yuqori iqtisodiy samaraga erishish hamda barqaror faoliyatni ta‘minlash borasidagi iqtisodiy tahlillarga ko‘ra “Sharg‘unko‘mir” AJ korxonasi hududiy ko‘mir ishlab chiqarish hajmini 2021-yildagi 275 ming tonnadan 2023-yil yarmiga kelib 297 ming tonnaga yetkazish imkoni yaratilgan;

O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalari eksport hajmiga YaIM deflyatorining ta‘sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida maxsus iqtisodiy zonalar eksport hajmining 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz qiymatlaridan O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 11-yanvardagi 08-0151-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida maxsus iqtisodiy zonalari eksport hajmiga YaIM deflyatorining ta‘sirini ifodalovchi ekonometrik model tuzish orqali “Sharg‘unko‘mir” AJ eksport hajmining 2028-yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab

chiqish hamda korxonada faoliyatining asosiy istiqbol ko'rsatkichlarining muvofiqligini ta'minlash imkonini yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 dan ortiq respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprotatsiyadan o'tgan

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi doirasida jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiya ishi asosiy natijalarini nashr etish tavsiya etilgan 2 ta xorijiy hamda 5 ta mahalliy jurnallarda ilmiy maqolalar, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 4 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 137 sahifadan iborat.

I BOB. MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TASHKIL ETISH VA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Maxsus iqtisodiy zonani tashkil etilish maqsadlari va asosiy xususiyatlari.

“Maxsus iqtisodiy zona” atamasining qo‘llanilishi albatta, ma’no jihatidan “erkin iqtisodiy zona” dan kengroq hisoblanib, o‘z ichiga nafaqat bizga ma’lum bo‘lgan “zona”ni balki, yuqori texnologik zonalar, ilmiy zonalar, erkin iqtisodiy zonalar, turistik-rekreatsion zonalar, yashil zona va xavfsiz zonalarni o‘z ichiga oladi.

Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishda katta hissa qo‘shgan olimlarimiz Hamdamov M., Xudoynazarova N., fikriga ko‘ra, maxsus iqtisodiy zonalar tadbirkorlik yuritish uchun alohida soliq, bojxona, boshqaruv va fuqarolik-huquqiy imtiyoz va kafolatlarga ega davlat hududining maxsus chegaralangan qismi hisoblanadi⁶.

Bizning fikrimizcha maxsus iqtisodiy zonalar davlatni iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy farovonligini ta’minlash doirasida: iqtisodiy, innovatsion, resurs, tashkiliy va ijtimoiy funksiyalarni amalga oshiradi. Maxsus iqtisodiy zona funksiyalari doimiylik tavsifiga ega bo‘lgan holda, iste’molchilar uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, yangi g‘oya, yangi vosita, omil va texnologiyalarni shakllantirish, resurs va ishlab chiqarish omillaridan oqilona va samarali birlashtirish, taktik va strategik maqsadlarni amalga oshiradi. Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish esa jamiyatda tadbirkorlarni ko‘payishi, ish joylarni tashkil etilishi, ishchilar turmush darajasi va ijtimoiy holatini yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish, mamlakatda amal qilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizim ostida bo‘ladi.

Biz bilamizki XX asrning oxirlarida neoliberal konsepsiya ustivorlikka erishdi, ijtimoiy, iqtisodiy sohalar erkinligi yuz berdi, ijobiy ko‘rsatkichlar bilan

⁶ Hamdamov M., Xudoynazarova N. “Xitoy Xalq Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari”. Maqola. – “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali , №4, 2015

birga, muvozanatlik va mutanosibliklarni buzilishi natijasida ijtimoiy kamchiliklar, kambag'allik muammosi paydo bo'ldi. Jamiyatda to'planib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy kamchilik va muammolarni yechimini topishida, maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish mexanizmi ishga tushirilishi kerak. Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish masalasi ko'pchilik tomonidan tan olinishi, u tomonidan hal etilayotgan ijtimoiy muammolar yalpi hajmini ortishi bilan bir tomondan davlatning imkoniyatlarini cheklanganligi bilan tavsiflansa, boshqa tomondan ijtimoiy muammolarning ko'payishi va keskinlashishi bilan bog'liq, shuningdek, bozor mexanizmlari jamiyatning barcha ijtimoiy muammolarini samarali hal eta olmasligini ifodalaydi.

Biz shuni aytishimiz mumkinki maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish – tadbirkorlikka layoqatli insonlarni qo'llab-quvvatlash, yangi ish joylarini tashkil etish, ishchilar daromadlarini ko'paytirish, malakasini oshirish, madaniy hordiq olishi va sog'liklarini yaxshilashi hamda oilaviy turmush farovonligini ta'minlashga amaliy yordam ko'rsatish, shuningdek, hududiy ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni ifodalaydi⁷.

Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish:

1. Tadbirkorlikka bo'lgan ishtiyoqni shakllantirish va tadbirkorlikni ko'paytirish;
2. Yangi ish joylarini tashkil etish;
3. Maqbul daromadlarni shakllantirish;
4. Qulay mehnat sharoitlarini tashkil qilish;
5. Aholi uchun ijtimoiy infratuzilmani yaratish.

Kabanova Ye.Ye. fikriga ko'ra, sobiq ittifoq davrida ijtimoiy masalalarni hal etishda noto'g'ri yo'l bilan borildi, mavjud aholini ijtimoiy muammolari asosida emas balki, sinfiy bo'lishlar orqali amalga oshirildi⁸.

Davlatlarda amal qilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy modellar asosida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish shakllanadi.

⁷ Muallif ta'rifi.

⁸Kabanova Ye.Ye. Проблемы развития социальной инфраструктуры средних городов в современной России (на примере города Гус - Хрустальный). Материалы Ивановских чтений. 2015. № 5. С. 29-34.

Hozirgi kunda turli mutaxassislar va olimlar MIZlarni turlicha talqin qilishadi. Misol uchun, S.A. Majinov yozadi: “MIZ – bu bojsiz bojxona rejimi hamda boshqa turli iqtisodiy tadbirlar vositasida TIFni rivojlantirish va xorijiy kapitalni jalb qilish kabi faoliyatlar amalga oshiriladigan hududdir”.

P. Mozias esa “MIZ – bu umumiy davlat bojxona hududi chegarasidan ajratilgan qism bo‘lib, xo‘jalik masalalarini hal etishda to‘liq mustaqillikka, maxsus boshqaruv tizimi, xorijiy va milliy korxonalar va firmalar iqtisodiy faoliyati uchun imtiyozli sharoitlarga ega bo‘ladi ” deb ta’kidlaydi.

“Maxsus iqtisodiy zonalar” monografiyasi⁹ mualliflarining fikricha “Maxsus iqtisodiy hududlar – cheklangan hududlar, shaharlar, dengiz va aviatsion portlar bo‘lib, ularda tashqi savdo, umumiy iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik va ilmiy-texnologik masalalari yechimiga ko‘maklashadigan, milliy va xorijiy tadbirkorlar uchun maxsus imtiyozli iqtisodiy sharoitlar amal qiladi ”.

Sotsial-demokratik model amal qilganda, maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish yangi ish joylarini shakllantirish bo‘ladi, qashshoqlik masalasi davlat tomonidan ajratiladigan ijtimoiy yordam hisobiga bartaraf etiladi.

Konservativ modelda, qayta taqsimlash ahamiyatsiz, ishsiz aholi ijtimoiy huquqqa ega emas, faqat hayriyalarga bog‘lanib qolganligi sabab, maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish aholini ish bilan band qilish orqali ularni ijtimoiy sug‘urta muammosini hal qiladi.

Liberal (amerika-britancha) modelda asosiy e’tiborni bozorga qaratadi, bu jamiyatda insonlar ijtimoiy himoyasiz yashab qolish qobiliyatiga ega bo‘lishlari kerak, davlat barcha fuqarolar uchun cheklangan ijtimoiy ta’minotga mas’ul. Muxtojlar ko‘plab beg‘araz va noodatiy yordamga tobedir, ijtimoiy muammolarning hal etilishi ijtimoiy tadbirkorlikka asoslanadi.


Biz yuqorida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etishning xususiyatlari va turli ijtimoiy modellar sharoitida ularni amal qilishlari xususidagi fikr-mulohazalar

⁹ Игнатов В. Г., Бутов В.И. – “Свободные экономические зоны” – Москва, 1997 г. с.22-30;

asosida, maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish quyidagi tamoyillarga asoslangan holda amal qilishlari maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Inson yoshi mehnatining unumdorligidan qat'iy nazar bir hilda qadrlanishi kerak, ya'ni ijtimoiy yordam barchaga tamoyili;
2. Ijtimoiy yordam doimiylik tamoyiliga ega bo'lishi;
3. Ijtimoiy yordam barcha sharoitlarga moslashuvchan bo'lishi, ishchilar ijtimoiy sharoitlarini tenglashtirishga yo'naltirilishi.

Biz o'ylaymizki maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish bugungi kunning hayotiy g'oyasiga aylanishi kerak. Chunki maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish o'zbek tadbirkori tomonidan o'zini anglash, imidjni shakllantirish, innovatsiya va maqsad sari intilishni ifodalaydi. Huddi shu yo'nalishdagi tadbirkorlar "Yangi O'zbekiston"da rivojlanishning yangicha modellarini ilgari suraoladilar.



1.1-rasm. Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etishda ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlik modeli¹⁰

Aleksandrova Ye fikriga ko'ra jahon amaliyotida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etishning ikkita yo'li mavjud.

Birinchisi – "hududiy yondashuv", ya'ni maxsus iqtisodiy zonalar muayyan imtiyozli tartib joriy qilingan aniq hudud sifatida qaraladi.

¹⁰ Muallif ishlanmasi

Ikkinchi yondashuv – “tizimli”: maxsus iqtisodiy zonalar muayyan shartlarga amal qilgan holda muayyan imtiyozlar taqdim etilgan aniq majmuaviy korxonalar sifatida qaraladi.¹¹

Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini jahon fanida chuqur va har tomonlama o‘rganish XX asrning 70 yillarida boshlandi. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida, mamuriy hujjatlarda, amaliyotda, erkin iqtisodiy hududlarni bildiruvchi xilma-xil atamalar qo‘llashadi: “Erkin iqtisodiy hudud”, “Texnologik hudud”, “Erkin bojxona hududi”, “Maxsus iqtisodiy hudud”, “Erkin tadbirkorlik hududi”, “Erkin eksport hududi”, “Erkin savdo hududi”, “Bojsiz hudud”, “Qo‘shma tadbirkorlik hududi”.

Xalqaro tashkilotlar hisobotlarida va ilmiy nashriyotlarda turli xildagi hududlarning mohiyatini yoritishda “erkin iqtisodiy hudud” terminidan foydalanadilar. Biroq, bu termin uning mohiyatini to‘liq ifoda eta olmaydi. U yerda qo‘llaniladigan iqtisodiy qoidalar, maxsus ma‘muriy qonunlar, shu hududda faoliyat yuritadigan tadbirkorlarni aniq belgilangan huquqiy va xo‘jalik rejimlaridan butunlay ozod qilmaydi, balki ularni yengillashtiradi, ma‘lum imtiyozlar beradi. Shuning uchun ham EIHni “erkin” emas, maxsus iqtisodiy hudud deb atash o‘rinli. 1973-yil 18-mayda Kioto (Yaponiya) shahrida qabul qilingan Kioto konvensiyasida erkin iqtisodiy hudud tushunchasiga rasman izoh berilgan. “Bojxona jarayonlarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish bo‘yicha xalqaro konvensiya” qarorlarida yozilishicha, “EIZ bu – ma‘lum bir davlat hududidining shunday qismiki, unga olib kirilgan tovarlar bojxona hududidan tashqaridagi tovar sifatida qaralib, u bojxona tekshiruvidan va soliqlaridan ozod etiladi”.¹² Bu ta‘rifda turli xildagi EIZlarning asosiy xususiyatlari yoritib o‘tilgan, lekin bu faqat tovarlarni hududga olib kirish va olib chiqib ketishga nisbatan to‘g‘ridir.

Kioto konvensiyasi qabul qilingach, keyingi taraqqiyot natijasida EIZ tushunchasi borasidagi bilimlar ancha kengaydi, boyidi, uning turli xil shakllari kashf etildi. Ushbu tushunchadan ko‘rinib turibdiki, mamlakat hududining alohida

¹¹ Александрова Е. «Специальные экономические зоны в мировом хозяйстве / Внешнеэкономическая деятельность» №10, 1997 г.

¹² Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. O‘quv qo‘llanma.- M.: Юнити, 2005. – 7-bet

qismidagi iqtisodiy erkinlik butunlay emas, balki, qiyosiy hisoblanadi. Demak, EIZ tom ma'nodan erkin emas, balki, nisbatan erkin hududdir. Bu hududga olib kirilgan tovarlar bojxona to'lovlaridan import solig'idan va import ustidan nazoratlardan ozod etilgani uchun ham bu hudud EIZ deb ataladi. Bu shuni anglatadiki, EIZga chet eldan olib kelingan tovarlar qabul qiluvchi davlatga olib kelingan deb e'lon qilinmaydi. Shu bilan birga qonunlar tovar egalari va sarmoyachilarini mavjud iqtisodiy huquqiy tartibotdan ozod qilmaydi, balki, uni yengillashtiradi. Ushbu hudud erkinligi unga kiritilgan mahsulot bojxona to'lovlari, importga nisbatan iqtisodiy siyosat choralaridan ozod qilinishi bilan belgilanadi va EIZga tashqaridan keltirilgan mahsulotlar deklaratsiya qilinmaydi.

Biroq, shu bilan birga, qonunlar mahsulot egalari va investorlarni iqtisodiy tartiblardan ozod qilmay, uni yengillashtiradi. Yuqoridagi EIZlarga berilgan ta'riflardan hamda EIZlarning mazmun mohiyatiga asoslanib shuni aytish mumkinki, EIZlarni maxsus iqtisodiy zona (MIZ) deya atash ham o'rinlidir. Iqtisodiy adabiyotlarda EIZlarning MIZlar deb nomlanishining ham sababi shundandir. Bugungi kunda O'zbekiston qonunchiligida ham MIZlar atamasi keng ishlatilmoqda.

Umuman muallif fikricha bu MIZlar tor ixtisoslikdagi masalalarni hal etadilar, biroq makroiqtisodiy vaziyatga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydilar. Ikkinchi holda, muayyan tarmoqning ba'zi korxonalari hamda shu tarmoqning o'zi (masalan, qishloq xo'jaligi, oltin qazib olish, mashinasozlik) ham faqatgina ularning faoliyatiga tegishli bo'ladigan imtiyozlarga ega bo'ladi: O'zbekiston uchun deylik, bu turizm bo'lishi mumkin. Terminologiyadagi bu o'zgarish shunchaki sinonim atamalarning qo'llanilishdagi o'zgarishi emas, balki bu boradagi bir qancha atamalarning ma'nosini umumlashtiruvchi tushuncha desa ham bo'ladi.

Chunki erkin iqtisodiy zona atamasining qo'llanilishi istiqbolli investorlarni (mahalliy va asosan, xorijiy) ushbu zonaning asosiy tabiati ya'ni nima maqsadda tashkil etilganligini anglashda qiyinchilik tug'diradi.

Hamdamov M tabiri bilan aytganda MIZlar – bu ma‘lum hududda ro‘yxatga olingan, ishlab chiqarishni rag‘batlantirish maqsadida tashkil etilgan, maxsus imtiyozlarga ega geografik hududlardir. Boshqacha aytganda, MIZlar tadbirkorlik yuritish uchun alohida soliq, bojxona, boshqaruv va fuqarolik-huquqiy imtiyoz va kafolatlarga ega davlat hududining maxsus chegaralangan qismi hisoblanadi.¹³

MIZ O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi hodisa bo‘lganligi sababli, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishning ushbu istiqbolli yo‘nalishi bo‘yicha jahon tajribasidan keng foydalangan holda ularni tezkor ravishda shakllantirish, MIZ faoliyati uchun zarur me‘yoriy-huquqiy bazani yaratish hamda tegishli mutaxassislarni tayyorlashni tashkil etish zarur.

Byurgo J ning nazariy qarashlariga ko‘ra MIHda korxonalar yoki umuman soliqdan ozod qilingan, yoki turli soliq imtiyozlari kafolatlangan bo‘ladi. Undan tashqari, korxonalarining ro‘yxatdan o‘tkazilishi osonlashtiriladi.¹⁴

Muallifning fikricha MIHlar nafaqat gorizontal (ya‘ni hududiy), balki vertikal (ya‘ni tarmoqli) faoliyat ko‘rsatadi. Birinchi holda MIH cheklangan maydonga ega bo‘ladi, ammo shuni ham qayd etish lozimki, ba‘zan butun mamlakat MIHga aylanishi mumkin. Shunday, xorijiy investorlar, qo‘shma korxonalar, o‘rta va kichik biznes uchun imtiyozlar yaratayotganda, hukumat ba‘zan mamlakatda “mikroMIHlar” tashkil qilayotganini anglamaydi. Bu MIHlar tor ixtisoslikdagi masalalarni hal etadilar, biroq makroiqtisodiy vaziyatga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmaydilar. Ikkinchi holda, muayyan tarmoqning ba‘zi korxonalari hamda shu tarmoqning o‘zi (masalan, qishloq xo‘jaligi, oltin qazib olish, mashinasozlik) ham faqatgina ularning faoliyatiga tegishli bo‘ladigan imtiyozlarga ega bo‘ladi: O‘zbekiston uchun deylik, bu turizm bo‘lishi mumkin.

¹³ Hamdamov M., Xudoyazarova N. “Xitoy Xalq Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari”. Maqola. – “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, №4, 2015

¹⁴ Бюрго Ж. “Свободные зоны как средство экономического развития”, Регион: экономика и социология. 1995. - № 1.

Maxsus iqtisodiy zonalar va erkin zonalarning turlari¹⁵

Maxsus iqtisodiy zonalar	Erkin zonalar
Yuqori texnologik parklar	Eksportga yo‘naltirilgan zonalar
Ilmiy parklar	Erkin savdo zonalari
Ilmiy-texnologik zonalar	Yagona korxonalar joylashgan erkin zona
Erkin iqtisodiy zonalar	Eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish Savdo bilan aloqador Tashqi Erkin tadbirkorlik hududlari
Xizmatlar parki	Tashish va Qo‘p maqsadli Ichki, tashqi, eksport zonalar
Yashil zonalar	Kichik shaharlarni rivojlantirish Ko‘p maqsadli ichki qo‘llab-quvvatlash hududi
Xavfsiz zonalar	Erkin savdo tashqi, ichki, reeksportga ko‘maklashish hududlari
Turizmni rivojlantirish zonalari va h.k.	Erkin portlar Kompleks rivojlanish zonalari

1.1-jadval ma’lumotlariga muvofiq, erkin savdo hududlari ham, erkin eksport hududlari va erkin portlar ham asosan rivojlangan mamlakatlar tajribasiga xos bo‘lib, eksport, reeksport va importning rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Erkin hududlari esa AQSH va Buyuk Britaniya tajribasiga xos bo‘lib, aholining yashash darajasi va sifati mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan past bo‘lgan hududlarda qo‘llanilib, turli imtiyoz va preferensiyalar orqali hududda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga va bu orqali aholining yashash darajasini oshirishga, kichik shaharlarda ham aholining yashab qolishiga imkoniyat yaratadi. O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, maxsus iqtisodiy zonalar erkin iqtisodiy zonalar, maxsus ilmiy-texnologik zonalar, turistik-rekreatsion zonalar, erkin savdo zonalari, maxsus sanoat zonalari kabi turlarga ajratiladi.

Erkin iqtisodiy zona — yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek ishlab chiqarish,

¹⁵ Muallif ishlanmasi

muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta‘minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud. Maxsus ilmiy-texnologik zona — innovatsiya infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlarida ilmiy tashkilotlar va ilmiy faoliyat sohasidagi boshqa tashkilotlar (texnologik parklar, texnologiyalarni tarqatish (texnologiyalar transferi) markazlari, innovatsion klasterlar, venchur fondlari, biznes-inkubatorlar va boshqalar) to‘plangan hudud.

Turistik-rekreatsion zona — unda zamonaviy turistik infratuzilma ob‘ektlarini (mehmonxona komplekslari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va boshqa turistik ahamiyatdagi ob‘ektlarni), maxsus faoliyat ko‘rsatuvchi va mavsumiy rekreatsion dam olish zonalarini turistlarga xizmat ko‘rsatish maqsadida zarur shartsharoitlarni ta‘minlagan holda barpo etishga doir investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tashkil etiladigan hudud. Erkin savdo zonalarini konsignatsiya omborlarini, maxsus bojxona va soliq rejimlari bo‘lgan hududlarni, shuningdek tovarlarga ishlov berish, ularni o‘rabjoylash, saralash, saqlash uchun maydonchalarni o‘z ichiga oladi.

Maxsus sanoat zonasi — boshqaruv, xo‘jalik va moliyaviy faoliyatning alohida rejimi joriy etiladigan hudud. Maxsus sanoat zonalarini zarur ma‘muriy, ilmiy-texnologik, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport va ijtimoiy infratuzilmani barpo etish uchun er uchashtalarini ajratish orqali shakllantiriladigan xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish zonalarini o‘z ichiga oladi¹⁶. Iqtisod fanlari nomzodi A.Terexov va ¹⁷I.Afoninlar qayd etganidek, erkin iqtisodiy zonalarining texnik-iqtisodiy asoslari tashkil etilishda quyidagi 8 ta bo‘limlarni o‘z ichiga olishi lozim:

- 1) MIZni tashkil etish maqsadlari;
- 2) MIZni tashkil etish shartlari;

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni.O‘RQ-604-son 17.02.2020. <https://lex.uz/docs/4737511>

¹⁷Афонин А.Р., гр.41-АК. Рук. А.Терехов. Особенности и перспективы индивидуального предпринимательства в сфере создания центров образовательных услуг. Санкт-Петербургский имени В. Б. Бобкова филиал. Российской таможенной академии, 2018. – 160 с. : ил. – Библиогр.: с. 149-159 (101 назв.)

- 3) MIZ uchun yer ajratish asoslari va ajratilgan hududning xususiyatlari;
- 4) MIZni rivojlantirish istiqbollari va dasturlari;
- 5) MIZni yaratish uchun zarur bo'lgan resurslar;
- 6) MIZ ishlash mexanizmi;
- 7) MIZni tashkil etish va faoliyati bo'yicha tashkiliy tadbirlar;
- 8) MIZni tashkil etish samaradorligini baholash.

Birinchi bo'lim quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: ma'lum bir MIZni tashkil etish zaruriyatining asosi; rivojlanishining asosiy yo'nalishlari; MIZni tashkil etishning asosiy maqsadidan kelib chiqib, aniq chora-tadbirlarni belgilab olish (iqtisodiy salohiyatni oshirish, tajriba oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy kadrlar malakasini oshirish va boshqa masalalar bilan bog'liq vazifalar).

Ikkinchi bo'lim yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun MIZ tashkil etilishi ko'zda tutilgan hududdagi zarur shart-sharoitlar mavjudligi to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak. Shundan kelib chiqib, ikkinchi bo'limda mintaqaning nafaqat iqtisodiy ahvoli, balki yaqin kelajakda uning o'zgarish tendensiyalarini aks ettiruvchi iqtisodiy xususiyatlari bo'lishi kerak. Mintaqada erkin iqtisodiy zonani yaratish uchun ijobiy shartlar sifatida qaralishi mumkin bo'lgan iqtisodiy xususiyatlarga eng katta e'tibor berilishi kerak. Ushbu xususiyatlarga quyidagilar kiradi: hududning yetarlicha eksport salohiyati mavjudligi; tabiiy resurslarning mavjudligi va rivojlanish darajasi; tashqi iqtisodiy faoliyat uchun qulay geografik joylashuv; transport tarmog'ining rivojlanish darajasi; xalqaro darajadagi ish tajribasi; malakali kadrlar bilan ta'minlanganligi.

Ro'yxatda keltirilgan xususiyatlardan tashqari, ushbu bo'limda maxsus iqtisodiy (yoki bojxona) rejimni joriy qilish orqali bartaraf etish mumkin bo'lgan hudud iqtisodiyoti rivojlanishidagi salbiy tendensiyalar ham aks ettirilishi kerak.

Uchinchi bo'limda quyidagilar bo'lishi kerak: MIZ uchun ajratilgan hudud hajmi va chegaralari to'g'risida ma'lumot (hudud rejasini ilova qilgan holda) hamda ushbu hududni tanlashga bo'lgan asos va xususiyatlar.

To'rtinchi bo'lim iqtisodiy hududda faoliyat yuritadigan korxonalar va ularning rivojlanish istiqbollari, shuningdek umumiy MIZ rivojlanishi istiqbollari

to'g'risidagi ma'lumotlarni qamrab olishi kerak. Bunda MIZ faoliyatiga maxsus iqtisodiy sharoitlarni joriy qilish orqali (masalan imtiyozli bojxona va soliq rejimlari, soliq va boshqa turdagi kredit imtiyozlarini taqdim etish orqali) korxonalar faoliyatida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklardan kelib chiqib, ushbu istiqbollar baholanishi va prognozlashtirilishi kerak.

Beshinchi bo'limda MIZ rivojlanish dasturini ishlab chiqish jarayonida aniqlangan moliyaviy resurslar bilan ta'minlash imkoniyatlari ko'rsatilishi kerak. Bunda moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojni qondirishi mumkin bo'lgan barcha potensial manbalar hisobga olinishi kerak. Jumladan: soliq krediti mablag'lari, xorijiy investitsiyalar, mahalliy yuridik shaxslarning investitsiya mablag'lari, davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar, hududga yangi korxonalarni jalb qilish orqali kelib tushgan mablag'lar, erkin bojxona va boshqa turdagi subzonalarni tashkil qilish natijasida olinadigan mablag'lar, qimmatli qog'ozlar chiqarilishi hisobiga aholidan jalb qilingan mablag'lar va boshqa turdagi resurslar bunga misol bo'lishi mumkin.

Oltinchi bo'limda investorlar uchun jozibadorlik kasb etadigan MIZ faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa shart-sharoitlari aniqlanishi hamda yoritilishi kerak. Bu jarayonda, eng muhimi imtiyozli soliq va bojxona rejimlari joriy etilishi inobatga olinishi kerak.

Yettinchi bo'limda MIZ tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan tadbirlar majmuini aniqlab, ko'rsatib o'tish kerak.

Sakkizinchi bo'limda MIZni tashkil etish va rivojlantirishga ajratilgan xarajatlar (resurslar) hamda uning faoliyati natijalari o'rtasidagi nisbat asosida aniqlanadigan MIZni tashkil etish samaradorligining umumiy bahosi belgilanishi, ko'rsatilishi kerak. Mamlakatlar MIZni tashkil qilishda o'z oldiga qo'ygan maqsadlari ham turlicha. Ba'zi mamlakatlar hududlari orqali muayyan mintaqalaridagi ishsizlik past darajadagi iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanish, ishlab chiqarish va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga urinishadi. Boshqalarida integrativ iqtisodiy mexanizm, samarali jamg'arish, xo'jalik yuritish va boshqarishning ilg'or xorijiy tajribalarini tarqatish,

mahalliy ishlab chiqarish raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida jamiyat manfaatlarini uchun MIZlardan foydalaniladi.

Umumiy yoki global maqsadlardan tashqari aniq maqsadlar ham belgilanadi. Bu vazifalar va maqsadlarni uchta yirik bo‘limlarga birlashtirish mumkin: iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy – texnik.¹⁸

Iqtisodiy maqsadlar:

❖ maxsus imtiyozli iqtisodiy mexanizmlar, barqaror qonunchilik asoslari va turli tashkiliy jarayonlarni soddalashtirish orqali xorijiy va milliy kapitalni jalb qilish;

❖ tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish, oqilona import va import o‘rmini bosuvchi ishlab chiqarish mexanizmini tashkil qilish uchun xalqaro geografik mehnat taqsimoti va xalqaro kapital aylanishi afzalliklaridan foydalanish;

❖ mamlakat va mintaqa byudjetiga kelib tushadigan valyuta tushumlarining o‘sishi;

❖ turli TIF shakllari; barcha tashkilotlar va MIZlar korxonalariga yo‘l ochish orqali tashqi savdo monopoliyalarini yo‘q qilish.

Ijtimoiy maqsadlar:

❖ hudud doirasida cheklangan milliy resurslarni bir joyga jamlash hisobiga qoloq hududlar rivojlanishini tezlashtirish;

❖ aholi bandligini oshirish, yangi ish joylarini yaratish, ishsizlikka qarshi kurash;

❖ jahon tajribasini o‘rganish va ularni tashkiliy, boshqaruv va moliyaviy sohalarda joriy etish hisobiga yuqori malakaviylikli ishchi kuchi sinfini yaratish; jahon talablari va boshqaruv texnologiyasiga qaratilgan menejment madaniyatini tarbiyalash;

❖ aholining yuqori sifatli xalq iste‘moli tovarlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, ichki bozorni to‘yintirish.

¹⁸ Мозиас П. “Свободные экономические зоны: тенденции мирового опыта”. Финансовый бизнес. 1994. - №3

Ilmiy – texnik maqsadlar:

- ❖ ilgʻor xorijiy va milliy texnologiyalarni jalb qilish;
- ❖ innovatsion va joriy etish jarayonlarni tezlashtirish;
- ❖ xorijiy olimlar va mutaxassislarni jalb qilish;
- ❖ konversion majmualar infratuzilmasidan va quvvatidan foydalanish

samaradorligini oshirish.

Umuman muallifning fikricha turli mamlakatlarda MIZlar turli maqsadlarga erishish yoʻlida tashkil qilinadi. Shunga koʻra, ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

Birinchi, mamlakatda MIZni tashkil etishning asosiy maqsadi, mamlakatni xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanish jarayoniga chuqurroq jalb qilish. Bu yerda gap raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish va ularning eksport qilishni yanada koʻpaytirish toʻgʻrisida boradi. Bu esa oʻz navbatida, mamlakatga valyutani koʻproq kirib kelishini taʼminlaydi. Agarda mamlakat qandaydir sabablarga koʻra tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun kirib keladigan xorij kapitallariga keng iqtisodiy erkinlik yaratib bera olmasa, u bunga EIHni tashkil etish yoʻli bilan erishishi mumkin. Va shundagina mamlakat hukumati xorij investorlari uchun qulay sharoit yaratishga erishadi.

Ikkinchi, MIZni tashkil qilishning yana bir maqsadi, mamlakat ichki bozorini import tovar oʻrnini bosa oluvchi sifatli mahsulot bilan toʻyintirish. Bunga erishish uchun MIZda xorij kapitali yordamida import oʻrnini bosa oluvchi tovar ishlab chiqarish tashkil qilinadi.

Uchinchi, maxsus iqtisodiy hudud tashkilotchilari xalqaro savdo bozorida faqatgina ishlab chiqarish liniyasi boʻyicha ishtirok etishga eʼtibor beribgina qolmaydi, undan tashqari, turizm sohasiga, madaniyat sohasiga, sanatoriya-kurort sohasiga ham eʼtibor qaratadi. Bular esa mamlakat hududiga valyutani yanada koʻproq kirib kelishini taʼminlaydi.

Toʻrtinchi, MIZning maqsadi mamlakatda mahalliy hamda chet el ilmiy texnikasining ishlab chiqarishda tezroq va keng koʻlamda qoʻllanishini taʼminlash, kelajakda ulardan samarali foydalanish va ularning natijalarini mamlakat milliy iqtisodiyoti rivojida aks ettirish.

Beshinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda tashkil qilinadigan MIZning maqsadi mamlakatdagi ishchi kuchini, injinerlarni, xo‘jalik ishdagilarni va boshqaruv faoliyatini olib boruvchi kadrlar tayyorgarliklarini va malakasini oshirish.

Oltinchidan, MIZning muhim maqsadlaridan biri – bu ma‘lum bir hududdagi iqtisodiyotning rivojlanishiga yoki aniq bir tarmoqning rivojlanishiga turtki bo‘lish. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada MIZlar o‘tgan asrning 50-yillaridan keng tashkil qilina boshlagan. Ularning maqsadi depressiv tumanlarda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish edi. Bu maqsadga erishish uchun, butun mamlakat hududlaridan ko‘ra, bu hududda faoliyat yuritadigan tadbirkorlarga moliyaviy imtiyozlar va xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun bir qancha yengilliklar berilgan. Bu rivojlantirish dasturi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorij kapitalini o‘ziga jalb qilish uchun tuzilmagan.

Yettinchidan, ba‘zi-bir mamlakatlarda EIZga ma‘lum bir mintaqani zamonaviylashtirish, rivojlantirish usuli kabi qaraladi. EIZ mamlakatda hukum surayotgan iqtisodiyotning qaysidir turidan zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o‘tishga yordam beradi. Misol uchun, Xitoyda MIZ tajribaviy ijtimoiy xarakterga ega. Bu mamlakatda ma‘muriy iqtisodiyot tizimidan birdaniga, “yoppasiga” bozor iqtisodiyotiga o‘tish noto‘g‘ri deb bilingan. Chunki, bu xalq uchun katta zarba bo‘ladi, buning natijasida esa, albatta, iqtisodiyot katta talofat ko‘radi, deb hisoblashgan. Shuning uchun ham bu yerda bozor iqtisodiyotining afzalliklari MIZni tashkil qilish orqali ko‘rilmog‘da. MIZlarning amaliyotda qo‘llanilishi bozor iqtisodiyotining, davlat mulkiga asoslangan iqtisodiyotdan ko‘ra samarali ekanligini isbotlab bermoqda. Shuni ta‘kidlab o‘tish lozimki, MIZlarni tashkil qilishdan maqsadlar aniq ko‘rsatilishi kerak. Bu talabning bajarilishi, xo‘jalik faoliyatini olib boruvchi subyektlarga beriladigan imtiyozlar tizimini to‘g‘ri belgilashga yordam beradi.

MIZlar tashkil etish va faoliyat ko‘rsatishi bo‘yicha yig‘ilgan tajribalarga ko‘ra, quyidagilarga e‘tibor berish lozim:

Birinchi navbatda, sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan o‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda tashkil etiladigan an’anaviy MIZlarni

farqlash lozim. Bu omil – MIZlar shakllanishi va faoliyati maqsadlari, vazifalari va mexanizmini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi navbatda, MIZlar tashkil qilishda quyidagi *tamoyillarga* amal qilish kerak:

- ❖ har bir hududning maqsad va vazifalarini aniq belgilash;
- ❖ hududlar sonini minimallashtirish;
- ❖ MIZning nisbatan katta bo‘lmagan maydoni;
- ❖ transport va aloqa tarmoqlaridan foydalanish;
- ❖ soliq tizimi va boshqa afzalliklarning faoliyat ko‘rsatish muddatining cheklanganligi.

Uchinchi navbatda, qonunlar tizimi va me‘yoriy hujjatlarsiz hech bir MIZ muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsata olmaydi. Bu tizim asosi MIZlar to‘g‘risidagi umumiy qonun hisoblanadi. Shuningdek faqatgina qonunlarni yaratish emas, balki ularni amalda tatbiq etishda davlat organlari va mansabdor shaxslarning rolini oshirish va o‘z o‘rnida nazoratni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Qanday bo‘lmasin muallifning fikricha MIZlar muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi uchun mamlakatda muayyan sharoitlar yaratilishi kerak.

Birinchidan, *huquqni ta‘minlash*, ya‘ni MIZlarni rivojlantiruvchi va uning maqomini belgilaydigan huquqiy asoslarning mavjudligi. Agar me‘yoriy hujjatlar bo‘lmasa, hududlar erkin bo‘la olmaydi. Demak, xorijiy investorlar o‘z kapitali bilan tavakkal qilishni istamaydi. Boshqa tomondan qabul qilingan qonunlar oddiy, samarali va to‘g‘ri bo‘lishi kerak. MIZlarda qonunlar qo‘llanilishi uning ishtirokchilariga hech qanday muammo va tashvish keltirmasligi kerak. 1990-yilda qabul qilingan “Erkin savdo bo‘yicha Shimoliy Amerika kelishuvi” ko‘p jarayonlari bo‘yicha murakkab edi, natijada hech qaysi korxonadan foydalanmadi. Bu kelishuv talablarini bajarish bo‘lmasa bo‘lmas bo‘lmas to‘lagandan ko‘ra korxonalarga qimmatga tushardi. Sababi, bu kelishuvni tuzishda barcha huquqiy organlar qatnashib, ular o‘z manfaatlarini ko‘zlashgan. Bunday bo‘lishi kerak emas edi.

O'zbekistonda xorijiy tadbirkorlik tuzilmalariga berilgan va ularning investitsiya faoliyatini rag'batlantiruvchi imtiyozlar va preferensiyalarning katta ro'yxati qabul qilingan. Xususan, bu sohada qabul qilingan oxirgi qonun hujjatlaridan biri respublika Prezidentining "Xususiy xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish ga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Farmonidir. Mazkur Farmonfa ko'ra ana shunday investitsiyalarni jalb etuvchi korxonalar jalb etilayotgan investitsiyalarning hajmidan qat'iy nazar, daromad, mulk solig'idan, infratuzilmani rivojlantirish solig'idan, umumiy soliqdan, respublika yo'l jamg'armasiga majburiy chegirmalardan 3 yildan 7 yilgacha ozod qilinadi.¹⁹

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish maqsad va vazifalari avvalo belgilash hududlarni jadal rivojlantirish hamda iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2. Jahon amaliyotida maxsus iqtisodiy zonalar tasnifi

Maxsus iqtisodiy zonalarni bir necha xususiyatlariga qarab tasniflash mumkin. Jumladan, quyidagi mezonlarga e'tibor beriladi:

1. Milliy iqtisodiyotga integratsiyalanganlik darajasi bo'yicha: anklav va integratsiyalashgan.
2. Tashkiliy usuli bo'yicha: hududiy va funksional.
3. Faoliyat turi yoki funksional maqsad bo'yicha: savdo, savdo ishlab chiqarish, texnik tatbiq etish, xizmat ko'rsatuvchi hududlar, kompleks hududlar.

Anklav hududlar, odatda, mamlakat hududidan tabiiy ravishda ajralgan joylarda tashkil etiladi (orollar, yarim orollar, dengiz kurfazlari va boshqalar), lekin shaharlar ichida yoki hududlar ichida ham tuzilishi mumkin. Har qaysi holda ham anklavning tashkil etilishi hududning yuridik mustaqilligini nazarda tutmaydi. Anklav MIZlar erkin konvertatsiyalashadigan valyutani ishlash uchun barcha ishlab chiqariladigan mahsulotni eksport qilishga yo'naltirilgan. Bunday hududlar

¹⁹ Xo'jayev B.A. "Mamlakat raqobatbardoshligini baholashning metodik usullari", "Xalqaro munosabatlar" jurnali N-3, JIDU 2005, 37-bet

mamlakatning boshqa qismiga nisbatan mustaqilligi tovarlar va odamlarni ularni chegarasi orqali o‘tishining maxsus tartibi orqali ta‘minlanadi. Iqtisodiy mustaqillik esa bu hududlardagi maxsus iqtisodiy iqlim (ma‘muriy va iqtisodiy usullar yordamida) bilan ta‘minlanadi.

1.2-jadval

Xalqaro maydonda tashkil etilgan EIHda faoliyat ko‘rsatayotgan va qayd etilgan korxonalarining o‘shish dinamikasi²⁰

Nomeri	Mamlakat nomi	Korxonalar soni(2020 yil)	So'nggi uch yul mobaynida o'sish % hisobida	Korxonalar soni(2023 yil)	So'nggi uch yil mobaynida o'sish % hisobida
1	Britan-Virgin orollari	43000	48.2	208000	100
2	Irlandiya	16000	14.3	150000	36.4
3	Panama	15201	1.7	337004	20
4	Bagama orollari	12000	33.3	50000	127.3
5	Men oroli	5776	16.3	38536	20.5
6	Kipr	4400	89.9	26900	136.9
7	Luksemburg	3600	1.8	55000	17.5
8	Kayman orollari	3565	14.7	38716	39.6
9	Gibraltar	3260	6.8	59600	17.3
10	Djersi	3100	1.3	30500	8.2
11	Terke va Kaykos	3000	56.6	15000	36.4
12	Niderlandiya-Antil	2200	10	22500	18.4
13	Mavriki	1550	219.6	4550	574.1
14	Gernsi	1448	6.5	14550	3.8
15	Beliz	1430	104.3	4810	207
16	Barbados	1293	546.5	12804	1064
17	Antigua	1000	33.3	5500	120
18	Bermud	988	28.6	8659	19.1
19	Madeiyra	600	50	2210	84.2
20	Gankkong(Syangan)	570	26.7	4429	34.2

Yuqoridagi jadvaldan uch yil ichida keltirib o‘tilgan EIH da korxonalar sonining keskin oshganligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Shunigdek ko‘rilayotgan davrda erkin iqtisodiy zonalarga o‘z investitsiyalarini kiritayotgan korxonalarining ham soni oshib borgan. Bunday o‘shishning asosiy omili erkin iqtisodiy zonalarda tadbirkorlik va ishlab chiqarish faoliyati uchun qulay imtiyozlar yaratib berilganligidir.

²⁰ <http://www.worldbank.org> malumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yaponiyada uzoq vaqt asosan texnopolis va texnoparklarga e'tibor berilgan, lekin 90-yillarning boshlaridan hukumat eksportni rag'batlantirish va chet el investitsiyasini jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlarini amalga oshirdi. Shu maqsadda dengiz portlari va xalqaro aeroportlarda erkin tashqi savdo hududlarini tashkil eta boshladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda dastlabki MIHlar 60-yillarning o'rtalarida paydo bo'la boshladi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida eksport-ishlab chiqarish hududlari keng tarqalgan bo'lib, odatda deyarli hamma mahsulotni tashqi bozorlarga olib chiqadi. Bunday MIH uchun elektron sanoatga ixtisoslashuv xarakterlidir. Ularning korxonalarida odatda, butun ishchi kuchining 3/5 qismi band bo'ladi. Bunda kam xarajatli va eng yuqori talabli mahsulotlarni ishlab chiqarishga moslashgan korxonalar soni ko'pdir (kompyuterlar, elektron soatlar va o'yinlar, aloqa vositalari va boshqalar). Investitsiya va bandlik soni bo'yicha ikkinchi o'rinda tikish va to'qimachilik sanoati, sport anjomlarini ishlab chiqarish va boshqalar turadi. Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida, birinchi navbatda, yangi industrial mamlakatlarda eksport-ishlab chiqarish hududlari ko'plab uchraydi. 90-yillarning o'rtalarida ularning soni 100 atrofida edi. Eng samarali va o'zini yaxshi namoyon etgan MIHlarga Koreya Respublikasi (Masan), Tayvan (Gaosyun), Malayziya (Pinang), Filippin (Bagio), Singapur (Djurong)larni kiritsa bo'ladi. Bunday hududlar Xindiston, Indoneziya, Pokiston, Tailand, Suriya, Iordaniya kabi mamlakatlarda ham mavjud. Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarda eksport-ishlab chiqaruvchi MIHlardan tashqari boshqa turdagi MIH ham mavjud. Singapur va Dubay xalqaro aeroportlarida "Dyuti fri" tizimi bo'yicha bojsiz savdo qiladigan eng yirik jahon markaz-magazinlari joylashgan

Integratsiyalashgan MIZlarning o'ziga xos belgisi shundan iboratki, ular mamlakatning ichki iqtisodiyoti, uning ichki hududlari bilan yaqin iqtisodiy aloqalarga ega bo'ladi. Eksport salohiyatini rivojlantirish muammolarini hal etishdan tashqari, bu zonalar mahalliy sanoatning texnologik darajasini oshirish, chiqarilayotgan mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish vazifalarini ham hal qiladi.

Anklav ko‘rinishidagi hududlardan farqli o‘laroq integratsiyalashgan hududlar, ko‘p jihatdan, oraliq mahsulotlarni import qilishga emas, balki, milliy mahsulotlarni, komponentlarni va yarim tayyor mahsulotlarni ishlatishga qaratilgan bo‘ladi.

1.3-jadval

Maxsus iqtisodiy zonalarini raqobatbardoshligini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimi²¹

T/r	Maxsus iqtisodiy zonalarini raqobatbardoshligini baholovchi ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlarning oraliq intervali	Har bir ko‘rsatkich balli
1.	Maxsus iqtisodiy zonalarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi	$9 < x \leq 19$	12
2.	Maxsus iqtisodiy zonalarda ishlab chiqarish hajmini o‘zgarishi sur‘ati	$8 < x \leq 17$	12
3.	Maxsus iqtisodiy zonalar eksport hajmini yillik o‘zgarish sur‘ati	$7 < x < 15$	12
4.	Maxsus iqtisodiy zonalarining investitsion jozibadorligi	$6 < x \leq 13$	12
5.	Maxsus iqtisodiy zonalarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning aholi jon boshiga taqsimoti	$5 < x \leq 11$	10
6.	Maxsus iqtisodiy zonalarda sanoat korxonalarining sof foydasi (zarari)	$4 < x \leq 9$	10
7.	Maxsus iqtisodiy zonalarda mehnat unumdorligini o‘zgarish sur‘ati	$3 < x \leq 7$	8
8.	Maxsus iqtisodiy zonalarda asosiy fondlarni yangilanish ko‘effitsienti	$2 < x \leq 5$	8
9.	Maxsus iqtisodiy zonalar tomonidan innovatsiyalarga qilingan xarajatlar	$1 < x \leq 3$	8
10.	Maxsus iqtisodiy zonalarining energiya sig‘imi	$0 < x \leq 1$	8

Hududiy – ajratilgan territorial hududlar bo‘lib, u yerda faoliyat yurituvchi barcha rezidentlar faoliyat turidan qat‘iy nazar xo‘jalik yuritishning imtiyozli tartibidan foydalanadi. Masalan, Xitoydagi MIZlar, “Manaus” hududi (Braziliya). Ushbu yondashuv amalga oshirilishiga rivojlangan mamlakatlardagi ko‘pchilik eksport-ishlab chiqarish hududlari ham misoli bo‘la oladi. Funktsional (nuqtali) – firma mamlakatning qaysi tumanida joylashishidan qat‘iy nazar tadbirkorlik faoliyatining ma‘lum ko‘rinishlari uchun qo‘llaniladigan imtiyozli rejimdan foydalanishi mumkin. Ya‘ni firma qaysi hududda joylashishidan qat‘iy nazar

²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

maʼlum turdagi faoliyatga qoʻllaniladigan imtiyozli tartib hududiga tegishli boʻladi. Mamlakatning maxsus iqtisodiy zonalarini raqobatbardoshligini baholash bilan bogʻliq koʻplab metodologik yondashuvlar mavjud. Biz maxsus iqtisodiy zonalar raqobatbardoshligini baholash koʻrsatkichlarini obʻektivlik xususiyatiga eʼtibor bergan holda ularni qoʻyidagicha tizimlashtirish maqsadga muvofiq (1.3-jadval).

Maxsus iqtisodiy zonalar raqobatbardoshligini baholashning reyting tizimi bilan bogʻliq koʻrsatkichlarni oraliq natijalari $0 \leq 45$ oraligʻida boʻlsa kuchsiz raqobatbardoshlik, $46 \leq 70$ oraligʻida boʻlsa oʻrta raqobatbardoshlik, $71 \leq 100$ oraligʻida boʻlganda kuchli raqobatbardoshlik mavqeiga ega boʻlgan tarmoq hisoblanadi. Quyidagicha guruhlashtirish maqsadga muvofiq (1.4-jadval).

1.4-jadval.

Maxsus iqtisodiy zonalar raqobatbardoshligini baholashning natijaviy koʻrsatkichlari²²

№	Koʻrsatkichlar oraliq intervali	Guruhlar
1.	$0 \leq 45$	Kuchsiz raqobatbardoshlik mavqeiga ega boʻlgan tarmoq
2.	$46 \leq 70$	Oʻrta raqobatbardoshlik mavqeiga ega boʻlgan tarmoq
3.	$71 \leq 100$	Kuchli raqobatbardoshlik mavqeiga ega boʻlgan tarmoq

Maxsus iqtisodiy zonalar raqobatbardoshligini reyting asosida baholash natijalariga asoslangan holda sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini qoʻyidagicha guruhlash lozim (1.5-jadval).

1.5-jadval

Maxsus iqtisodiy zonalar raqobatbardoshligini baholashning natijaviy koʻrsatkichlari²³

№	Koʻrsatkichlar oraliq intervali	Turlari
1.	$0 \leq 45$ - kuchsiz raqobatbardoshlik mavqeiga ega boʻlgan tarmoq	turistik-rekreatsion zonalar
2.	$46 \leq 70$ - oʻrta raqobatbardoshlik mavqeiga ega boʻlgan tarmoq	maxsus ilmiy-texnologik zonalar; erkin savdo zonalar
3.	$71 \leq 100$ - kuchli raqobatbardoshlik mavqeiga ega tarmoq	erkin iqtisodiy zonalar; maxsus sanoat zonasi


²² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

²³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Tahlil natijalariga asoslangan xulosalarga muvofiq aytish mumkinki, Maxsus iqtisodiy zonalar raqobatbardoshligiga individual omillarning ta'siri bilan birga iqtisodiyotdagi tarkibiy va institutsional o'zgarishlarning ta'siri yuqori. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar sharoitida davlatning texnologiya siyosati korxonalar ishlab chiqarishni ko'p vektorli yangi texnologik tizimga integratsiyasini ta'minlash imkoniyatini beradi.

2018-2022-yillarda O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarining texnologik tarkibi bilan bog'liq ma'lumotlar tahliliga muvofiq, 2018-yilda maxsus iqtisodiy zonalarining texnologik tarkibida yuqori texnologiya maxsus iqtisodiy zonalar ulushi 2,1 foizni, o'rta yuqori texnologiya ulushi esa 22,8 foizni, o'rta quyi texnologiya ulushi 38,5 foizni, quyi texnologiya ulushi esa 36,6 foizni tashkil etgan.

Masalan, nuqtaviy hududlar Karib havzasidagi alohida korxonalaridan iborat offshor markazlari, turistik hududlar, Meksikadagi Makiladoras turidagi korxonalar, "dyuti fri" magazinlaridir. Bunday yondashuvdagi MIZlar "nuqtali" hududlar hisoblanadi.



1.1-rasm. Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etishning yondashuvlari ²⁴

Jahon amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan egalik shakli bu aralash turdagi MIZdir. Biroq, keyingi vaqtlarda mahalliy yoki chet el xususiy kapitali borgan sari kattaroq rol o'ynamoqda va MIZda xususiy mulkning ulushi ortmoqda. Bu

²⁴ Muallif ishlanmasi.

tendensiya nainki rivojlangan davlatlarda balki rivojlanayotgan mamlakatlarda va o‘tish iqtisodiyotili mamlakatlarda yorqin namoyon bolmoqda. Ko‘pchilik MIZlarda davlatga faqatgina yer va infratuzilma obyektlari tegishli bo‘lib asosiy xo‘jalik subyektlari sifatida mahalliy va chet el xususiy kompaniyalar faoliyat yuritadi. Shuni ham takidlab o‘tish joizki, keyingi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiy MIZlar tashkil etilayaptiki ko‘pchilik infratuzilma obyektlarini tashkil etishni va hududni boshqarishni o‘z zimmalariga olmoqdalar. Shunday qilib davlat egaligi bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda va shuningdek, Xitoy, Vetnam va Markaziy Yevropaning o‘tish iqtisodiyotili ba‘zi-bir mamlakatlarida katta rol o‘ynasada, MIZlarni rivojlanishida xususiy mulk, xususiy kapital borgan sari yetakchi rol o‘ynamoqda.

MIZlarni yaratish maqsadiga qarab ham shartli ravishda 2 xil bo‘lishi mumkin:

1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish va jahon bozori bilan integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin (masalan, bojxona hududlari, erkin savdo hududlari, eksport ishlab chiqarish hududlari);

1.6-jadval

Maxsus iqtisodiy zonalarning turlari²⁵

Sanoat zonasi	Sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ma‘lum bir imtiyoz va rag‘batlar asosida mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish, ularni arzonlashtirilgan yer , infrastruktura va boshqa xizmatlar bilan ta‘minlashni maqsad qiladi.
Eksport ishlab chiqarish zonasi	Eksport ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan hudud bo‘lib, mamlakat bojxona hududidan tashqarida joylashgan hisoblanadi. Rezident korxonalar kapital jihozlar va xomashyoni soliq va import boji to‘lovlarisiz import qilish huquqiga ega.
Erkin savdo zonasi	Ko‘proq dengiz bo‘yi shaharlarda tashkil etiladigan , sanoat va savdo-sotiqni rivojlantirishni maqsad qilgan hudud. Bojxona punktlari tovarlarni kirish va chiqish joylarida nazorat qiladi.
Eko-industrial park	Ijtimoiy, iqtisodiy va atrof-muhit bilan bog‘liq sohalarni o‘zaro uyg‘unlikda jamlagan holda, sanoat uchun mo‘ljallangan hudud.
Ilmiy-texnologik park	Texnologik taraqqiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydigan, hududda ilmiy markazlar va texnologiya sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalarni jalb qilish, innovatsiyani rivojlantirishga qaratilgan hudud yoki markaz (asosan, innovatsiya, ilmiy sig‘imkor ishlarni qamrab oluvchi universitetlar yaqinida barpo etiladi).
Innovatsion hududlar	Innovatsion jarayonlarni tezlashtiruvchi va hudud raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladigan kuchli boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan shaharozlik innovatsion modellarini yaratishga mo‘ljallangan hudud.

²⁵ Muallif ishlanmasi.

2. Mamlakat ichida ma'lum bir faoliyat turi yoki ishlab chiqarish soha, tarmoqlarini rivojlantirishni rag'batlantirish, maxsus tartibni yaratishga qaratilgan bo'lishi mumkin (agropolislar, texnopolislar, erkin tadbirkorlik hududlari, turistik hududlar va sh.k.).

Qo'yilgan maqsad va bajaradigan vazifalariga qarab, MIZlarni quyidagi turlarga ajratiladi:

Funksional yoki tarmoqli hududlar. Bular turizm, sug'urta, bank, offshor hududlar va soliq gavanlaridir (ayrim funksiyani yoki faoliyatni amalga oshirishda imtiyozli tartibga ega bo'lgan sanoat hududlaridir). Shveysariya, Lyuksemburg, Gonkong, Singapur, Baxrayn, Kayman orollari bank faoliyatiga ixtisoslashgan offshor markazlardir. Lixtenshteyn va Shveysariyada offshor xolding kompaniyalar ko'p bo'lsa, sug'urta firmalari Men, Terks, Gernsi, Kaykos, Bermud orollarida ko'p. Offshor dengiz kompaniyalari esa Beliz, Gibraltar, Panama, Liberiyada ro'yxatga o'tishni ma'qul ko'rishadi.

Texnik tadqiqot hududlari (texnoparklar, texnopolislar, ilmiy-ishlab chiqarish parklari) funksional hududlarning bir ko'rinishi bo'lib, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llashda, bilim ko'p talab qiladigan mahsulotni yo'lga qo'yish va uning eksportini oshirishga turli xil imtiyozlarni beradi. Bu kabi hududlar infrastruktura uchun birlamchi yirik kapital mablag'lari qo'yishni talab qiladi.

Moliyalashtirish turli xil manbalardan: davlat budjeti, mahalliy budjet, qarz mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Ular davlatning tadqiqot markazlari va sanoatning ilm ko'p talab qiladigan tarmoqlarida faoliyat yurituvchi korxonalarining o'ziga xos kompleksidir. Ularning shartli ravishda 3 modelini farqlash mumkin:²⁶

- A) Amerika modeli (AQSh, Buyuk Britaniya);
- B) Yapon modeli (Yaponiya)
- C) Aralash model (Fransiya, Germaniya).

²⁶ United Nations ESCAP, Establishing Science and Technology Parks: A Reference Guidebook for Policymakers in Asia and the Pacific, Analitik hisobot, UN Publication, 2019

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ilmiy parklarning ko'pchiligi mahalliy hukumatlar tomonidan tashkillashtirilgan. Qurilish, infrastrukturani jihozlash, tashkil etish uchun zarur bo'lgan mablag'ning 75 % ini ular berishgan.

Hudud maydonining kattaligiga qarab ham turkumlanadi:

1. Mikrohudud – bir korxonaga, portga imtiyozli xo'jalik tartibi berish.
2. Mezohudud – ma'muriy bir rayonning bir qismini o'z ichiga olgan, aniq bir chegarasi bo'lgan (“Shennon” EIH kabi) erkin iqtisodiy hudud.
3. Makrohudud – mamlakatning butun bir rayoni, shahri yoki kichik bir mamlakatda joylashgan erkin iqtisodiy hudud.

Hudud necha mamlakat territoriyasida joylashganiga qarab esa:

1. Monomillatli hudud, ya'ni bir mamlakat ichida joylashgan hudud.
2. Xalqaro hudud, ya'ni ikki va undan ortiq mamlakat o'rtasidagi hudud hisoblanadi. Turli mamlakatda bo'lishidan qat'iy nazar unda bir xil o'yin qoidalari va adekvat xo'jalik yuritish imtiyozlari mavjud bo'ladi.

Umuman olganda, muallifning fikricha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, MIZlar faoliyati samaradorligiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularning samaradorligi esa MIZlar uchun joyni to'g'ri tanlash, yo'nalishni to'g'ri tanlash, siyosiy, moddiy, moliyaviy, iqtisodiy, geografik, ekologik, mehnat, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy, huquqiy, infratuzilmaviy va boshqa turli omillarni hisobga olish, xorijdan investitsiya va texnologiyalarni jalb qila bilish, tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtira olishga bog'liq.

Jahon amaliyotida MIZlar tashkil qilishning ikkita yo'li mavjud. Birinchisi – “hududiy yondashuv”, ya'ni MIZ muayyan imtiyozli tartib joriy qilingan aniq hudud sifatida qaraladi. Ikkinchi yondashuv – “tizimli”: MIZ muayyan shartlarga amal qilgan holda muayyan imtiyozlar taqdim etilgan aniq majmuaviy korxonaga sifatida qaraladi.

BMT va bir qator mamlakatlar ma'lumotlariga ko'ra, jahonda xorijiy va milliy kapitallar uchun turli imtiyozlar yaratilgan hududiy – iqtisodiy tashkiliy tuzilmalarning ko'plab turlari mavjud. Ulardan :

Jahonda xorijiy va milliy kapitallar uchun yaratilgan hududiy – iqtisodiy tashkiliy tuzilmalar²⁷

<p>I. Savdo bo'yicha</p> <hr/> <p>1. Erkin bojxona hududlari 2. Erkin savdo hududlari 3. Erkin portlar 4. Savdo- saqlash hududlari</p>	<p>II. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha</p> <hr/> <p>1. Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar 2. Ekspor- ishlab chiqarish korxonalarini 3. Sanoat bog'lari 4. Ilmiy-sanoat bog'lari 5. Makiladoras (Meksika)</p>	<p>III. Texnika kiritish bo'yicha</p> <hr/> <p>1. Texnopolis 2. Texnobog' 3. Yangi va ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish hududlari</p>	<p>IV. Hizmat bo'yicha</p> <hr/> <p>1. Offshor zonalar 2. Moliyaviy markazlar 3. Bank hizmatlari hududi 4. Turizm xizmatlari hududi</p>
V. Kompleks		VI. Xalqaro	

Xalqaro hujjatlarda bu hududlar “eksportni qo‘llab-quvvatlash erkin hududlari” (EQEH) nomi bilan ataladi. Ba’zi xorijiy olimlar fikricha, aynan shu EQEHlar o‘zida iqtisodiy hududlarning muhim xususiyatlarini aks ettiradi: ular jahon bozori faoliyatida faol qatnashish uchun yaratiladi; ularga mamlakatning qolgan hududlarida amal qiladigan ko‘plab iqtisodiy me’yor va cheklovlar tadbiriq etiladi; ma’lum darajagacha “erkin” hudud bo‘lgani uchun, EQEHlar TIANing davlat tomonidan boshqarilishining birinchi elementi hisoblanadi.

Fransuz nashrlaridan birida quyidagicha ta’rif keltirilgan: “jismoniy va (yoki) ma’muriy jihatdan bojxona to‘siqlaridan tashqarida joylashgan va eksport ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan maxsus sanoat hududi. Ular xorij kapitalini jalb qila oladigan va uni hududda joylashtirishga ko‘maklashadigan infratuzilmaga ega”.

MIZ tashkil qilish maqsad va vazifalardan kelib chiqib, ularni tashkil etishning muhim sharoitlarini qayd etamiz:

- MIZ tashkil etiladigan mintaq va mamlakatlardagi siyosiy barqarorlik;

²⁷ Muallif ishlanmasi.

- MIZlarning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'muriy boshqaruv, moliya-soliq va boshqa huquqlarini tavsiflovchi barqaror va keng qamrovli qonunchilik bazasi;
- tabiiy geografik sharoit (MIZlar yaratiladigan hududlarning joylashgan joyi, ya'ni transport magistraliga yaqinligi, qo'shni mamlakatlarning hisobga olinishi, agroiklim resurslari va boshqalar);
- yaxshi rivojlangan aloqa va transport infratuzilmasi, ijtimoiy sharoitlar, energetika;
- firmalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha rivojlangan tijorat infratuzilmasi, auditorlik tashkilotlar, transport xizmatlari;
- MIZlar ma'muriy boshqaruvining samarali tuzilmasining mavjudligi (yoki yaratilishi), hudud rahbarlarining yangi boshqaruv madaniyatini egallash qobiliyati;
- tarixiy omillar, tajriba va aholi urf-odatlarini hisobga olish.

MIZ joylashishi uchun qulay hududlar boshqa mamlakatlarga nisbatan chegarada joylashgan hamda dengiz savdo bandargohlari va magistral transport tarmoqlariga ega bo'ladi. Alohida hollarda rivojlanmagan sanoat, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo'lgan yangi xo'jalik o'zlashtirish hududlarida ham MIZ tuziladi. MIZlar hatto uzoq muddatli yirik umumdavlat dasturlarini yechishga qaratilgan (mamlakat yoqilg'i-energetika va mineral-xom ashyo bazasini mustahkamlash).

MIZlarda beriladigan imtiyoz turlari quyidagichadir:

- 1) moliyaviy imtiyozlar – subsidiya, imtiyozli kreditlar, arzon ijara xaqi;
- 2) soliq imtiyozlari – jadallashtirilgan amortizatsiya, qayta investitsiya soliq solmaslik, daromad solig'iga imtiyozlar;
- 3) ma'muriy imtiyozlar – ro'yxatdan o'tkazish va bojxona muolajalarini yengillashtirish, alohida viza rejimi, qulay infratuzilma bilan ta'minlash;
- 4) tashqi savdo imtiyozlari – eksport-import bojlarini qisqartirish, tovarlar eksportini kvotalar va litsenziyalardan ozod qilish.

Bularning barchasi turli xildagi talqinlar uchun keng ko'lam yaratadi: ba'zi mualliflarning fikricha, MIZning 25-30 turi mavjud, boshqalari esa 10-15 va undan

ham kam turlari bor deyishadi. Biroq har qanday holatda ham ularni turlarga ajratish, bir nechta yaqin turlarini guruhlash juda muhim.

Birinchi guruhni savdo EIHLari tashkil etadi. Bu eng avval paydo bo'lgan EIHLardan biridir(XVI-XVII asrlarda paydo bo'lgan). Unga erkin bojxona hududlari, savdo-saqlash hududlari, erkin portlar, birinchi navbatda esa eng keng tarqalgan ESH (erkin savdo hududlari) kiradi. ESH dengiz portlari yoki aeroportlar hududida yoki bevosita ularga yaqin joylarda tashkil qilinadi. Ular bojxona eksterritorialligidan foydalanishadi: ularda saqlanayotgan va sotilayotgan mahsulotlar oddiy bojxona tekshiruvidan o'tkazilmaydi. ESHlaridan biri sifatida "Dyuti fri" (Duty free – boj to'lanmaydigan) magazinlari tilga olinadi. Ular ko'p xalqaro aeroportlarning zaruriy ashyosiga aylangan bojsiz savdo qilish huquqidan foydalanadi. Ikkinchi guruhga sanoat ishlab chiqarish EIHLari kiradi va ularning bir qancha turlari mavjud. Bu guruh EIHLarini eksport va importga ixtisoslashgan ikki bo'limga ajratish mumkin. Ulardan birinchisi tashqi bozorda, ikkinchisi esa ichki bozorda faoliyat yuritadi. Eksport–ishlab chiqarish hududlari ancha ko'p bo'lganligi uchun ular EIH ikkinchi guruhining asosiy qismini tashkil qiladi. ESHlaridan farqli ravishda eksport-ishlab chiqarish hududlari birinchi o'rinda mamlakatning eksport salohiyatini va mos ravishda valyuta tushumlarini oshirishga mo'ljallangan. Bunday hududga misol sifatida Irlandiyada tashkil qilingan Shennon EICHH ni keltirish mumkin.

Ularning ba'zi birlari ESHni o'zgartirish asosida paydo bo'lgan, lekin ko'p qismi eksportga yo'nalganlik asosida shakllangan. Bunday hududlar uchun yig'ish korxonalarini mavjudligi xosdir. Suningdek, bunday turdagi hududlardan yana biri Meksikada tashkil qilingan makiladoraslardir. Makiladoraslar dastlab 1965 yilda tashkil etilgan va ularning asosiy maqsadi AQSHlar ishlab chiqaruvchilarini Meksikaning arzon xom-ashyo hamda ishchi kuchiga ega bo'lgan chegara hududlariga jalb qilish va shu hududlarda eksport-ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'lgan.

Uchinchi guruhni ilmiy-texnologik (texnik-joriy etish) MIZlar tashkil etib, ularda milliy va chet el loyiha, izlanish, ilmiy-ishlab chiqarish, shuningdek, yagona

soliq va moliya tizimi imtiyozlaridan yagona foydalanadigan firmalar mujassam etadi. Bunday MIZlarning vazifasi yangi texnologiyalarni mahalliy amaliyotga kiritish va ishlab chiqishdan iborat. Ular innovatsion va ilmiy markazlar, ilmiy, izlanish parklari, texnoparklar xususiyatlariga ega. Bunday hududlar dastlab AQSh da 70-yillarda paydo bo'lgan. Misol uchun, Santa – Klara shahri yaqinida joylashgan Silikon Vodiysi AQShnin eng yirik ilmiy-texnologik hududi hisoblanib, bu hududda butun dunyoda ishlab chiqariladigan kompyuter va kompyuter qurilmalarining 20% ishlab chiqariladi.

To'rtinchi guruh xizmat MIZlaridan iborat bo'lib, asosan moliyaviy, shuningdek, boshqa turli xildagi xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan firma va tashkilotlarga imtiyozli sharoitlar yaratib beradi. Ular orasida offshor hududlar, moliyaviy markazlar, bank, turistik va boshqa xizmatlarni ko'rsatish markazlari farqlanadi. Bunday hududlarga misol sifatida Panama, Beliz, Gibraltar va Singapurda joylashgan offshore hududlarni keltirishimiz mumkin.

Offshor hududlar ESH dan farqlanadi. Chunki ESH hududlarida soliq va boshqa imtiyozlar hududdagi barcha korxonalariga berilsa, offshor hududlarda bunday imtiyozlar faqatgina bu territoriyadan tashqari hududda faoliyat ko'rsatadigan korxonalariga beriladi. Offshor markazlarida jahon depozitlarning 1\3 qismi jamlangan bo'lib, ularning hajmi 2005 yilda butunjahon tovar aylanmasining 17% foizini tashkil etgan.

Beshinchi guruhni kompleks MIZlar tashkil etadi. Ular tor ixtisoslashuvga ega emas, eksport-import, ishlab chiqarish va innovatsion faoliyatning turli tomonlarini qamrab oladi, shuning uchun ularning ichki tizimi hammasidan ko'ra murakkabroq. Qoida bo'yicha kompleks MIZlar maydoni bo'yicha ham boshqalaridan yirik. Ular butun bir tuman, ma'muriy viloyat, ba'zi hollarda esa bundan ham katta mintaqa hududlarini egallashi mumkin. Brazilyada tashkil etilgan "Manaus" kompleks MIZ bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu hudud 1967 yilda tashkil qilingan bo'lib, 13 mlrd.dan ortiq investitsiyalarni jalb qilgani holda, ishlab chiqarishning 30 ortiq turlari, 600 dan ortiq korxonalarini va 80 mingdan ortiq ishchilarni o'zida mujassam etadi.

Nihoyat, oltinchi guruhga xalqaro MIZlarni kiritish mumkin. Bu guruh nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. Bunday hududlar ikki va undan ortiq mamlakatlar chegaralarida joylashgan tumanlarda xususiy firmalar, shuningdek, mamlakatlar ishtirokida tashkil etiladi. Xalqaro MIZning yorqin misoli sifatida Rossiya, Xitoy, KXDR chegaralarida joylashgan Tumangan hududini ko'rsatsa bo'ladi. Tumangan loyihasida Tumangan (Tumintszyan) daryo irmog'ida yangi port shaharga ega bo'lgan, maydoni 1000 km² ga teng maxsus xalqaro iqtisodiy hududni tashkil etish ko'zda tutiladi. Bu loyiha 20yil muddatga mo'ljallangan bo'lib, 90-110 mlrd. AQSh dollari miqdorida sarmoyani nazarda tutadi. Loyihani amalga oshirish uchun mamlakatlar o'rtasida mos bitimlar tuzilgan. Bu loyiha Xitoy uchun yangi ish o'rinlarini yaratish hamda Yapon dengiziga chiqish inkonini beradi. Bu hudud yopiq iqtisodiyoti bilan ma'lum bo'lgan KXDRga ko'p tomonlama bitimlarda ishtirok etish imkonini beradi. Rossiya bunda ilmiy mahsulot va xizmatlar sohasida Osiyo-Tinch okeani hududidagi mamlakatlar bilan o'z iqtisodiy aloqalarini chuqurlashtirishi mumkin. Shuningdek, bu loyiha Yaponiya va Koreya Respublikasida ham katta qiziqish uyg'otadi. Biroq, siyosiy va iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan ba'zi bir omillar bu loyihani amalga oshirishda to'sqinlik qiladi.

Shuni qo'shimcha qilish kerakki, eksport-iqtisodiy hududlarni sinflarga bo'lishda mualliflar ularni ketma-ket avlod sifatida ajratishga harakat qilishdi. Odatda, birinchi avlodga ESHlarini, ikkinchi avlodga – eksport-ishlab chiqarish hududlarini, uchinchi avlodga texnik-innovatsion va xizmat hududlari kiradi. To'rtinchi avlod MIZga taalluqli dastlabki g'oyalar ham paydo bo'lgan.

MIZda korxonalar yoki umuman soliqdan ozod qilingan, yoki turli soliq imtiyozlari kafolatlangan bo'ladi. Undan tashqari, korxonalarning ro'yxatdan o'tkazilishi osonlashtiriladi.

Ba'zi olimlarning fikricha MIZlar nafaqat gorizontal (ya'ni hududiy), balki vertikal (ya'ni tarmoqli) faoliyat ko'rsatadi. Birinchi holda MIZ cheklangan maydonga ega bo'ladi, ammo shuni ham qayd etish lozimki, ba'zan butun mamlakat MIZga aylanishi mumkin. Shunday, xorijiy investorlar, qo'shma korxonalar, o'rta va kichik biznes uchun imtiyozlar yaratayotganda, hukumat ba'zan mamlakatda

“mikroMIZlar” tashkil qilayotganini anglamaydi. Bu MIZlar tor ixtisoslikdagi masalalarni hal etadilar, biroq makroiqtisodiy vaziyatga jiddiy ta’sir ko’rsatmaydilar. Ikkinchi holda, muayyan tarmoqning ba’zi korxonalari hamda shu tarmoqning o’zi (masalan, qishloq xo’jaligi, oltin qazib olish, mashinasozlik) ham faqatgina ularning faoliyatiga tegishli bo’ladigan imtiyozlarga ega bo’ladi: O’zbekiston uchun deylik, bu turizm bo’lishi mumkin.

Xalqaro maydonda tashkil etilgan MIZlar faoliyatini tahlil qilish asosida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, tashkil qilinadigan MIZlar yagona dastur asosida loyihalashtirilib, bu dasturni ishlab chiqishda Davlat qo’mitalari va muassasalarining faol ishtirok etishi ta’minlamog’i lozimdir.

1.3. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini baholovchi mezonlar

Erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini to’liq holda qiymat ko’rsatkichlari bilan o’lchab bo’lmaydi. Chunki ijobiy o’zgarishlar nafaqat o’sha hududda, balki qo’shni hududlarda ham sodir bo’ladi. Erkin iqtisodiy zonalar nafaqat o’z maydoniga, balki zona atrofidagi hududlarga kapital mablag’lar va xorijiy valyutalar oqimini oshirish yo’li bilan ijtimoiy-iqtisodiy samara keltiradi.²⁸

Maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etuvchi mamlakat uchun ushbu hudud namunaviy samara ham beradi. Ya’ni milliy iqtisodiyotga yuqori malakali mehnat resurslari keladi, zamonaviy texnologiyalar, nou-xaular, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish tajribasi olib kelinadi hamda mahalliy kadrlarga o’rgatiladi. Maxsus iqtisodiy zonalar marketing samarasini beradi, ya’ni zonada yaxshi ishni tashkil eta olgan korxonalar (firmalar) mamlakatning qolgan korxonalari uchun ishni tashkil etishda o’rnak bo’ladi.

Maxsus iqtisodiy zonalarda hukumat tomonidan qo’yiladigan to’siqlarni kamaytirish yo’li ham ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta’sir qiladi. Bu esa mamlakatda iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonini tezlashishiga yordam beradi.

²⁸ Rashidov M.K. Erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini baholash mezonlari. Maqola. Iqtisod va moliya, № 12, 2012

Maxsus iqtisodiy zonalar ustunligining yana bir jihati ilg'or texnologiyalarning berilishi (tarqalish)dir. U bevosita, bilvosita va raqobat samaralarini beradi:²⁹

- bevosita samara – bu maxsus iqtisodiy zonalardagi korxonalarining yangi texnologiya tufayli zamonaviy, raqobatbardosh, sifatli, arzon tovarlar ishlab chiqarishlaridir;

- bilvosita samara – bu erkin iqtisodiy zonalardagi yangi texnologiya bilan ishlayotgan korxonalar, uni tayyor mahsulotini ishlatadigan, unga xomashyo, yarim tayyor mahsulot yetkazib beradigan korxonalariga zamon talablariga javob beradigan buyurtmalar orqali ijobiy ta'sir qilishidir;

- raqobat samarasi – bu yangi texnologiyaga o'tgan korxonalar zona ichida va zonadan tashqari firmalar o'rtasida raqobatni kuchaytirib yuboradi, buning natijasida firmalarni ilg'or texnologiyalarni qo'llashga, yangi texnologiyalar yaratish uchun ilmiy tadqiqotlar qilishga majbur qiladi.

Erkin iqtisodiy zonalar bandlik darajasini oshirish yo'li bilan ham mamlakat iqtisodiyotiga ijtimoiy-iqtisodiy samara keltiradi. Erkin iqtisodiy zonalarning samaradorligi, birinchi navbatda, uni barpo etish siyosatining, ya'ni zonal siyosatning puxta ishlab chiqilganligiga hamda bu siyosatni ketma-ketlikda, to'g'ri amalga oshira bilishga bog'liqdir. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligi, uning faoliyatini huquqiy jihatdan sifatli ta'minlanganligiga ham bog'liq. Shuning uchun erkin iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini oshirmoqchi bo'lsak, uning talablariga javob beradigan normativ-huquqiy bazani yaratish zarurdir.

Erkin iqtisodiy zonalarning yashovchanligi va samaradorligi unda joylashtirilgan korxonalarining kritik hajmiga hamda bu korxonalarining bir-biriga hamkor bo'la olish darajasiga bog'liq. Chunki bularsiz erkin iqtisodiy zonalarning o'ziga xos iqtisodiy mexanizmi ishlab ketish imkoniga ega bo'lmaydi. Bir-biriga uncha bog'liq bo'lmagan, kam sonli korxonalar odatda, erkin iqtisodiy zonalarga

²⁹ Xujamkulov D.Y. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 2019.

yetarli samara bera olmaydi. Agar zonaga chetda joylashgan korxonalar jalb qilinsa, unda xo‘jalik yuritishning 2 turi – zonal va mahalliy turlari shakllanadi. Bu esa zonani boshqarishni murakkablashtirib yuboradi.

Erkin iqtisodiy zonalar samaradorligiga ta’sir etuvchi quyidagi omillarning hisobga olinishi muhim o‘rin egallaydi:

- erkin iqtisodiy zonalar uchun joy tanlashda oqilona yondashuv (tanlangan maydonda investitsiyaviy hamkorlikni olib borish uchun ob’ektiv sharoitlarning mavjudligi);

- imtiyoz va qulayliklar tizimini yaratishda xorijiy investorlar manfaatini imtiyozlar faoliyatning barcha shakllariga tarqalishiga, oxir-oqibatda zona ishida hech qanday samara bermasligiga olib keladi.

Tadqiqotchilar erkin iqtisodiy zonalar samarali faoliyat yuritishi uchun quyidagilarni muhim, deb hisoblashmoqda³⁰:

- tashlandiq yerlar va ishlab chiqarish mahsuldorligiga, unumdorligini tiklash;
- hudud aholisi uchun juda ko‘p miqdorda ish joylarini yaratish;
- ijtimoiy va xususiy sektorlar o‘rtasida kooperatsiyani rivojlantirish.

Erkin iqtisodiy zonalar yaratishda barcha qoidalarga, talablarga rioya qilinsa hamda tayyorgarlik va tashkiliy ishlar boshidan puxta olib borilsa, uning samarali ishlashiga kafolat bor. Iqtisodiy zonaning samaradorligiga baho berish har bir ko‘rsatkichlar guruhi uchun prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Belgilab olingan reja bajarilish darajasini aniqlash bo‘yicha erkin iqtisodiy zonalarning samaradorligini baholash ko‘rsatkichlariga prognoz va haqiqatdagi qiymatlar taqqoslamasi orqali baho beriladi.³¹ Baholash 5 balli qiymatda belgilanib, bajarilgan ishlar holatini ballar bo‘yicha o‘rnatilgan mezonlar asosida nazoratga olish belgilangan. Ta’kidlash joizki, jahon iqtisodiyoti tajribasida erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini baholash jarayonida ayrim oraliqlar hisobga

³⁰ Xoliqulov A.R. Erkin iqtisodiy zonalar: nazariy asoslar va jahon tajribasi. Darslik. 2002

³¹ Qoraboyev SH.A., Inamova G.A. va bshq. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish masalalari. Maqola. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №1, 2018

kiritilmasdan yoki oraliqlarning takrorlanishi bir qator noqulaylik keltirib chiqarishga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda, mavjud ilmiy adabiyotlarda korxonalar samaradorligi – bu ma'lum vaqt mobaynida korxonalar faoliyatining yakuniy natijalarini har tomonlama kompleks baholashdan iborat³². Hozirgacha samaradorlikning bir qator ta'riflari ishlab chiqilgan. Masalan, P.Druker o'zining “Menejment amaliyoti” asarida samaradorlikni iqtisodiy ko'rsatkichlar va jami xarajatlarning korxonalar uchun eng yuqori foydali nisbati deb ta'kidlaydi³³. Ushbu nuqtai nazarga R. Kaplan va D. Norton kabi olimlar ham qo'shilishadi va samaradorlikni “natijalarning sarf-xarajatlarga nisbati sifatida aniqlanadigan nisbiy ko'rsatkich, jarayonning maksimal natijaviyligi” sifatida ta'riflaydilar³⁴. F. Teylor, o'z navbatida, “tijorat tuzilmasi va uning jamoasi uchun, shuningdek aksiyadorlar, investorlar, davlat, xodimlar, xaridorlar – barcha manfaatdor tomonlar uchun maksimal samaradorlik korxonalar natijalarining hosilaviy ko'rsatkichidir”, – deb ta'kidlagan³⁵.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining (OECD) statistik terminlar lug'atiga ko'ra, samaradorlik – bu ma'lum faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishilganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkich³⁶, yoki berilgan resurslardan foydalangan holda maksimum ishlab chiqarish yoki sotuv hajmiga erishish³⁷ bo'lsa, unumdorlik – bu natijaning (ishlab chiqarish hajmi, daromad hajmi, sof foyda va h.k.) sarflangan resurslarga (xomashyo, ish haqi, ma'lum sohaga ajratilgan mablag' va boshqa xarajatlari) nisbatini ifodalovchi ko'rsatkich³⁸.

G'arb menejmenti samaradorlik ko'rsatkichlarini boshqaruv konsepsiyalarida qo'llash bo'yicha uzun tarixga ega – 1932-yilda fransuz ekonomisti J.L.Malo

³² Вечканов Г.С. Современная экономическая энциклопедия – Санкт-Петербург, - 2013, С. 880.

³³ Drucker P. – The practice of management - M.: Uilyams, 2007. – P. 400

³⁴ Kaplan R., Norton D. System of balanced scorecard. From strategy into action - M. / Olymp-Business, 2008.,— B. 320.


³⁵ Teylor F.W. Reflections on the Relevance of the Principles of Scientific Management 100 Years Later - Journal of Business and Management – Vol. 17, No. 1, 2011. – P. 104.

³⁶ OECD, Glossary of statistical terms: Effectiveness <https://stats.oecd.org/glossary/detail.asp?ID=4775>

³⁷ OECD, Glossary of statistical terms: Effectiveness <https://stats.oecd.org/glossary/detail.asp?ID=4776>

³⁸ OECD, Glossary of statistical terms: Productivity - <https://stats.oecd.org/glossary/detail.asp?ID=2167>

tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar tizimi (Tableau de bord) dan tortib P.Drukerning 1954-yilda yaratilgan maqsadlar asosida boshqaruv tizimiga qadar (Management by Objectives). Hozirgi vaqtda "tableaubord" zamonaviy konsepsiyasi shakllangan va uni fransuz mualliflari I.Chiapello va M.Lebas moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlarning o'zaro sabab-natija bog'liqligi asosidagi munosabatlaridan "tanlash, hujjatlashtirish va izohlash" uchun foydalaniladigan boshqaruv vositasi sifatida belgilaydilar. Har bir ko'rsatkich boshqarilishi kerak bo'lgan biznesning ma'lum bir qismi holatini ko'rsatadi; ya'ni, jamoaviy menejmentda "tableaubord" bu biznesning tizim sifatida umumiy modelidir. P.Druker biznesda boshqaruv panelidan foydalanishning dolzarbligini quyidagicha ta'riflagan: "asosiy sohalardagi maqsad ko'rsatkichlari korxonada "pilot" uchun jihozlar paneli kabi ahamiyat kasb etadi". P.Druker 1954-yilda birinchi marta samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari (key performance indicators – KPI) tushunchasini qo'lladi. Samaradorlikni baholash va uni oshirish bo'yicha kompleks yondashuvlardan biri olti sigma metodi hisoblanadi. Olti sigma (Six Sigma) metodi - bu biznes jarayonidagi xatolar yoki nuqsonlarning sabablarini izlash va yo'q qilish orqali ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirishni nazarda tutuvchi samaradorlikni baholash metodi hisoblanadi. Olti sigma konsepsiyasiga ko'ra har bir million ishlab chiqarish hajmiga 3,4 dona nuqsonli mahsulot to'g'ri keladi. Ya'ni, samaradorlik bunda 99,9966% ni tashkil etadi. Aynan shunday ko'rsatkichni 1980-yilda Motorola kompaniyasi o'zining har bir ishlab chiqarish jarayoni uchun maqsad qilib belgiladi. Ushbu metodni keyinroq General Electric, Honeywell, Microsoft, Johnson & Johnson, Xerox kabi yirik xalqaro kompaniyalar ham qo'llashni boshladi. Odatda kompaniyalarning standart ko'rsatkichlari - 4σ , ya'ni, bir million ishlab chiqarishga 6 210 dona yaroqsiz mahsulotlardan iborat. Olti sizga tizimida samaradorlikni oshirish metodikalaridan eng keng foydalaniladigan turi – bu DMAIC (define, measure, analyze, improve, control) modeli hisoblanadi.



1.2-rasm. Olti sigma tizimida DMAIC modeli ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Samaradorlikni baholashning yana bir keng qo'llanidigan usuli – bu benchmarking. Ya'ni, ma'lum sohada faoliyat olib borayotgan eng muvaffaqiyatli kompaniyaning ko'rsatkichlari "etalon" sifatida ajratib olinadi va mavjud resurslardan foydalangan holda erishish mumkin bo'lgan maksimum samarador chegarasi sifatida belgilanadi. Shunday qilib, samaradorlik o'lchovi tadqiq qilinayotgan korxonalar va samaradorlik chegarasi orasidagi masofani aniqlashdan iborat. G'arb adabiyotida samaradorlik chegarasi o'lchovi asosan ikki usulda amalga oshiriladi. Birinchisi, matematik statistika usullari - stoxastik chegarasi ishlab chiqarish funksiyasidan foydalangan holda eng ilg'or, eng samarali korxonalar uchun ishlab chiqarish imkoniyatlarini funksiyasini to'g'ridan-to'g'ri qurish orqali. Ikkinchidan, maksimal rentabellikni aniqlash ushbu korxonalar resurslaridan foydalanishning shaxsiy samaradorligi ko'rsatkichlarini boshqa korxonalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash va chiziqli dasturlash usuli bilan "ma'lumotlar qobig'i" ni qurish yordamida. Ushbu "ma'lumotlar qobig'i" ishlab chiqarish qobiliyatining chegarasini, ya'ni har qanday resurslar kombinatsiyasi uchun mumkin bo'lgan maksimal darajani belgilaydi. Ushbu usul ma'lumotlar qobig'i tahlili (data

envelopment analysis, DEA) deb nomlanadi³⁹. Birinchi bo‘lib M.Farrel⁴⁰ DEA metodini bir birlik yakuniy mahsulot samaradorligini bir kirish ko‘rsatkichi (input) va bitta chiqish ko‘rsatkichi (output) yordamida hisoblashga harakat qilgan. Ammo, barcha turli xil kirish va chiqish parametrlarini bir virtual ko‘rsatkich orqali ifodalashning iloji bo‘lmaganligi sababli, bu urinish muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Keyinroq ushbu g‘oya Charlz, Kuper va Rodes tomonidan chiziqli dasturlash usullari yordamida takomillashtirilgan⁴⁰. Ushbu modelning asosini samaradorlik ko‘rsatkichi tashkil etadi. Samaradorlik ko‘rsatkichi barcha chiqish (natija) parametrlar yig‘indisining barcha kiruvchi parametrlari yig‘indisiga nisbatiga teng. Har bir qaror qabul qiluvchi birliklar (decision-making units, DMU) uchun samaradorlik qiymati aniqlab olinib, so‘ng kuzatuvlar taqqoslanadi. DEA modelida samaradorlik mezoni Pareto optimumiga erishishdan iborat. Ya’ni, iqtisodiy vaziyat 100% samarali hisoblanadi, agarda:

- Hech qaysi chiqish parametrlari biror –bir kirish parametrini ko‘tarish orqali yoki boshqa chiqish parametrini tushirish orqali ko‘tarila olmasa;
- Hech qaysi kiruvchi parameter biror-bir chiqish parametrini tushirish yoki boshqa kirish parametrini ko‘tarish orqali tushirila olmasa.

Birinchi DEA model Charlz, Kuper, Rodes modeli (CCR model) deb ataladi. Bunda masshtab samarasi doimiy o‘zgarmas deb shart qo‘yiladi (constant return to scale, CRS) va quyidagi ko‘rinishha ega⁴¹:

$$e = \frac{\sum_{j=1}^s u_j y_j}{\sum} \rightarrow \max! \text{ quyidagi shartlar asosida:}$$

$$u_j \geq 0 \quad j = 1, 2, 3, \dots, s$$

$$v_i \geq 0; \quad i = 1, 2, 3, \dots, r$$

³⁹ Charnes, A., Cooper, W., Lewin, A., Seiford, L. Data Envelopment Analysis. Theory, methodology and applications, Kluwer Academic Publishers, Boston/Dordrecht/London, 1994.

⁴⁰ Farrell, M. J. The measurement of productive efficiency, Journal of the Royal Statistical Society, Series A, 120, 1957.-P. 253-281.

⁴¹ Lissitsa, Aleksej; Babićeva. Анализ оболочки данных (dea) / современная методика определения эффективности производства, Discussion Paper, No. 50, Institute of Agricultural Development in Central and Eastern Europe (IAMO), Halle (Saale), 2003, <http://nbn-resolving.de/urn:nbn:de:gbv:3:2-23263>

Bunda:

e_0 = tadqiq qilinayotgan korxonaning samaradorligi;

n = taqqoslanayotgan birliklar soni;

r = kiruvchi faktorlar soni;

s = chiqish parametrlari soni;

x_{i0} = i – inchi faktorning qiymati;

y_{j0} = j – inchi chiqish parametri qiymati;

x_{im} = m – inchi korxonaning i -inchi kirish omili ifodasi, $i=1, \dots, r$ va $m=1, \dots, n$

y_{jm} = m – inchi korxonaning j – inchi chiqish parametric ifodasi, $j = 1, \dots, s, m = 1, \dots, n$

u_j = kiruvchi omilning nisbiy og‘irligi

1.8-jadval

Bazaviy DEA-modellar⁴²

Nomi	DEA-modelning funksional ko‘rinishi	Xarakteristikasi
<i>Ikki tomonlamainput-yo‘naltirilgan CCR-input model</i>	$\sum_{j=1}^s \mu_j y_{j0} \rightarrow \max$ Quyidagi shart asosida: $\sum_{i=1}^r t_i x_{i0} = 1; \mu_i, t_i \geq 0$	Kiruvchi omillari yig‘indisini istalgan normalashgan chiqish parametriga nisbatan minimallashtirib maksimal samaraga erishish
<i>Ikki tomonlamainput-yo‘naltirilgan BCC-model</i>	$\sum_{j=1}^s \mu_j y_{j0} + u_0 \rightarrow \max$ Quyidagi shart asosida: $\sum_{i=1}^r t_i x_{i0} = 1; \mu_i, t_i \geq 0$	Kirish omillari yig‘indisini istalgan masshtab samarasi parametriga nisbatan minimallashtirib hamda x kirish parametrlarini y chiqish parametrlariga nisbatan o‘zgarishi orqali maksimal samaraga erishish
<i>Ikki tomonlama jamlovchi VarMulti modeli</i>	$\sum_{j=1}^s \mu_j \log(y_{j0}) - \sum_{i=1}^r t_j \log(x_{i0}) \rightarrow \max$ Quyidagi shart asosida: $\sum_{i=1}^r t_i x_{i0} = 1; \mu_i, t_i \geq 0$	Ishlab chiqarish funksiyalari uchun interpretatsiya qilinadi

⁴² Meilisa Malik, Syahril Efendi, Muhammad Zarlis, Department of Mathematics, Universitas Sumatera Utara, Medan, Indonesia Data Envelopment Analysis (DEA) Model in Operation Management doi:10.1088/1757-899X/300/1/012008 tadqiqoti asosida muallif tomonidan tayyorlandi

v_i = chiqish parametrining nisbiy og'irligi Ushbu modelning asosiy kamchiligi, miqyos samarasini inobatga olmasligidadir. Shu sababli DEA modelining keying takomillashuvi miqyos samarasining o'zgaruvchanligini hisobga oluvchi BCC-output va BCC-input modellarining ishlab chiqilishi bilan xarakterlanadi.

DEA metodining bazaviy modellari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

Misol sifatida 10 ta korxonalar (DMU – qaror qabul qiluvchi birliklar) ning sifat menejment tizimi uchun samaradorlikni o'lchashni ko'rib chiqamiz⁵⁴. Kiruvchi faktorlar:

- Sifat qiymati (mahsulot sifatini kafotlatlash uchun qo'shimcha xarajatlar) - x_1
- Sifat ta'minoti uchun mas'ul xodimlar soni - x_2

Chiqish (natija) ko'rsatkichlari jadvali:

Faoliyat o'lchovlari	Output o'zgaruvchilari
Sifat faoliyati ko'rsatkichlari	Sifatli mahsulotlar (%) – y_1 Xaridorlarning mamnunlik darajasi (%) - y_2
Operatsion faoliyat ko'rsatkichlar	O'z vaqtida yetkazib berish darajasi (%) - y_3
Moliyaviy ko'rsatkich	Daromad ko'rsatkichi (mln. AQSh\$) - y_4

Ushbu ma'lumotlar jadval ko'rinishida joylanadi. Vertikal ketma ketlikda korxonalar (DMU 1, DMU 2 va h.k.) va ularga mos ravishda gorizontol ketma-ketlikda input va output o'zaruvchilar ($x_i; y_j$) kiritiladi hamda yuqorida keltirilgan bazaviy DEA-modellaridan birortasiga tadbiiq qilinadi va qaysi kompaniyalar samaradorli ekanligi va qolganlarining samarasizlik darajalari aniqlanadi. Shuni e'tiborga olish kerakki, bazaviy DEA-modellarni qo'llash uchun kompaniyalarning biznes-muhitlari va iste'molchilari bir-biridan keskin farq qilmasligi lozim. Keskin farqli sharoitlarda faoliyat olib boruvchi korxonalar uchun modifikatsiyalangan DEA – modellari maxsus ishlab chiqilib tadbiiq etilishi zarur⁴³.

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan samaradorlikni o'lchash metodlarining barchasi kompaniya faoliyati natijaviyligini va samaradorligini oshirishda muhim

⁴³ Kovalev I., Zelenkov P., Ognerubov S. The efficiency analysis of automated lines of companies based on DEA method // Lecture Notes in Economics and Mathematical Systems. Vol. 675, 2014. - P. 107–115.

ahamiyat kasb etadi. Samaradorlikni baholash metodikalari rivojlanish bosqichlari moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili, qiymat ko'rsatkichlari (ROI, ROA, ROS, ROE kabi koeffitsientlar), iqtisodiy qo'shilgan qiymat (EVA), aksiyadorlik daromadliligi ko'rsatkichi (TSP), olti sigma, DMAIC hamda DEA-analizni o'z ichiga oladi. Nisbatan yangi va eng keng qo'llaniladigan olti sigma metodi xatoliklarni va yaroqsiz mahsulotlar ulushini kamaytirishga qaratilgan. Hozirda eng samarali hisoblangan DEA modeli esa benchmarking tizimi asosida input va output ko'rsatkichlarni optimallashtirish orqali bir nechta qaror qabul qiluvchi birliklar (DMU) orasida samarali va nisbatan samarasiz birliklarni aniqlab olishga yordam beradi.

MIZdagi ayrim korxonalarining rivojlanish ma'lumotlariga asoslangan holda hududda ishlab chiqarishning umumiy o'sishi va uning iqtisodiyoti rivojlanishini tavsiflovchi ma'lumotlar shakllantirilishi kerak. Jumladan: ishlab chiqarishning umumiy hajmi, asosiy vositalarning qiymati, ish haqi fondi, soliq tushumlari, shuningdek soliq kreditlari hisobiga MIZ ixtiyorida qoladigan mablag'lar, investitsiyalarga bo'lgan umumiy ehtiyoj (ularni jalb qilish mumkin bo'lgan mavjud manbalar bo'yicha taqsimotini ko'rsatgan holda).

Shunday qilib uchbu ta'riflardan shuni xulosa qilish mumkinki Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati darrov ijtimoiy-iqtisodiy samara (birinchi navbatda, ijtimoiy samara) bermaydi, u qandaydir vaqt lagini (kechikishini) talab qiladi. Agar ushbu hududlarda ishlovchilarning ish haqlari o'sa boshlasa, xorijdan investitsiya ko'proq kela boshlasa, ishsizlar soni kamaya boshlasa, bozorda tovar va xizmatlar ko'paya boshlasa, demak erkin iqtisodiy zona yaxshi ishlamoqda.

I-bob bo'yicha xulosa

Umuman olganda yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda hududlarning adminstrativ tuzilmalari bir biridan farq qilishiga qaramay ularni asosiy prinsip birlashtirib turadi, investorlar uchun barcha instrumentlarni ishlatgan holda tashkiliy masalalarni tez va qulay holatda hal etish zarur.


Maxsus iqtisodiy zonalar yaratilishi va faoliyati samaradorligini aniqlashda Anklav MIZlar erkin konvertatsiyalashadigan valyutani ishlash uchun barcha ishlab chiqariladigan mahsulotni eksport qilishga yo‘naltirish kerak. Chunki aynan MIZlar chet el investorlarni jalb qilish orqali kapitalning internatsionallashtirishiga sabab bo‘ladi va transmilliy kompaniyalarning kirib kelishi orqali integratsiyalashuv jarayonlari yanada yuqori bosqichga olib chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalar mexanizmini tubdan qayta qurish, xorijiy investitsiyalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etish borasida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlash, xorijiy sarmoyador va tadbirkor-ishbilarmonlar bilan iqtisodiy integratsiyaning samaradorligini oshirish uchun erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilishi muhim ahamiyatga egadir.

II BOB. MAXSUS IQTISODIY ZONALAR TASHKIL ETILISHINING JAHON TAJRIBASI

2.1. AQSH iqtisodiyotida maxsus iqtisodiy zonalarining ahamiyati

MIZ lar mavjud bo'lgan 147 dan ortiq davlatlar orasida eng ko'p tarqalgani AQSH ga to'g'ri keladi. AQSH dagi MIZ larni faoliyatiga qarab quyidagicha guruhlash mumkin:



2.1-rasm AQSH maxsus iqtisodiy zonalarining guruhlanishi⁴⁴

AQSH da dastlabki maxsus iqtisodiy zonaning yaratilishi 1930-yillarga borib taqaladi va 1934 yilda “ Tashqi savdo zonalari to'g'risida” gi Qonunning qabul qilinishi MIZ lar yaratilishiga muhim asos bo'ldi. ⁴⁵Rivojlangan davlatlarda maxsus iqtisodiy zonalarining tashkil etilishidan asosiy maqsad, depressiv hududlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish , ishsizlik darajasini pasaytirishdir. Dastlabki yaratilgan TSZ laridan ko'zlangan maqsad ham aynan muayyan hududlarda bojxona imtiyozlari, shuningdek, Buyuk depressiya davrida haddan ziyod yuqori bo'lgan ishsizlik darajasini

⁴⁴ World Investment Report 2023 malumotlari asosida muallif ishlanmasi.

⁴⁵ Congressional Research Service. U.S. Foreign-Trade Zones: Background and Issues for Congress . Hisobot , 2019 – 2-bet

pasaytirish yordamida iqtisodiy faollikni oshirish yo‘li bilan mamlakatni jahon savdosiga chuqurroq jalb etishdan iborat. AQShda dastlab TSZlar xalqaro transport yo‘nalishlaridagi port hududlarda tashkil etildi va ushbu hududlarda pasaytirilgan bojxona bojlari (tariflari) amal qildi. TSZ lari umumiy maqsadlar uchun va ixtisoslashgan ko‘rinishda faoliyat yuritadi. Bugungi kunda zamonaviy tashqi savdo hududlari import mahsulotni omborga joylash, qadoqlash, qayta ishlash, ishlab chiqarilgan mahsulotlar asosida ayrim turdagi ishlab chiqarishlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha juda ko‘p xizmat turlarini qamrab oladi.

AQSH tashqi savdo zonalari Tashqi savdo zonalar Kengashi hisoblangan Savdo va g‘aznachilik vazirligi tomonidan boshqariladi. Kengash zonalarning tashkil qilinishi, maxsus ishlab chiqarish jarayonlariga ruxsat berish va zonalar bo‘yicha umumiy nazoratni amalga oshiradi.⁴⁶

1934-yildagi “Tashqi savdo zonalari to‘g‘risida”gi qonun ushbu hududlarda ishlab chiqarish faoliyati yuritilishini man qilgan. Sababi ishlab chiqarish resurslarining importi bu hududlarda arzonroqqa tushishi va bu bilan boshqa milliy tadbirkorlar faoliyatiga zarar keltiradi deb hisoblashgan. Ammo bu ta‘qiq zonada faoliyatini yuritmoqchi bo‘lganlar sonining oshmasligiga olib kelgan. 1950-yilga kelib esa, AQSH Kongressi bu qonunni qayta ko‘rib chiqqan va tashqi savdo zonalarida ishlab chiqarish faoliyatiga ruxsat bergan. Oradan ikki yil o‘tib, Tashqi savdo zonalari Kengashi tomonidan yangi tartib joriy qilindi va endi kompaniyalar faoliyati uchun qulay bo‘lgan subzonalar tashkil etildi. Bu esa ishlab chiqaruvchi kompaniyalar zona hududidan tashqarida bo‘lishi, ammo zonada amal qiladigan imkoniyatlardan foydalana olishini bildiradi. 1980 va 1982-yillardagi administrativ qarorlar ham TSZ rivojiga hissa qo‘shdi, ya‘ni zona hududidagi ishlab chiqaruvchilar qo‘shimcha qiymat solig‘i, vositachilik yoki import tovarlar bilan bog‘liq transport to‘lovlaridan ozod qilindi.⁴⁷

⁴⁶ Congressional Research Service. U.S. Foreign-Trade Zones: Background and Issues for Congress. Hisobot, 2019 – 2-bet

⁴⁷ Congressional Research Service. U.S. Foreign-Trade Zones: Background and Issues for Congress. Hisobot, 2019 – 12-bet

2012-yilda AQSH TSZ Kengashi yangi qoidalarni chiqardi. Ular birinchi navbatda ariza berish tartiblarini soddalashtirish va qisqartirish, ishlab chiqarish faoliyati uchun Kengash tomonidan tasdiqlash muddatini bir yildan to‘rt oygacha qisqartirdi.

Bugungi kunda AQSH da 253 umumiy maqsadli zonalar va taxminan 400 ta subzonalar (import o‘rmini bosuvchi yoki eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqariladi) mavjud.⁴⁸

Tashqi savdo hududlarida quyidagi imtiyozlar amal qiladi:

- ushbu hududdan uchinchi davlatga eksport qilinyotgan tovardan bojxona boji, ichki soliqlar undirilmaydi;
- tovar eksporti jarayoni osonlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi;
- agar mahsulot mamlakat ichiga ichki iste‘mol uchun olib kirilsagina ichki boj va soliqlar to‘lanadi;
- TSZ da joylashgan firma va shaxslarning xususiy mulki mahalliy va davlat soliqlarini to‘lamaydilar.

Hozirgi kunda AQSH da barcha aeroportlar, portlar, katta - katta omborxonalar TSZ lariga aylantirilgan.

Tashqi savdo zonalarini faoliyati AQSH tashqi savdosida sezilarli o‘ringa ega. TSZ Kengashining 2022 yil yakunlariga bag‘ishlangan Kongress uchun tayyorlagan hisobotiga ko‘ra, tashqi zonalar orqali AQSH ga kirib kelyotgan xorijiy tovarlarning AQSH umumiy importidagi salmog‘i 10 % ga teng bo‘lib , bunda neft/benzin (25 %), transport vositalari va tegishli qismlari (17 %) va elektronikalar (16 %) TSZ ga eng ko‘p kirib kelyotgan xorijiy mahsulotlardir. TSZ lariga kelyotgan tovarlarning deyarli 60 % i ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladi , qolganlari esa omborxonalarda saqlash va logistik xizmatlardan foydalanish (40%) maqsadlarida kirib keladi . Shuningdek, bu mahsulotlarning 86 % i AQSH da iste‘mol qilinadi, qolganlari esa eksport qilinadi. Zona ishlab chiqarish faoliyatining muhim qismini tashkil etadigan tarmoqlarga neftni qayta ishlash, avtomobilsozlik, elektronika va farmatsevtika kiradi. Jadval 1 da esa 1993-yildan 2018-yilgacha AQSH TSZ larining

⁴⁸ U.S. International Trade Administration. “U.S. Foreign-Trade Zones”. Hisobot , 2013

faoliyat ko‘rsatkichlari berilgan. Bunga ko‘ra, zonalarda ish bilan bandlar soni 2018-yilga kelib 440 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, amalga oshirilgan loyihalar esa 195 tani tashkil qilgan. Rezident korxonalar ham yildan yilga ko‘payib borgan va hozirgi kunda 3500 ga yaqin.

2.1-jadval

1993-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan muddatda AQSH MIZ lari faoliyat ko‘rsatkichlari⁴⁹

	1993	2000	2010	2017	2022
Zonadagi ishchilar soni	292 000	340 000	320 000	390 000	440 000
Amaldagi TSZ loyihalari	122	145	168	177	195
Zona rezidentlari	2700	2420	2400	3050	3300
Kirib kelgan umumiy ichki va xorijiy tovarlar (milliard AQSH dollar)	\$104	\$238	\$534	\$836	\$794

Tadbirkorlik hududlari esa , asosan, tadbirkorlarga ko‘proq ma‘muriy imtiyozlar va faoliyat erkinligini kafolatlovchi hududlar sanaladi va unda tashqi savdoni rivojlantirish muhim o‘rin tutmaydi. Bu kabi hududlar , asosan, yuqori ishsizlik darajasi mavjud bo‘lgan hududlarda yaratiladi va qamroviga qarab federal, shtat yoki mahalliy darajadagi tadbirkorlik hududlari bo‘lishi mumkin.

Tadbirkorlik hududlari rezidentlari uchun quyidagi imtiyozlar taqdim etiladi:⁵⁰

- Federal darajada. Qurilish va ta‘mirlash ishlari uchun soliq stavkasining 5 % ga kamaytirilishi;
- Shtat darajada. Korxonada daromadidan olinadigan soliqning 50 % ga kamaytirilishi.

⁴⁹ AQSH Tashqi savdo zonasi Kengashi, Yillik hisoboti asosida muallif ishlanmasi.

⁵⁰ Васильев А.Н., Щукина А.Я., Анализ эффективности деятельности СЭЗ в России. Мақола. Вестник Волжского университета имени В.Н. Татищева № 1, том 2, 2019

- Jihozlar va qurilish materiallari savdosi uchun soliq yukining 100 % ga kamaytilishi;

- Korxonalarining qo‘shimcha yaratgan har bir ish o‘rni uchun soliq chegirmalari (bir ish o‘rni uchun 2000 AQSH dollarigacha).

AQSH ning 40 dan ortiq shtatida bu kabi hududlar tashkil etilgan bo‘lib, ularda faoliyat yurityotgan korxonalar mulk solig‘i, daromad solig‘idan ozod etilgan va mahsulotlar realizatsiyasi bilan bog‘liq xarajatlarning qaytarib berilishi bilan bog‘liq imtiyozlar orqali ko‘plab investorlarni jalb qila olishgan.

Misol uchun, AQShning Kaliforniya shtatida tashkil etilgan tadbirkorlik hududlari mashina va uskunalarni xarid qilishda (yiliga 20 mln. AQSh dollarigacha summada) investorlar soliq kreditlaridan foydalanishi mumkin. Shuningdek, ishga jalb etgan har bir mahaliy ishchiga 27 ming AQSh dollaridan boshlanuvchi soliq kreditlariga ham ega bo‘ladi.

Texnopark – bu innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, yuqori ilmiy sig‘imli texnologiyalar va mahsulotlar yaratuvchi kompaniyalarni birlashtirish uchun tashkil etilgan, ajratilgan alohida, maxsus hudud. AQShda ilmiy parklar (texnoparklar) 1950-yillarning boshidan boshlab paydo bo‘ldi va bugungi kunga qadar rivojlanib kelmoqda. Hozirda ularning soni AQShda 200 dan ortadi. Texnoparklardagi ilmiy laboratoriyalar ilmiy va texnikaviy g‘oyalarni yaratish bilan shug‘ullanuvchi, ya‘ni yuqori texnologiyalar sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi firmalarga imtiyozli ravishda ijaraga beriladi. AQSH dagi eng birinchi texnopark Stenford universiteti hududida 1950 -yillarda tashkil etilgan bo‘lib, universitet hududidagi bu ilmiy park binosi qariyb 30 yil davomida qurilib, foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, bu firmalar universitet bilan o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatgan. Aynan ushbu ilmiy park ilmiy sig‘imkor texnikalarni yaratish bo‘yicha bir qancha natijalarga ega “Silikon (Kremniy) vodiysi” ning rivoj topishiga hissa qo‘shgan.

Ko‘plab davlatlarda bo‘gani kabi AQSHda ham MIZlar iqtisodiy siyosat instrumentlari va mexanizmlarini shakllantirish va sinab ko‘rish maydoni sifatida qo‘llaniladi, keyinchalik butun davlat hududiga keng yoyiladi. Bundan tashqari

MIZlar xorijiy kompaniyalarning mamlakat bozoriga kirishi va u orqali qo‘shni davlatlar bozoriga kirishini osonlashtirish uchun ham ishlatiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz lozimki mamlakatning eksportga yo‘naltirilganligi hamda kompaniyalarning xalqaro bozordagi faoliyat tajribasi va texnologiyalarning aktiv almashinuvi, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi oshiradi va aholining yashash darajasi o‘stiradi.

2.2. Xitoyning maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish amaliyoti va tajribalari

Rivojlanayotgan davlatlarda maxsus iqtisodiy zonalarning tashkil etilishdan maqsad rivojlangan davlatlarnikidan farq qiladi. Ushbu bo‘limda misol tariqasida Xitoy Xalq Respublikasida tashkil etilgan MIZ lar, ularning yaratilishdan maqsadi, xususiyatlari, mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati, shuningdek, orttirilgan tajriba va imkoniyatlari yoritib beriladi.

Xitoyda maxsus iqtisodiy zonalarning yaratilishi 1980-yillardan boshlangan va bunga asosiy turtki Xitoyning “ochiqlik siyosati”, ya‘ni “kayfan” sabab bo‘ldi desa ham bo‘ladi. “Kayfan” ning asosiy mohiyati xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga olib kirish, ular asosida qo‘shma korxonalar tashkil etish, shuningdek, xorijiy investorlarni jalb qiluvchi maxsus iqtisodiy zonalar yaratishdan iborat bo‘lgan. Tajriba tariqasida dastlab to‘rtta MIZ tashkil etildi: Shenjen, Chjuhay, Shantou, Siamen. Ushbu hududlarda moliyaviy, investitsion va savdo imtiyozlari asosida barqaror rivojlanishga erishib borildi. Masalan, 1980 va 1984-yillar oralig‘ida Shenjenda yalpi hududiy mahsulot 58 %, Chjuhayda 38 %, Shantouda 9 % va Siamenda 13 % lik o‘shish ko‘rsatkichlariga erishildi. Xitoy hukumati bashorat qilganidek ushbu hududlarga kiritilgan xorijiy investitsiyalarning asosiy kelib chiqish manbalari chet eldagi xitoyliklar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, deyarli 80 % investitsiya Gonkong, Tayvan, Singapur hissasiga to‘g‘ri kelgan.⁵¹

⁵¹Акрамов А.У. Анализ опыта функционирования свободных экономических зон России и Китая и возможности его использования в Узбекистане. Мақола. - Экономика Центральной Азии, №3, 2017

Bugungi kunda Xitoyda bir-biridan maqsad va vazifalari bilan farq qiluvchi turli xildagi 200 ga yaqin iqtisodiy zonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Bularga :

Maxsus iqtisodiy zonalar – 5 ta. (Shenjen, Chjuxay, Shantou, Siamen, Haynan). MIZ lar 1980-yillarda Xitoyning sharqiy dengizbo'yi hududlarida xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida tashkil etilgan. Hozirgi kunda esa aynan MIZ lar yordamida mahalliy hududning iqtisodiy rivojlanishi, ilg'or texnika va texnologiya, zamonaviy menejment asoslarining rivoj topishi kabi omillarni ko'rsatib o'tsa bo'ladi. Shuningdek, MIZ lar milliy iqtisodiyot rivojiga ham ulkan hissa qo'shmoqda. Masalan, oxirgi yillarda MIZ lar Xitoy YaIM ining 22 % ini, TTXI ning 45 % ini, milliy eksportning 60 % ini tashkil qilgan. Hozirgi kungacha MIZ lar 30 milliondan ortiq ish o'rinlarini yaratgan.⁵²

Texnik-iqtisodiy taraqqiyot zonalari (TITZ) – davlat darajasidagi ushbu zonalarning soni 90 ta bo'lib, Pekin, Shanxay, Guanjou, Tyantszin, Dalyan, Xarbin, Urumchi, Xanchjou va boshqa shaharlarda joylashgan. TITZ lar 1984- yilda o'rtacha maydoni 10 kv. km bo'lgan sharqiy hududlarda yaratila boshlangan. TITZ tashkil etilishining asosiy maqsadi yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalarni jalb qilishdan iborat. Bular ichida eng omadlisi – Tyantszin sharidagi “TAYDA” TITZ hisoblanadi. Unda 5 mingdan ortiq qo'shma korxonalar 25 mlrd.AQSH dollaridan ortiq investitsiya bilan faoliyat olib boradi.

Yangi va yuqori texnologiya zonalari – 114 ta ta bo'lib, Pekindagi texnopark “Chjunguntsun”, Shanxaydagi texnopark, Tyantszin shahridagi yuqori texnologik park , yuqori texnologik ochiq zona (Nankin shahridagi) va boshqalar kiradi. Bu zonalarning TITZ dan asosiy farqi shundaki, ularda anchagina tor sohalarda, misol uchun, elektronika va information texnologiya, biotexnologiya va tibbiyot jihozlari yangi texnologiyasi , aerokosmik texnologiya, qayta ishlash sanoatiga oid yangi texnologiya kabi ilmiy-texnik ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi.

⁵² China Development Bank , Zones Experience Gained in the Development of China's Special Economic Zones, Analitik hisobot, 2019

Erkin bojxona zonalari – 13 ta (Shanxay, Dalyan, Guanjou, Ninbo, Chjanstyagan, Xaykou, Siamen, Shenjen kabi shaharlarda). Erkin bojxona zonalarida tashqi savdo hajmi 2017 – yilda 450 mlrd. AQSH doll. Teng bo‘lib, bundan eksport tushumlari 200 mlrd AQSH doll. tashkil etgan. Bu zonalarni asosiy vazifalari kirib kelyotgan tovarlarni qayta ishlash , elektron bojxona rasmiylashtiruv tizimini rivojlantirish va boshqalar.


Shanxay erkin savdo zonasi . Bu zona Vaygastao logistika parki, Yanshan port zonasi, Pudun aeroporti hududini o‘z ichiga oladi. Umumiy maydonu 29 km.kv. bo‘lgan Shanxay ESZ da asosan, xizmatlar sohasi (moliyaviy, suv transporti, biznes – xizmatlar, professional, madaniy va ijtimoiy) va xalqaro savdo yaxshi rivojlangan⁵³.

Xitoyda maxsus iqtisodiy zonalar eksport, ishlab chiqarish, savdo, ilmiy- ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, aksariyat zonalardagi ishlab chiqarish eksport maqsadida tashqi bozor uchun mo‘ljallangan. Mahsulotlarning ichki bozorda realizatsiyasi uchun esa odatdagi tartibda bojxona to‘lovlari undiriladi.

Xitoyda MIZ lar boshqaruvi bo‘yicha yagona qonun hujjati mavjud emas. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, ular faoliyati, to‘xtatib turilishi va tugatilish jarayoni uchta umumiy qonun bilan tartibga solinadi: XXRning “Aralash Xitoy-xorijiy kapital korxonalarini boshqarish to‘g‘risida”gi qonuni, XXRning “Xitoy-xorijiy hamkorlik korxonalarini boshqarish to‘g‘risida”gi qonuni, XXRning “Xorijiy kapital korxonalarini to‘g‘risida”gi qonun hujjatlarini kiritish mumkin. Xitoyda MIZ larni boshqarish va nazorat qilish butunlay viloyat darajasiga tushirilgan . Quyidagi rasmda buni batafsilroq ko‘rishimiz mumkin.⁵⁴

⁵³ Акромов А.У. Анализ опыта функционирования свободных экономических зон России и Китая и возможности его использования в Узбекистане. Мақола. - Экономика Центральной Азии, №3, 2017

⁵⁴ Ван Чао, Полоник С.С. Современная экономика Китая. Dissertatsiya. - «Право и экономика», 2016



2.2-rasm. Xitoy MIZ lari boshqaruvidagi davlat organlari vazifalari⁵⁵

Shuni ta'kidlash kerakki, xorijiy kapital bilan bog'liq asosiy tamoyillar markaziy hukumat tomonidan o'rnatildi, nazorat va ijrosi esa mintaqaviy hokimiyat tomonidan amalga oshiriladi.

Xitoyda "sohaviy (rag'batlantiruvchi, ruxsat etilgan va taqiqlangan) ro'yxat" mavjud bo'lib, unga muvofiq investitsiya ruxsatnomasini berish to'g'risida qaror qabul qilinadi va har 5 yilda yangilanadi. Rag'batlantiriladigan tarmoqlar qatoriga quyidagilar kiradi: yuqori texnologiyalar, muqobil energiya manbalari va boshqalar; taqiqlangan ro'yxatga esa strategik ahamiyatga ega sanoat tarmoqlari, shu jumladan davlat xavfsizligi bilan bog'liq sohalar kiradi. "Yagona oyna" tamoyili ishlaydi. Loyihani ko'rib chiqish, korxonani ro'yxatdan o'tkazish va loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa byurokratik protseduralarni ko'rib chiqish 20 kundan oshmasligi kerak. MIZlarga kiritiladigan xorijiy investitsiyalar miqdori kamida 50 mln. dollar bo'lishi kerak. Ilova 2 da Xitoy MIZ lari uchun berilgan imtiyozlar bir necha aspektlarda berilgan.

⁵⁵ XXRning "Xorijiy kapital korxonalari to'g'risida"gi qonuni asosida muallif ishlanmasi.

Shuningdek, kamida 5 yil muddatda o'z foydasini Xitoyga reinvestitsiya qilgan investorlarga daromad solig'ining 40 %i qaytarib beriladi. Agar foydaning reinvestitsiya qilingan qismi qishloq xo'jaligi, qurilish, infrastruktura, yuqori texnologiyalar va eksport ishlab chiqarishga mo'ljallangan sohalarga yo'naltirilgan bo'lsa, olingan daromad solig'ining 100 % i qaytarib beriladi. Mamlakatning chekka va qoloq tumanlariga investitsiya qilgan ishbilarmonlar uchun 10 yil soliq imtiyozi beriladi, bundan tashqari 11-yildan boshlab daromad solig'ining 15-30 foizi mukofot tarzida chegiriladi. MIZ hududiga import qilinyotgan texnologiya xomashyo uchun QQS va boj undirilmaydi. Ammo aksiz, shaxsiy daromad solig'i va boshqa turdagi soliqlar to'lanishi shart. Sanoat, transport va aloqa bilan bog'liq korxonalarining daromad solig'idagi imtiyozi 10 yillik bo'lib, birinchi ikki yillikda nolga teng, uchinchi yildan beshinchi yilgacha 50 % gacha qisqartirilishi mumkin. Yangi texnologiyalar yaratish bilan bog'liq korxonalarda zona boshqaruvining qaroriga asosan 6-8 yil davomida 50 % gacha daromad solig'i qisqartirilib beriladi. Ishlab chiqargan mahsulotning 70 % ini eksport qilib kelgan korxonalar imtiyoz davri tugagandan so'ng daromad solig'ining 10 % ini to'laydi.⁵⁶ Xitoyning ochiqlik siyosati tashqi savdo va investitsiya oqimini rivojlantirish uchun eng asosiy rag'bat bo'ldi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 1981-yildayoq faoliyat olib borayotgan 4 ta MIZ ning hissasiga mamlakatga kirib kelyotgan jami TTXIning 60 % i to'g'ri klegan bo'lsa, shuning 51 % i Shenjen MIZning hissasiga to'g'ri kelgan. Xitoy barcha MIZ larining tavsifi Ilova 3 da berilgan. Xitoy MIZ larining 2017-yildagi eksport, import, tashqi savdo aylanmasidagi ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bunda Shenjen MIZ ning umumiy tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 73,6 %ni, eksportdagi ulushi esa 73,9 %ni, importdagi ulushi 73,2 %ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.


⁵⁶ Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institute. "Состояния и перспективы свободных экономических зон в Узбекистане". Аналитик hisobot. – Toshkent, 2015

Xitoy MIZ larining tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichlari (mlrd. doll.)⁵⁷

MIZ lar	2021 yil			2022 yil		
	tashqi tovar aylanmasi	eksport	import	tashqi tovar aylanmasi	eksport	import
Shenjen	398,34	237,44	160,90	413,95	244,22	169,73
Siamen	77,17	46,94	30,23	85,84	48,01	37,83
Chjuxay	41,71	27,31	14,40	44,25	27,89	16,36
Shantou	8,52	6,42	2,10	8,80	6,71	2,09
Xaynan	11,32	3,12	9,20	10,37	4,37	6,00
Jami	537,06	321,23	216,83	563,21	331,2	232,01

Manba: Xujamkulov D.Y. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. Toshkent – Iqtisodiyot, 2019

2016-yilda Xitoy yalpi tashqi savdo aylamasining 14,57 % i MIZ lar hissasiga to'g'ri kelgan.

2.3-rasm. Xitoy yalpi tashqi savdo aylanmasida MIZ larning ulushi⁵⁸

Xitoy tashqi savdo aylanamasidagi MIZ larning ulushi 2015-2017-yillarda 14,8-16,8 % bo'lgan bo'lsa, 2017-2019-yillarda bu ko'rsatkich biroz pasaygan ya'ni

⁵⁷ Xitoy MIZ larining tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichlari asosida muallif ishlanmasi.

⁵⁸ www.trendeconomy.ru/data/h2/China/TOTAL ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

13,7 % atrofida bo‘lgan. Bu esa MIZ tashqi savdo aylanmasining kamayganligi emas, balki Xitoy yalpi tashqi savdosida boshqa omillarning o‘rni ortib borganligini bildiradi.

Shuningdek, Xitoy maxsus iqtisodiy zonalarini hududning iqtisodiy rivojlanishida ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, MIZ lar endi tashkil etilgan 1979-yilda Shenjen MIZ ning yalpi hududiy mahsuloti 29,5 mln. AQSH doll. ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 403,8 mlrd. AQSH doll. iga teng bo‘lgan. Shuningdek, Siamen YaHM 1979-yilda 79,8 mln. AQSH doll. iga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 89,9 mlrd. AQSH doll.iga teng bo‘lgan. Quyidagi 2.4-rasmda dastlabki tashkil etilgan 4 ta MIZ ning 1979-yilgi va 2022-yilgi YaHM o‘zaro taqqoslamasi berilgan.



2.4-rasm. Xitoy MIZ joylashgan hududlarning 1979 va 2022 -yilgi YaHM ko‘rstakichi tahlili⁵⁹

Shu 40 yil ichida Shenjenning YaIM o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 20,7 foizni tashkil etdi, aholi jon boshiga YaIM 30 ming dollarga yetdi. Shenjenning YaIMi Singapurnikidan oshib ketdi. 2018-yilda Xitoy umumiy eksportining 10 % i aynan Shenjen hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Uzluksiz o‘shishni ta‘minlovchi vositalardan biri bu tadqiqot va ishlab chiqishga sarflanadigan xarajatlarni yuqori darajada ushlab turishdir va bu o‘tgan yilning o‘zida Xitoy YaIMining 4,2 foizi ajratilganligi bilan yuqori ko‘rsatkich qayt etgan. Shenjenning aynan innovatsiyalarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan texnologik markaz bo‘lishi uning “Silikon vodiysi” uchun munosib raqib bo‘la

⁵⁹ www.trendeconomy.ru/data/h2/China/TOTAL ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

olishi tan olingan. Shenjenda Tsinghua universiteti, Pekin universiteti, Harbin texnologiya instituti va Xitoyning Gonkong universiteti kabi universitetlar o'zlarining talabalar shaharchalarini tashkil etgan bo'lib, bu universitetlarda tadqiqot dasturlarini amalga oshirish mumkin.

Shenchjendagi muhim tarmoqlar qatoriga texnologiyalar, moliyaviy xizmatlar, zamonaviy logistika va madaniyat sohalari kiradi. Shenchjen mobil texnologiyalar, DNK sekvensiyasi, metamateriallar va 3D displeylarni o'z ichiga olgan bir qancha yuqori texnologik sohalarda rivojlanishda ilgari bormiqda. Tencent, Huawei, ZTE, Baidu, IBM singari yetakchi kompaniyalarning bosh ofislari, shuningdek, HSBC, Xitoy savdogar banki (China Merchants Bank), Standard Chartered va Citigroup kabi moliyaviy institutlar Shenjenda joylashgan.

Xitoyning MIZ hududida quyidagi soliq turlari to'lanadi: korxonalarining daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, transport vositalari solig'i, ko'chmas mulk solig'i, aktsiz solig'i, bojxona to'lovlari, xodimlarning shaxsiy daromad solig'i.

Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli o'laroq, Xitoy MIZlarining faoliyat tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu hududlarni rivojlantirish doim ham davlat byudjetidan to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish orqali amalga oshirilmasligi mumkin.

Birinchi o'n yillikda Xitoy hukumati MIZ o'z aylanma mablag'larini to'plashi uchun past foizli bank kreditlari (50 % li stavka budjetdan subsidiya qilingan) taqdim etish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatdi.

Bunda savdo - sanoat soliqlari va QQS soliqlaridan tushadigan daromadlarning katta qismi (taxminan 50%) MIZ qurilishi uchun qoldirildi. Zona yaratilishi va rivojlanishi uchun import mahsulotlardan boj to'lovlari olinmagan. "Shenjen" MIZ tashkil qilinishida xususiy jamg'armalar umumiy investitsiyaning 37 % ini, TTXI lar esa 24 % ini, bank kreditlari – 22 %, budjet subsidiyasi atigi 10 % ni, mahalliy hokimiyat mablag'lari esa 7 % ni tashkil qilgan. tashkil qilgan. Xitoy MIZ larining rivojlanishida kredit resurslari ham muhim rol o'ynaydi. Aynan bank kreditlari asosida rezident-korxonalar unchalik katta bo'lmagan hududlarda lozim

boʻlgan infrastrukturani, ishlab chiqarish binolarini qurishadi va keyin ularni xitoy hamda xorijiy investorlarga ijaraga berishadi yoki oʻz ishlab chiqarishlarini yoʻlga qoʻyishadi. Ijara toʻlovlari yoki mahsulotlar, xizmatlar realizatsiyasidan tushgan tushumlar hisobiga bank kreditlari qaytariladi.

MIZ samaradorligining asosiy tarkibiy qismi tashqi investitsiyalarning barqaror oʻsishidir. MIZ larda investorlar uchun berilgan moliyaviy , bojxona, soliq, administrativ imtiyozlardan tashqari , ularni mavjud imkoniyatlardan boxabar qilish uchun investor Nizomi ham ishlab chiqilgan va yangilanib turadi. Bu Nizom “Sanoat maʼlumotnomasi - xorijiy investitsiyalar uchun qoʻllanma” (Guidance of Foreign Investment - Catalogue of Industries) deb nomlanadi va bunda MIZ larda faoliyat yuritishning barcha qonun-qoidalari tushuntirilgan. MIZ hududida faoliyatni tashkil etishning asosiy printsiplari, shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalarning tashkil etilish asoslari, qonuniy roʻyxatdan oʻtkazilishi, soliqqa tortish tizimi uchun zarur boʻlgan hujjatlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar,bojxona toʻlovlari va boshqa maʼlumotlar bu katalogda mavjud. Bundan tashqari, 80 - yillarda qoʻshma korxonalar tuzish uchun Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligidan ruxsat olingan boʻlsa, 90 - yillarga kelib mahalliy hukumat organlarida ham bunday masalalar hal qilinadigan boʻldi. Bugungi kunda milliy va xorijiy investorlarning huquqlari deyarli tenglashtirilgan, ammo yuqori texnologiya va muhim infrstrukturani rivojlantirishni maqsad qilgan xorijiy investitsiya uchun maʼlum bir imtiyozlar mavjud.

Xitoy iqtisodiyotining oʻsishida va MIZning muvaffaqiyatli shakllanishida ishchi kuchining arzonligi, qulay geografik joylashuvi (uzun sohil boʻylari, portlarning mavjudligi), tabiiy resurslarning mavjudligi, xorijiy investitsiyalar uchun huquqiy kafolatlar, Tayvan, Gonkong va Makaoning yaqinligi kabi omillar muhim roʻl oʻynaydi.

Umuman olganda, Xitoy MIZ larni rivojlantirishning asosiy tajribasi quyidagicha:

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish faol rivojlanmoqda; eksportga yoʻnaltirilgan yirik hajmdagi eksport qayta ishlash sanoati rivojlantirilgan; tashqi

bozorlar bilan qulay aloqa mavjud. Investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, moliyaviy, soliq, bojxona, administrativ imtiyozlar, xorijiy kapitalning huquqiy muhofazasi, valyuta to'siqlarining mavjud emasligi, foyda repatriatsiyasi va natsionalizatsiyaga ruxsat beruvchi qonunning mavjulligi kabi omillar ko'p miqdordagi xorijiy investitsiya kirib kelishi uchun asos bo'lgan.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi ko'plab mehnat resurslarini talab qiladi va bu esa ko'p sonli aholiga ega bo'lgan Xitoy uchun ishsizlik darajasini pasaytirishga imkoniyat yaratdi;

MIZlarda iqtisodiy rivojlanishga erishishda ilmiy-texnik jarayonlardagi moddiy resurslar iste'molini oshirish va boshqaruvdagi innovatsiyalarni oshirishga qaratilgan har tomonlama mustaqil innovatsiyalarga keng imkoniyatlar berilgan;

Eksport uchun shaffof muhitning mavjud.

Shuningdek, Xitoy MIZ lari qanchalik rivojlanmasin, o'ziga xos kamchiliklardan holi emas. Bularga quyidagilar kiradi:

Atrof-muhitning ifloslanishi, resurslardan ortiqcha foydalanish;

Qoloq hududda joylashgan MIZ larda ishchi kuchining past malakasi;

MIZ ga kiritilgan xorijiy investitsiyalarning katta qismi Gonkongdagi xitoyliklar tomonidan amalga oshirilgan. Ilg'or texnologiya asosida ishlaydigan transmilliy korporatsiyalarning qo'yilmalari asosan, mamlakatning boshqa hududlariga kiritilganligi;

Xomashyo va energiya tanqisligi;

MIZ lar bo'yicha yagona qonunchilikning mavjud emasligi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Xitoy MIHlarining rivojlanishiga ham ob'ektiv (ishchi kuchi arzonligi va ko'pligi, qulay geografik joylashuv: dengizga chiqish, portlarning mavjudligi, Gonkong, Makao va Tayvan yaqinligi, Xaynan orolida turizm, metallurgiya, tropik dehqonchilikni rivojlantirish uchun qulay tabiiy resurslarning mavjudligi), ham subyektiv (islohotlarga va ochiqlikka yo'nalish, xorijiy kapital uchun huquqiy kafolat, iqtisodiy imtiyozlar, hudud rivojlanishiga butun mamlakatdan mablag'lar oqimi) ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada Xitoy juda katta ham iqtisodiy, ham iqtimoiy muvaffaqiyatga erishdi.

2.3. Qozog‘istonda iqtisodiy zonalarning rivojlanish xususiyatlari

Dastlab “erkin iqtisodiy zona” deb atalgan ushbu hududni tashkil etish g‘oyasi Qozog‘istonda birinchi bor Sovet Ittifoqi davrlarida paydo bo‘lgan. 1990-yil 30-noyabr kuni “Qozoq SSRdagi erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan.

Shundan so‘ng, oradan bir qancha vaqt o‘tib, 1996-yilning yanvar oyida Qozog‘iston Respublikasining “Qozog‘iston Respublikasidagi maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi.

Qozog‘istonda MIZ lar tashkil etilishidan maqsad hududlar rivojlanishini tezlashtirish, milliy iqtisodiyotni global iqtisodiy tizimga yaqinlashtirish, yangi texnologiyalarni rivojlantirish, yuqori samarali ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, xorijiy investitsiya jalb qilish va shu orqali zamonaviy boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yishdir.

Ushbu normativ hujjat qabul qilingandan so‘ng respublikadagi mavjud erkin iqtisodiy zonalar maxsus iqtisodiy zonalarga o‘zgartirilib, 1996-yil oktyabr oyida yangi MIZlar tashkil etildi. Hozirgi vaqtda Qozog‘istonda tashkil etilgan MIZlar soni 12 ta. Har bir tashkil etilgan MIZlar bo‘yicha Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining maxsus qarorlari qabul qilingan bo‘lib, ushbu hujjatlarga muvofiq MIZlar quyidagi maqsadlarda tuzilgan:

- “Taraz kimyo parki” MIZ: yangi kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- “Pavlodar” MIZ: eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishga urg‘u bergan holda kimyo va neft-kimyo sohasini rivojlantirish;
- “Innovatsion texnologiyalar parki” MIZ: axborot texnologiyalari va boshqa turli sohalardagi yangi texnologiyalarni rivojlantirish;
- “Xorgos-sharqiy darvozalar” MIZ: samarali transport, logistika va sanoat markaziga aylanish;

- “Ontustik” MIZ: to‘qimachilik va tikuvchilik sanoati uchun paxtani qayta ishlash quvvatlarini (korxonalar) rivojlantirish;
- “Milliy neft-kimyó sanoati texnoparki” MIZ: neft-kimyó sanoatida, xususan uglevodorodlarni qayta ishlash va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega raqobatdosh neft-kimyó mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha investitsiya loyihalarini ishlab chiqish;
- “Oqtou dengiz porti” MIZ: Qozog‘istonning jahon bozoriga chiqishini yaxshilash orqali mintaqaning rivojlanishini tezlashtirish;
- “Burabay” MIZ (faoliyati tugatilgan): raqobatbardosh turistik infrastrukturani rivojlantirish;
- “Sariyarka” MIZ: metallurgiya sanoati va metallga ishlov berish sanoatini rivojlantirish;
- “Ostona – yangi shahar” MIZ: zamonaviy infrastruktura ob‘ektlarini qurish, investitsiyalar va qurilish sohasiga ilg‘or texnologiyalarni jalb qilish orqali Ostona shahri rivojlanishini tezlashtirish.
- “Xorgos – chegaraviy hamkorlik xalqaro markazi” MIZ: transchegaraviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish; eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirish; transportni infratuzilmasini rivojlantirish, turizm va o‘zaro madaniy aloqalarni kuchaytirish.
- “Turkiston” MIZ: Turkiston shahrining jadal rivojlanishi; raqobatbardosh turistik infrastrukturani rivojlantirish;
- “Ostona texnopolis” MIZ: investitsiyalarni nou-xau, zamonaviy texnologiyalar yaratish sohasiga jadal sur‘atlarda jalb qilish.

MIZ larning faoliyati quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinadi: Qozog‘iston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni, Qozog‘iston Respublikasi Tadbirkorlik kodeksi, Qozog‘iston Respublikasi Yer kodeksi, Qozog‘iston Respublikasining soliqlar va byudjetga boshqa majburiy to‘lovlar to‘g‘risidagi kodeksi (Soliq kodeksi), Qozog‘iston Respublikasining

Bojxona ishlari bo'yicha kodeksi (bojxona to'lovlari stavkalari Hukumatning 2011 yil 21 yanvardagi qarori bilan tasdiqlangan), Qozog'iston Respublikasi Prezidentining maxsus qarorlari, shuningdek aholi bandligi va immigratsiya qonun-qoidalari bo'yicha qabul qilingan qonunlar.

Maxsus huquqiy rejim faqatgina MIZ a'zosi aniq bir MIZ uchun belgilangan ustuvor faoliyat bilan shug'ullanganda (va ushbu MIZni tashkil etish vazifalariga mos kelganda) qo'llaniladi. Agar MIZ ishtirokchisi daromadining 10 foizidan ko'prog'i ko'zda tutilmagan har qanday faoliyatdan olinadigan bo'lsa, unda ishtirokchi barcha investitsiya imtiyozlarini yo'qotadi, shu jumladan eksport bojlaridan ozod qilish va yuridik shaxs daromadidan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar bekor qilinadi.


Shuningdek, MIZ faoliyati muddati ushbu MIZni tashkil etish bo'yicha qabul qilingan Prezident farmonida belgilanadi hamda ushbu hujjat muddati tugashi bilan MIZ faoliyati ham tugatilishi kerak.

Qozog'istonda MIZlar 25 yil muddatga tuzilgan bo'lib, faqatgina Prezidentning 2008-2017-yillar uchun amalda bo'lgan maxsus farmoni bilan tashkil etilgan "Burabay" MIZ bundan mustasno. MIZ hududida yer uchastkalarini ijaraga olgan MIZga a'zo kompaniyalar ularni Qozog'iston Respublikasi Yer kodeksida belgilangan tartibda sotib olish huquqiga ega.

Davlat xizmatlari ko'rsatish markazlari MIZ ishtirokchilariga "yagona bekat" tamoyili asosida barcha tegishli xizmatlarni ko'rsatadi. Ushbu xizmatlarga biznesni ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash, eksport va importga ruxsat berish va boshqa turdagi xizmatlar kiradi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – zarur hujjatlarni yig'ish va tayyorlash jarayoniga ko'maklashish. Ilova 3 da Qozog'iston maxsus iqtisodiy zonalarida mavjud bo'lgan imtiyozlar tavsifi berilgan.

Qozog'iston MIZ larini tashkil qilish va boshqarish davlat organi, mahalliy hokimiyat va boshqaruv kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi. 60

⁶⁰ Qozog'iston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuniga asosan



2.5-rasm. Qozog‘iston MIZ larining tashkil qilinishi va boshqarilish strukturasi.

⁶¹ MIZ tashkil etilishi to‘g‘risidagi prezident qarori chiqishi bilan, davlat organi tomonidan ushbu MIZ faoliyati uchun zaruriy me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqiladi. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan esa MIZ rezidentlari uchun administrativ imtiyozlar, ya‘ni yer uchastkalarini ajratish, elektr energiya, gaz, suv kabi zaruriy infrastruktura bilan ta‘minlab berilishi hamda MIZ ni boshqaruvchi kompaniyaning tashkil etilishi bilan bog‘liq vazifalar amalga oshiriladi. Markaziy hokimiyat, akimatlar, nodavlat yuridik shaxs va MIZ larni boshqarishda yetarli tajribaga ega bo‘lgan xorijiy kompaniyalar boshqaruvchi kompaniyaning asoschilari bo‘lishi mumkin. Agarda MIZ markaziy ijro hokimiyati yoki akimatlar tashabbusi bilan yaratilyotgan bo‘lsa, 50 % dan ortiq boshqaruv paketi davlatga tegishli bo‘lishi lozim. Agar MIZ nodavlat yuridik shaxs tomonidan tashkil etiladigan bo‘lsa, 26 % dan kam bo‘lmagan boshqaruv paketi davlatga tegishli bo‘lishi lozim.⁶² Ilova 4 da Qozog‘iston MIZ larini boshqaruvchi kompaniyalar nomi keltirilgan.

Qozog‘iston MIZ hududida erkin savdo zonasi tamoyillari amal qiladi. Ya‘ni, zonadagi tovarlar alohida maqomga ega va bojxona hududidan tashqarida deb hisoblanadi.


Qozog‘istondagi iqtisodiy zonalari faoliyatini baholashda ushbu iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi: MIZ larga kiritilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy

⁶¹ Qozog‘iston MIZ larini tashkil qilish va boshqarish davlat agentligi malumotlari asosida muallif ishlanmasi

⁶² Qozog‘iston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni

investitsiyalar, yaratgan ish o‘rinlari soni va MIZ eksport hajmi. Amaldagi 2011-yilgi MIZ to‘g‘risidagi qonunda MIZlar uchun quyidagi vazifalar belgilangan: investitsiyalarni jalb qilish va bandlikni oshirish; iqtisodiyot tarmoqlariga va mintaqalarga yangi texnologiyalarni joriy etish.

2.6-rasmda MIZlar sharoitida investitsiyalar, ishlab chiqarish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va eksportning to‘liq tasviri keltirilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, MIZlarga investitsiyalar 2013-2022-yillar mobaynida 40 milliard tengedan 200 milliard tengega o‘sdi.\



2.6-rasm. Maxsus iqtisodiy zonalar eksporti, ishlab chiqarish, investitsiya va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi, 2004-2023 yillar (mlrd tenge).⁶³

Shuningdek, ishlab chiqarish 2004-yilda 1 milliarddan kam bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2016-yilga kelib 339 milliarddan oshdi. Shu o‘rinda, alohida qayd etish kerakki, investitsiya va ishlab chiqarishdagi o‘sish tendensiyasi MIZ eksport hajmining ortishiga olib kelmagan. 2011-yildan boshlab eksport ko‘rsatkichlari bo‘yicha muntazam ravishda hisobot yuritilib kelinmoqda; uning ulushi umumiy ishlab chiqarish hajmining 3% dan 6% gacha miqdorida saqlanib turibdi. Shunga o‘xshash holat, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ham kuzatilmoqda. Faqatgina 2007 va 2015-yillarda xorijiy investitsiyalarning oqimi sezilarli darajada yuqori bo‘lgan xolos. Shunday bo‘lsada, MIZlar ish bilan ta‘minlash, qo‘shimcha ish

⁶³ Qozog‘iston Respublikasi Investitsiyalar va taraqqiyot vazirligi hisoboti asosida muallif ishlanmasi.

o‘rinlarini yaratish jarayonlarida muhim rol o‘ynamoqda. 2016-yilga kelib yaratilgan ish o‘rinlari soni 11,527 tagacha o‘sdi va o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati 30,4% ni tashkil etdi. 2017-yilda esa MIZ larda jami 165 loyiha amalga oshirilgan bo‘lib, 13 mingdan ko‘p ish o‘rinlari yaratilgan.⁶⁴ 2022-yil yakunlariga ko‘ra, MIZ larda amalga oshirilgan loyihalar soni 183 taga yetdi va ularning 46 tasi xorijiy kapital ishtirokida yuz berdi. Yaratilgan ish o‘rinlari soni esa 15,5 ming kishiga teng.

Hozirgi kunda 4ta MIZ (Xorgos- sharqiy darvozalar, Ontustik, Sariyarka, “Xorgos – chegaraviy hamkorlik xalqaro markazi”) 100 % infrastruktura bilan ta‘minlangan, 4 ta MIZ (“Milliy industrial neftkimyoviy texnopark”, “Pavlodar”, “Astana – yangi shahar” “Taraz kimyo parki”)71-72 % infrastruktura bilan ta‘minlangan ; yana 2 ta MIZ 22 % infrastruktura bilan ta‘minlangan.⁶⁵


Butun MIZ hududida 165 ta loyiha amalga oshirilgan bo‘lib, 830 mlrd. teng hajmdagi investitsiya kiritilgan , bunda xorijiy kapital ishtirokidagi investitsiya 205 mlrd. teng ga teng. “Qozog‘iston temir yo‘li “ – 10 mlrd.tenge (“Xorgos- sharqiy darvozalar”) va “Samruk-kazina” Fondi – 100,4 mlrd. teng (“Milliy neft-kimyo sanoat texnoparki” – 85,8 mlrd.tenge, “Taraz kimyo parki” – 14,6 mlrd. teng). 13 ming 400 ish o‘rinlari yaratilgan va budjetga 134 mlrd. teng soliq orqali qaytgan.

MIZlar asosan xususiy investitsiyalarni, asosan, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun tashkil etiladi. Biroq, xorijiy investitsiyalar kirib kelishining o‘sish sur‘ati nol atrofida tebranib turibdi. Yana bir e‘tiborli jihati shundaki, xususiy ichki investitsiyalarning MIZda ulushi yuqori emas. MIZlarga investitsiyalarning aksariyati davlatga tegishli korxonalar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki sho‘ba bo‘linmalari orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Shunday qilib, hukumat o‘zi zonalarda taqdim etiladigan foydali imtiyozlarning asosiy foyda oluvchisi hisoblanib kelmoqda.

⁶⁴ Kapital rasmiy sayti ma’lumotlari. www.kapital.kz

⁶⁵ Qozog‘iston Respublikasi Parlament Senati, «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Казахстан по вопросам специальных экономических и промышленных зон, привлечения инвестиций, развития и продвижения экспорта, а также социального обеспечения» Qonuni proyekt uchun analitik-informatsion tahlili, 2019


MIZ larga kiritilgan investitsiyalar ham sohalar bo'yicha notekis taqsimlangan. Masalan, 2022-yilda qayta ishlash sanoatiga jami 2 mlrd. 790 mln. AQSH doll. TTXI kiritilgan. Buning 2 mlrd. 320 mln. ni metallurgiya sohasi, oziq-ovqat sanoati 67 mln. farmatsevtika – 42 mln., kompyuter va elektronika ishlab chiqarish – 46 mln. , transport jihozlari ishlab chiqarish 43 mln. investitsiyani jalb qilgan. Qishloq xo'jalik sohasi esa xorijiy kapital qo'yilmalar uchun qiziqarsiz soha hisoblanadi va bunga kiritilgan investitsiya hajmi 10 mln. AQSH doll. ga ham yetmagan (2.7-rasm.)



2.7-rasm. MIZ larga kiritilgan TTXI larning sohaviy taqsimoti (2022-yil)⁶⁶

Faoliyat yurityotgan MIZlar orasida “Ostona” investitsiya hajmi, ishlab chiqarish va eksport ko‘rsatkichlari bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallaydi. Texnopark bandlikni oshirish bo‘yicha ham yetakchi hisoblanadi. Chet el investitsiyalarining kirib kelishi «Ostona» va «Oqtou»dan tashqari barcha MIZlarda kam. “Milliy sanoat neft parki”, “Pavlodar” va “Sariyarka” ham doimiy ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilmoqda. Ushbu MIZlar, shuningdek, « Ostona » va «Ontustik» bilan bir qatorda eksport ko‘rsatkichlari bo‘yicha muntazam ravishda hisobot berib kelishmoqda (2.8-rasm.)

⁶⁶ Qozog‘iston Respublikasi Investitsiyalar va taraqqiyot vazirligi hisoboti asosida muallif ishlanmasi.



2.8-rasm. MIZlar eksporti, ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va soliq imtiyozlari ko‘rsatkichlari (2022-yil).⁶⁷

Qozog‘istondagi MIZlarning bunday iqtisodiy salbiy ko‘rsatkichlariga sabab sifatida 2008-yildan beri kuzatilyotgan umumiy global sekinlashuv jarayonlarini, xususan ,rivojlanayotgan mamlakatlarda savdo aylanmasi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko‘rsatkichlarining kamayib borayotganligini misol qilish mumkin. Shu bilan birga, raqobatbardosh muhit va mahsulotlarning yo‘qligi sababli ham ishlab chiqarish eksporti pasayib bormoqda.

MIZlar arzon yo‘nalishlarni taklif qilishiga qaramasdan, iqtisodiy zonalar ish faoliyatini makroiqtisodiyotning qiyosiy afzalliklaridan mustaqil ravishda baholash mumkin emas. MIZ faoliyatining bir qismi golland kasalligining alomatlarini ham aks ettiradi. Whiteshield Partner (2015) tomonidan mintaqaviy imkoniyatlar bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Qozog‘istonning aksariyat hududlarida sanoat rivojlanmagan. Qozog‘iston MIZ lari ichida sanoati taraqqiy etgan viloyatlar: Olmaota va Ostona hamda nisbatan kamroq darajada Qarag‘andi. Ushbu viloyatlar hududiy imkoniyatlar indeksi (Regional Capability Index) baholashiga ko‘ra, salohiyati eng yuqori, kuchli imkoniyatlarga ega hududlar sanaladi hamda yalpi hududiy mahsulotning taxminan 40% ini tashkil etadi. Davlat tomonidan MIZ infrastrukturasi qurib bitkazilishi uchun budjetdan 314,3 milliard

⁶⁷ Qozog‘iston Respublikasi Investitsiyalar va taraqqiyot vazirligi hisoboti asosida muallif ishlanmasi.

tenge xarajat qilingan. hozirgi kunda eng samarali faoliyat olib borayotgan MIZ lar “Ontustik” MIZ budjetdan qilingan 1 teng xarajat hisobiga 15.5 teng investitsiya, “Oqtou” 15.4 teng , “Pavlodar” esa 12 teng investitsiyani jalb eta oladi.

Qozog‘iston MIZ larining faoliyati tahlil qilar ekanmiz, ularda ham bir qancha kamchilik va muammolar borligi ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

Boshqaruv. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish va iqtisodiyotni liberallashtirishga bo‘lgan intilishlarga qaramay, institutsional struktura buyruqbozlik va hukumat tomonidan tartibga solib turilishi bilan ajralib turadi. Ushbu yondashuv MIZlarning ishbilarmonlik muhitiga ta‘sir ko‘rsatib, nafaqat iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqishda, balki ularni amalga oshirishda o‘zaro nomuvofiqliklarni keltirib chiqardi. Hududiy davlat organlari (ya‘ni, boshqaruv kompaniyalari) operatsiyalarni nazorat qilish bo‘yicha cheklangan vakolatlarga ega va hatto, ushbu qo‘mitalarning ma‘muriy tuzilmasi ham institutsionallashtirilmagan. Direktor aniq tizimlashtirilgan administrativ struktura orqali emas, balki markazdan tayinlanadi va bu holat noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Respublika darajasida Investitsiyalar va taraqqiyot vazirligi (ITV) MIZlar strategiyasini ishlab chiqish va monitoringini olib borishga javobgar bo‘lgan mas‘ul organ hisoblanadi. Vazirlik bir paytda ham ishlab chiquvchi va tartibga soluvchi tuzilma funksiyasini bajaradi. Boshqaruv kompaniyalari aksiyadorlik jamiyatlari hisoblansa-da, ammo ularning 100% aksiyalari hukumatga tegishli. Xususiy MIZlarga ruxsat beriladi, lekin ularni boshqarish hukumat tomonidan amalga oshirilib, davlat 26 foiz ulushga ega bo‘lishi shart . Bu esa MIZlarga xususiy investitsiyalar jalb qilinishiga to‘siq bo‘lishi mumkin.

“Yagona oyna” ning mavjud emasligi. MIZlarda yagona oyna mavjud emas. Deyarli barcha masalalar mahalliy hukumat bo‘linmalarida hal etiladi, boshqaruv kompaniyalari esa faqat yordamchi rolini o‘ynaydi. Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar faoliyati uchun yer ajratish 7 oygacha cho‘zilishi mumkin. Arizalarni tasdiqlash jarayoni esa 2 oygacha davom etadi. 2015-yilda hukumat 16 ta mintaqaviy vakolatxonalari bilan Investitsiyalarni rivojlantirish vazirligi huzurida Investorlarga xizmat ko‘rsatish markazi deb nomlangan "yagona oyna" tizimini

yaratdi. Bu tizim asosan ustuvor tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlaydi va hali to‘liq ishga ham tushirilmagan.

Rag‘batlantirish to‘plami. Jozibador rag‘batlantiruvchi to‘plam Qozog‘istondagi MIZlarning eng diqqatga sazovor joyidir. Ushbu imtiyozlarni olish uchun kompaniyalar noaniq mezonlarga muvofiq ustuvor sohada bo‘lishi va 90 % yillik daromadi MIZda ruxsat etilgan ustuvor sohada ishlab chiqarilgan mahsulotlar realizatsiyasidan tashkil topishi lozim. Bundan tashqari, bojxona bojlari faqat Qozog‘iston Milliy tadbirkorlar palatasi huzurida faoliyat yuritadigan litsenziya markazi mahalliy tarkib talabining bajarilishini tasdiqlagan taqdirda ozod qilinadi.

Infratuzilma. Zonalar asosiy sanoat infratuzilmasini ta‘minlasa-da, biznesni rivojlantirish uchun ixtisoslashgan infratuzilma mavjud emas (masalan, umumiy biznes obyektlari, dam olish, bank yoki transport) yoki sektorga xos infratuzilma kabi. MIZ hududida elektr energiyasi ishlab chiqarilmasligi sababli, rezidentlar uni tashqaridan olishlari kerak va elektr taqchilligi katta to‘siqni keltirib chiqaradi.

Bojxona imkoniyatlari. Garchi Qozog‘iston zonalar hududida maxsus bojxona idoralarini tashkil etgan bo‘lsa-da, zonalar maxsus bojxona xodimlarini qo‘llab-quvvatlash kuchiga ega emas.

Yuqoridagilardan asoslanib shuni xulosa qilishimiz lozimki jahon amaliyoti MIZlarni bevosita imtiyozlar berib qo‘llab quvvatlash bilan birga, bilvosita rag‘batlantirishni keng qo‘llaydi – investitsion konsultatsiya, patentlar himoyasini ta‘minlash, erkin iqtisodiy hududlarning markazlashgan kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini shakllantirish lozim.

II-bob bo‘yicha xulosa

EIHlar infrastrukturasi yetarli darajada rivojlanmaganligi. EIHlar tashkil etishning va faoliyat yuritishining asosiy shartlaridan biri ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infrastrukturasi rivojlanganligi sababli turli savdo tashkilotlari, xizmatlar, tibbiy xizmat holati va boshqa infrastruktura holati xorijiy

investorlar birinchi navbatda e'tibor qaratadigan jihatlarini bundan tashqari, xalqaro darajadagi xizmat ko'rsatish va ta'lim berish tashkilotlari rivojlantirish lozim.

Chet el davlatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, tashkil etilayotgan maxsus iqtisodiy zonalar uchun maxsus professional tayyorgarlik va kadrlarning o'qitilishi zaruriyatiga hech bir mamlakat oldindan keraklicha e'tibor bermagan va bu sohada yetarli tayyorgarlik ko'rilmagan, ushbu holat esa hududlarda mavjud malakali va salohiyatli ishchi kuchi bandligi ta'minlangach, turli loyihalarning kadrlar yetishmasligi sababli to'xtatib qo'yilishiga yoki bekor qilinishiga sabab bo'lmoqda.

Jahon xo'jaligida maxsus iqtisodiy hududlarning shakllanishi, ya'ni tashkil qilish va jahon xo'jaligida maxsus iqtisodiy hududlar faoliyatini rivojlantirish orqali tarqiyotga erishish va milliy iqtisodiyot yuksalishida tashqi savdo-sotiq siyosatini ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish, uning ijobiy tomonlarini umumlashtirish asosida O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish va uni rivojlantirish istiqbollari, hamda maxsus iqtisodiy hududlarini tashkil etishdagi jahon tajribasidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari borasida MIZlar tashkil qilish bo'yicha jahon tajribalarini o'rganib chiqib, ulardan eng ma'qulini tanlab olish, O'zbekiston sharoitiga moslashtirib, ya'ni uni ko'r-ko'rona ko'chirmasdan bizda tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqotimizda aytib o'tilgan ba'zi mamlakatlarni ko'radigan bo'lsak, ularning hammasi ham MIZ tashkil qilib, yaxshi natijaga erishmagan. Faqatgina ba'zilar to'g'ri siyosat olib borgani sababli yuqori natijaga erishdi. Shunda ham ularda bir qator kamchiliklar mavjud. Ishning asosiy maqsadi ham jahon tajribasini o'rganib chiqish va MIZlarni tashkil qilishdan oldin unga asos va sharoit yaratish, loyihlarni to'g'ri yaratish kabi bir qator muhim masalalarni bartaraf etish yo'llarini o'rganishdan iborat bo'ldi.

Xalqaro maydonda tashkil etilgan MIZlar faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, tashkil qilinadigan MIZlar yagona dastur asosida loyihalashtirilib, bu dasturni ishlab chiqishda Davlat qo'mitalari va muassasalarining faol ishtirok etishini ta'minlanmog'i eng muhi qadamlardan biridir.

III BOB. O‘ZBEKISTONDA TASHKIL ETILGAN MAXSUS IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI.

3.1. O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarining tashkil etilishining zamonaviy holatini takomillashtirish.

Mazkur ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish va samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi ya’ni MIZlarda faoliyat ko‘rsatayotgan ishlab chiqarish korxonalarini uchun asosiy muammo soliq tizimini takomillashtirish hisoblanib, bu takomillashuvga e’tibor bermaslik, ya’ni imtiyozlarning yetarli darajada qo‘llanilmasligi oqibatida MIZda tashkil etilgan yangi korxonalar rivojlanmasligi mumkin.

Shuning uchun muallifning fikricha maqsadda soliq tizimini takomillashtirishning quyidagi usullaridan foydalanish taklif etiladi:

Birinchidan: mavjud asosiy vositalarni hisoblash asosida amortizatsiya ajratmasi summasining oshirilishi yoki tezlashtirilgan amortizatsiya ajratmasining qo‘llanilishi oqibatida foyda solig‘ining kamaytirilishi;

Ikkinchidan: xalqaro maydonda tashkil etilgan va soliq imtiyozlari yaratib berilgan MIZlarda korxonalarining vakolatxonalarini ochish. Bu usullar asosida ishlash, ya’ni amortizatsiya ajratmalarining tezlashtirilgan usulining qo‘llanilishi bu xarajatlarning oshishi oqibatida foyda solig‘i miqdorining kamaytirilishiga olib kelsa, tashqi MIZlarda ishlab topilgan foyda uchun soliq olinmasligi MIZlarni tashkil etish nizomida ko‘rsatib beriladi.

MIZlarda tashkil etilgan korxonalar investitsiyalarni qabul qilib olishga tayyor emasliklari, bu xo‘jalik subyektlarining faoliyat ko‘rsatishlari uchun imkoniyat bermasligi mumkin. Chunki investitsiyalarni jalb etish jahon mexanizmi bizda to‘laligicha mavjud emas. Ko‘pgina tashkilot rahbarlari moliya resurslarini chetdan jalb etgan holda, hech qanday iqtisodiy mas’uliyatni zimmalariga olmaslikni ma’qul ko‘radilar. Shuning uchun ham bu iqtisodiy hududlarda qonun doirasida investitsion banklar maqomini belgilab, dastlabki vaqtdagi imtiyozli ish jarayonini tashkil etish zarur. MIHlarda loyihalashtirish davrida banklarning ishtirok

etishini ta'minlash zarur, chunki real iqtisodiy sektordan bir me'yorda foyda olish imkoniyati yaratilsa, u erga albatta pul boradi va bunga banklar aslo qarshilik ko'rsatmaydilar, aksincha o'zlari ham moliyaviy ta'minotchi sifatida ko'mak beradilar. Biroq ularni loyihalashtirishni amalda qo'llash, ya'ni mavjud muammolarni hal etish quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi lozim deb hisoblanadi:

Birinchidan: investitsiya jarayoni ta'minoti davrida davlatning faolligini oshirish, ya'ni davlat kafolatini rivojlantirish doirasida investitsiyalarning qiymat darajasini oshirish;

Ikkinchidan: iqtisodiyotiga investitsiyalarning kirib kelishini ta'minlovchi shart-sharoitlarni qonunlashtirish;

Uchinchidan: banklar uyushmasining investitsiya faoliyatidagi o'rnini mustahkamlash va rivojlantirish;

To'rtinchidan: eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosishga qaratilgan tovar ishlab chiqaruvchi xo'jalik subyektlarini har tomonlama rag'batlantirish, chunki bu jarayon MIHlarda mavjud bo'lgan ichki iste'mol bozorini va muomaladagi ortiqcha pullarning tovar mahsulotiga bo'lgan tashnaligini qondirish va so'mning xarid qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu yo'nalidagi ishlarni amalga oshirishda davlat iqtisodiy sektori va monopoliyalarning resurslarni jalb etib, ularni real sektorning investitsiya ehtiyojiga aylantirish zaruriy holdir.

Shu bilan birga, MIHlar tashkil etishdagi asosiy muammoalar qatorida milliy valyutamizning o'rni va ahamiyati qanday bo'lishi to'g'risida milliy valyuta tizimini yuritish – so'mning xarid qobiliyati, inflyatsiya, import o'rnini bosuvchi va eksportni rag'batlantirishga qaratilgan tizimning qanday tashkil etilganligi ham muhim o'rin tutadi.

Biz bilamizki, O'zbekiston sharoitida milliy valyutamiz ichki ayirboshlashga asoslanadi. Bu esa o'z navbatida tashkil etiladigan MIZlarning tashqi dunyo bilan aloqalarini cheklab qo'yadi. Mazkur muammoni hal etish va tashkil etiladigan MIZlarning faoliyatini barqarorlashtirish uchun quyidagi asosiy vazifalarning yo'nalishlari hal etilishi lozimdir:

1) Erkin ravishda ichki va tashqi ayirboshlashni barqaror ta'minlash uchun erkin suzib yuruvchi valyuta mexanizmi tanlab olinishi lozim;

2) Chet el real valyuta kursi hisobini yuritishda eksport bo'yicha asosiy raqobatchi davlatlarning mahsulotlari bahosini hisobga olish lozim;

3) Eksportni tashkil etish davrida ichki inflyatsiya ta'siri mahalliy eksportchilar raqobatbardoshligini susayishiga olib kelmasligi uchun monitoring ishlarini kuchli tashkil etish zarur;

4) Oltin valyuta zahiralari ko'paytirishning intensiv va ekstensiv usullaridan samarali foydalanish, intensiv usul – xorijiy mamlakatlarning kapitallarini jalb etish, ekstensiv usul – ichki mavjud salohiyatidan samarali foydalanish;

5) Inflyatsiya sur'atlarining o'sishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ishlab chiqarish va xizmatlar bozorini sifatli tashkil etishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni maqbullashtirish.

Umuman olganda muallif fikricha MIZlarni tashkil etish va ularning barqaror faoliyatini ta'minlash uchun tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish kerak. Shuning uchun bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini globallashtirish, uning jahon xo'jaligi tizimiga tobora uyg'unlashib borishini ta'minlash va eksportni rag'batlantirish orqali milliy ishlab chiqaruvchilarning eksportga yo'naltirilgan faoliyatlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozimdir. Shuning uchun endilikda eksportga yo'naltirilgan faoliyat olib boradigan tarmoq korxonalarini mulk shakllaridan qat'iy nazar vujudga keltirish va ularni tobora rivojlantirib borishga davlat tomonidan jiddiy e'tibor qaratilishi o'ta muhim vazifalardan biridir. Mazkur vazifalardan kelib chiqib, MIHlarning tashkil etilishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga imkon beradigan va jahon bozori kon'yukturasining "injiq" raqobat muhitiga qarshi kurashishda salohiyatli imkoniyatlariga ega bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlarini va pul-kredit siyosatining yuritilishi maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, MIZ tashkil etishni qaror qilgan mamlakat uchun MIZlar birdan–bir maqsad emas, balki ularni o'sish sur'atlarini jadallashtirish, iqtisodiyot va sanoatni modernizatsiyalash, ichki bozorni to'yintirish, eksportning

o'sishi hisobiga valyuta tushumini ko'paytirish maqsadida umumiy iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga kiritishdir.

Bilamizki 1990-yillar boshlarida BMT mutaxassislari tomonidan o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarga Samarqand va Buxoroning tarixiy-me'moriy va madaniy majmualari asosida erkin turistik hududlar tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar berildi. Bu hududlar keyinchalik jahonning etakchi tursanoat markazlariga aylanishi mumkin edi. Masalan, Sevilya va Kordova (Ispaniya) kabi.

Xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy hududlarni (XTMOIH) tashkil qilish asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 2-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda qatnashishini kuchaytirish va O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori va VMning 1995-yil 3-iyundan №210 "O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infratuzilmasini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida keltirilgan.

Bilamizki 1997-yil XTMOIH kontsepsiyasi, dasturi va ustavini yaratish bo'yicha ishchi guruh yaratildi. 1999 yilda bu guruh me'yoriy hujjatlar ustidan ishni tugatdi. XTMOIH dasturi loyihasining varianti tayyorlanib, kelajakda Samarqandda turistik hududlar tashkil qilishga bog'liq bo'lgan rivojlangan xalqaro turizm bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq muassassalar va vazirliklarga yuborildi. Adliya Vazirligi, Makroiqtisodiyot va Statistika vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi "O'zbekturizm" MK, MB, Moliya vazirligi, "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi, Davlat bojxona qo'mitalarining maslahatlari berildi va kerakli joylarda tanqidiy jihatdan ham ko'rib chiqildi.

Samarqand shahar hokimining 1997-yil 7-oktyabrdagi qaroriga ko'ra XTMOIHni operativ boshqarishga oid vaqtinchalik rahbariyati tashkil qilindi va uning maqomi tasdiqlandi. Ammo shu kungacha bunday MIHlar shakllanib ulgurganicha yo'q. Turli davlat muassassalarida Samarqand turistik hududlar loyihasi ko'rib chiqilmoqda va o'rganilmoqda va bu istiqbolli rejalar qatorida turibdi.

Bilamizki O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan “MIHlar to‘g‘risida”gi qonun MIZlarni tashkil kilishning muhim qadamlaridan biri bo‘ldi. Bu qonun MIZlarni avvalambor iqtisodiy islohatlarning strategik maqsadlariga erishishga qaratadi: ichki bozorni yuqori sifatli tovar va xizmatlar bilan boyitish, zamonaviy texnikalarni jalb qilish, mintaqani jadal rivojlantirish va ilg‘or xo‘jalik yuritish tajribalarini o‘zlashtirish. MIZlar faqat oliy qonunchilik organlari Oliy Majlis qarori bilan tashkil qilinishi mumkin. Uning amal qilish muddati, maqomi va chegarasi belgilanadi. MIZ faoliyati ma‘muriy kengash orqali muvofiqlashtiriladi. Bu kengash Vazirlar Mahkamasi tomonidan hukumat, fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish va investorlardan tashkil qilinadi. Bu narsa MIZni rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda barcha tomonlarning manfaatlarini samarali birlashtirishga imkon beradi.

Muallif fikricha O‘zbekistonda MIZlarning ba‘zi turlarini shakllantirish ishlari ularning qonuniy maqomlari rasmiylashtirish va unga tutash hududlar bazasida “Zavod plyus mahalla” birlashmalarini erkin hududlarga aylantirishni amalda joriy etish bo‘yicha tajribalkarni ko‘paytirish lozim. Bunday birlashmalar xususiy korxonalarni tashkil etish va rivojlantirishni rag‘batlantirishga ko‘maklashadi.

Bu muammolarning hal etilishi shuni ko‘rsatadiki: zavod va mahalla birlashmalarini MIZga aylantirish uchun, xususiy firmalarni ro‘yxatga olish va soliqqa tortish jarayonini maksimal darajada soddalashtirish, qayta tashkil etilgan xususiy korxonalarining mahalliy xom ashyo manbaidan foydalana olishini ta‘minlash kerak.

Bu O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyatini oshirishga (aholi farovonligini oshirish, teng va o‘zaro manfaatlar asosida jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuv) qaratilgan islohatlarni amalga oshirishning yana bir qadami bo‘ladi.

Muallif fikricha MIZ faoliyatiga investitsiyalarni yo‘naltirishning muhim asoslari bo‘lib, investorlarga berilgan imtiyozlar hisoblanadi. Yuqorida tashkil etilishi loyihalashtirilayotgan har ikkala iqtisodiy hudud uchun bunday imtiyozlarni alohida ko‘rsatib o‘tish lozimdir. Chunki har ikkala iqtisodiy hududning joylashish

hududlari va investitsiyalarni jalb etish manbalari va maqsadlari turli xildir. 3.1-jadvalda Orol erkin ekologik hududida investorlarga berilgan imtiyozlar matritsasi keltirilgan. Keltirilganlardan xulosa qilish mumkinki, tashkil etiladigan MIZlarda yaratiladigan imtiyozlar investorlar takliflari asosida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Mahalliy byudjet bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishdan beriladigan imtiyozlar iqtisodiy hudud ma‘muriyati bilan kelishilgan holda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

3.1-jadval

Maxsus iqtisodiy hududlar klassifikatsiyasi⁶⁸

Turi	Joylashuvi	Faoliyat maqsadi	Faoliyat xususiyatlari	Asosiy imtiyozlar
Bojxona omborxonasi	Port va boshqa obyektlar	Xalqaro savdoni ta‘minlash	Tovarlarni portda tushurishdan to bojxonadan o‘tkazishgacha bo‘lgan muddatga saqlash Omborlarda savdo qilish va ishlab chiqarish taqiqlangan.	Mavjud emas (import tovarlar barcha to‘lovlarini amalga oshirish lozim)
Soliqsiz chakana savdo hududlari	Port, aeroport va chegara punktlari	Turistlarga xizmat ko‘rsatish	Turistlar u-n chakana savdo. Bu savdo rivojlangan mam-lakatlar iqtisodiga uncha ta‘sir qilmaydi, rivojlanmaganlari u-n asosiy daromad manbai bo‘lishi mumkin	Bojxona yig‘imlari, aktsiz soliqlari va QQS bo‘yicha imtiyozlar
Erkin port	Portlar	Xalqaro savdoni rag‘batlantirish	Importyor tovarlarini bojxonadan o‘tkazmay turib, ajratishi, saqlashi va ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan maxsus ajratilgan portlar. Bu erda ishlab chiqarish taqiqlangan	Bojxona bojaridan imtiyozlar (tovarlar import qilingunga qadar)
Eksport tovarlar ishlab chiqarish hududi	Xalqaro savdoning muhim uzellari (odatda portlar)	Xalqaro savdoni va ishlab chiqarishni rag‘batlantirish	Maxsus ajratilgan hududlar, ishlab chiqarish mahsulot eksport qilinguncha turli soliqlardan ozod etiladi. Ishlab chiqarishda odatda import yarim tayyor mahsulotlar shlatiladi	Bojxona yig‘imlari va boshqa egri soliqlar bo‘yicha imtiyozlar
Erkin savdo hududi	Xalqaro savdoning muhim uzellari	Xalqaro savdoni va ishlab chiqarishni rag‘batlantirish	Yuqorida aytib o‘tilgan barcha erkin hududlar birlashmasi. Bu erda ham savdo-sotiq, ham ishlab chiqarish olib boriladi.	Turli egri soliqlar bo‘yicha imtiyozlar
Maxsus iqtisodiy hudud	Yaxshi rivojlangan hududlar	Ishchini rag‘batlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish	Investitsiya jalb qilish va infratuzilmani rivojlantirish orqali mamlakatning alohida mintaqasi rivojlanishini rag‘batlantirish	Ba‘zi egri va to‘g‘ri soliqlar (daromad solig‘i) birikmasi bo‘yicha imtiyozlar

⁶⁸ O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi 2020 yil 17-fevraldagi 604-sonli Qonuni malumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tarmoqli iqtisodiy hudud	Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hududlari	Ishchini rag'batlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish	Mamlakatga yuqori daromad keltirishi mumkin bo'lgan istiqbolli iqtisodiy tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash (turizm, sport, aviatsiya va hk.)	Bojxona va soliq imtiyozlarini taqdim etish
Qo'shma korxonalar	Ko'pincha resurs va bozorga yaqin joylarda	Xizmatlar ko'rsatish va tovarlar ishlab chiqarish	Bozorni iste'mol va ishlab chiqarish mahsulotlari bilan to'ldirish, aholiga va tarmoqlarga xizmat ko'rsatish	Ba'zi egri va to'g'ri soliqlar birikmasi
Integratsion birlashmalar	Bir necha mamlakatlarning perimetri bo'ylab	Mamlakat va mintaqani rivojlantirish	Xo'jaliklararo integratsiya va kooperatsiyalar, qo'shma istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish, yangi hudud va texnologiyalarni o'zlashtirish, mintaqalararo bozorlarni shakllantirish	Davlatlararo shartnomalar bilan belgilanadi
Offshor hududlar	Banklar, kredit-valyuta operatsiyalari	To'lov va bank hisob-kitoblarini amalga oshirish	Xalqaro moliya sektorini rag'batlantirish, istiqbolli loyihalarga investitsiyalar kiritilishini ta'minlash	Ba'zi to'g'ri va egri soliqlar birikmasi

Biz bilamizki MDH mamlakatlari hududlarida texnoparklarni barpo etishga hukumat organlari faol harakat qilmoqdalar. Shunday Qozog'istonning Olma-ota yaqinidagi Olatou qishlog'ida "Axborot texnologiyalar parki"ni yaratish loyihasini amalga oshirish bo'yicha huquqiy asoslar tayyorlangan va ishlar boshlangan. O'zbekistonda texnoparklar yaratish masalasi strategik dolzarb hisoblanadi. Bunda dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashadigan texnoparklar eng samaralisi bo'ladi. O'zbekiston dasturiy mahsulotlar bozorining tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirda bu sohada 100dan ortiq kompaniya va firmalar, shu qatorda xorijiy va ularning sho'ba korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ekspertlar baholashga ko'ra, O'zbekiston dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish bozorining hajmi yiliga 7-8 mln \$ga baholanmoqda. Biznesning bu sohada rentabelligi 5-15% ni tashkil etmoqda. Jami xarajatlarning 80% i mahsulotlarni joriy etish xarajatlaridir. Dasturiy ta'minotlar milliy bozorining investitsiyalarni jalb qilish salohiyati oshmoqda, bu esa O'zbekistonda dasturiy mahsulotlarni yaratish sohasida jahonning yetakchi korxonalari vakolatxonalarining ochilishiga olib keldi. Murakkab texnologik loyihalar erkin sotiladigan, mutaxassislar o'rtasida tajriba va g'oyalar almashinuvi bo'ladigan hududlarning shakllantirilishi dasturiy ta'minot sanoatining rivojlanish sur'atlarini sifat jihatdan yaxshilashga imkon beradi. Bu hududlarni

yaratish uchun ko'p moliyaviy investitsiyalar talab etilmaydi. Bunday turdagi faoliyatning o'ziga xos xususiyati yuqori malakali hodimlar va yo'lga qo'yilgan buyurtmalar jalb qilish tizimining mavjudligiga asoslanadi. MIHlarning bu turi uchun texnika universitetlari bilan yaqin hamkorlikda shakllanishi tabiiydir. Bu universitetlarda ilmiy-tadqiqot ishlar sohasida muayyan tajriba va talabalarni tayyorlash hisobiga diplomli mutaxassislarning doimiy oqimi mavjud. Berilgan texnopolisning tashkiliy shakli dasturlash milliy markazi bo'lishi mumkin edi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, bugunki kunda respublikada murakkab axborot texnologiyalarning mujassamlashgan, majmuaviy yechimi texnologiyasi keng qo'llanilmoqda.

Misol sifatida, 2-3 yil oldin ochilgan yosh dasturchilarni tayyorlash va qo'llab quvvatlash markazi faoliyatini keltirish mumkin. Markaz tinglovchilari dasturlash sohasida olgan chuqur nazariy bilimlari asosida o'z tadqiqotlarini amalda qo'llash imkoniyatiga egadirlar.

Umuman olganda muallif fikricha maxsus ilmiy-texnik hududlarni (MITH) yaratishda muvofiq huquqiy-me'yoriy asoslarni shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Bu yo'nalishda qilingan 1-navbatdagi qadam "MIH to'g'risida"gi qonunga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, MITHning dasturiy maqsad va faoliyat yuritish sharoitini belgilovchi hukumat qarorlari bo'lishi lozim. "Dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish, internet-texnologiyalari va boshqa intellekt talab ishlab chiqarish sohasida texnopark, texnopolis, sotsiopolis faoliyati va investitsion, eksport-import rejimi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinish ehtimoli bor. Bu qonun loyihasining asosi quyidagilar bo'lishi mumkin edi:

- ❖ 100% li eksportga yo'naltirilgan sxema;
- ❖ korxonalarni ro'yxatdan o'tkazishning yengil jarayoni;
- ❖ O'zbekiston bojxona hududida sotish huquqsiz xorij firmalar tomonidan barcha turdagi asbob-uskunalarning bojsiz va soliqsiz kiritilishi;
- ❖ barcha olib chiqiladigan dasturiy mahsulotlarni ekport bojlari va soliqlardan ozod qilish;

❖ yangi korxonalarni 10 yilga daromad va mahalliy soliqlardan ozod qilish.

Shunday qilib, davlat avval texnopark, texnopolis, keyin esa sotsiopolislarni o‘z qaramog‘iga oladi. Ular intellektni qayta tiklash, ishlab chiqarishni, ta‘lim va ilm-fanni birlashtiradi va yangi iqtisodiyotning timsoli, kelajak jamiyatning modeli hisoblanadilar.

Hozirgi kunda ham O‘zbekistonda bu yo‘nalishda muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi VM qoshidagi kompyuterlashtirish va informatsion kompyuter texnologiyalarini (IKT) rivojlantirish bo‘yicha muvofiqlashtirish kengashi tomonidan dasturiy mahsulotlar va informatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish kontseptsiyasi hamda “O‘zbekiston intellekti” MITHning dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqarish va informatsion-aloqa texnologiyalari sanoatini rivojlantirishga oid erkin ilmiy-texnik hududlar holati ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Yuqoridagi hujjatlarning qabul qilinishi O‘zbekistonda MITH yaratishda turli vazirliklar va boshqarmalar faoliyatlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha ishlarni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Buning uchun mualli fikricha MITHdagi ishchilar va dasturchilar ish haqini umumjahon darajasiga nisbatan moslashtirish kerak. Bu esa yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish va “aqlning oqib ketishi” yo‘liga to‘siq qo‘yishga imkon beradi. TIFni amalga oshirishda imtiyozlar taqdim etishni ta‘minlash masalasi alohida e‘tiborga loyiq. Chunki MITHda ishlab chiqarilgan mahsulotlar birinchi o‘rinda eksportga yo‘naltiriladi. Umuman kompyuter dasturlari yaratishga ixtisoslashgan, samarali faoliyat ko‘rsatadigan MITH informatsion-aloqa texnologiya sektori rivojlanishini yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida bevosita mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishiga olib keladi. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish g‘oyasi o‘tgan asrning 80 - yillari oxirida ko‘rib chiqilgandi va ko‘pgina mutaxassislar bu hududlarni milliy iqtisodiyotni qayta isloh qilishning yangi mexanizmi va istiqboli deb hisoblashgandi. Darhaqiqat, II bo‘limda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning bu boradagi tajribalari va yutuqlaridan xulosa qilgan holda , bu kabi

hududlarni tashkil etish orqali milliy va xorijiy investitsiyalarni keng ko‘lamda iqtisodiyotga jalb etish, ilmiy-texnik taraqqiyotga erishish, eksport salohiyati va iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish kabi masalalarni hal etishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan deya olamiz.

O‘zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish to‘g‘risidagi dastlabki qonun 1996-yilda qabul qilingan bo‘lib, “ Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida” deb nomlanadi. Va bu Qonunga asosan, respublikamizda uch ko‘rinishdagi , ya‘ni erkin savdo zonolari , sanoat zonolari va texnologik zonalarini rivojlantirish maqsad qilingan. Bu Qonun asosida O‘zbekistonda 2008-yilda Navoiy viloyatining Karmana hududida 500 gektarli yer maydonida dastlabki erkin iqtisodiy zona “ Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi (EIIZ) tashkil etildi. Bundan so‘ng esa, 2012-yilda “Angren” EIIZ va 2013-yilda “ Jizzax” EIZ 2018-yilda Termiz erkin iqtisodiy zonasi tashkil etildi. Ushbu erkin iqtisodiy zonalar faoliyati orqali mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish infrastrukturasi shakllantirish va rivojlantirishga bo‘lgan sa‘y-harakatlar amalga oshirildi va oxirgi 5 yil ichida yana 18 ta maxsus iqtisodiy zona yaratilishiga erishildi. Bularning barchasi iqtisodiyotni hududiy jihatdan sanoatlashtirishda diversifikatsiyalashuv, mavjud barcha salohiyatlarni hisobga olib ixtisoslashtirilgan holda samarali rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo hozirgi kunda bu qonun bekor qilinib, 2020-yilda yangi “ Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida” gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyat ko‘rsatishini va ularni rivojlantirishni tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Bunga ko‘ra, maxsus iqtisodiy zona — tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo‘lgan hudud.

Ushbu Qonunga binoan Respublikamizda maxsus iqtisodiy zonalar quyidagi turda tashkil etilishi mumkin:

- ❖ erkin iqtisodiy zonalar;

- ❖ maxsus ilmiy-texnologik zonalar;
- ❖ turistik-rekreatsion zonalar;
- ❖ erkin savdo zonalari;
- ❖ maxsus sanoat zonalari.

Erkin iqtisodiy zona — yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta‘minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud.⁶⁹

Hozirgi kungacha tashkil etilgan 21 ta iqtisodiy zonalarining 20 tasi erkin iqtisodiy zona va 1 tasi erkin turistik zona hisoblanadi (“Chorvoq” ETZ) . O‘zbekiston MIZ larining tashkil etilgan yili, yer maydoni o‘lchovi, maqsadi va faoliyati to‘g‘risidagi batafsil ma‘lumot Ilova 5 da berilgan.

Bundan tashqari 143 kichik sanoat zonalari ham mavjud bo‘lib, bu kabi zonalar 2017-yildan boshlab ma‘lum bir shaharlarda tashkil etilib kelinmoqda.

Faoliyat ko‘rsatyotgan EIZ larga quyidagilar kiradi:

Sanoat tarmog‘ida 12 ta EIZ: “Navoiy”, “Angren”, “Jizzax”, “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon”, “Hazorasp”, “Namangan”, “Sirdaryo”, “Nukus”, “Termiz”, “Chiroqchi”.

Farmatsevtika tarmog‘ida 7 ta EIZ: “Andijon - farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq -farm”, “Parkent-farm”.


Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida 1 ta : “Buxoro-agro”.

Turizm tarmog‘ida 1 ta : “ Chorvoq” .

Ammo Qonunda belgilangan boshqa shakldagi maxsus iqtisodiy zonalar hali tashkil etilmagan. Maxsus iqtisodiy zona O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan o‘ttiz yil muddatga tashkil etiladi. O‘zbekiston Respublikasi

⁶⁹O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar” to‘g‘risidagi Qonuni

Prezidentning qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi maxsus iqtisodiy zonaning faoliyat ko‘rsatishini va uni rivojlantirishni tashkil etish masalasi yuzasidan qaror qabul qiladi.



3.1-rasm. O‘zbekiston MIZ larining boshqarilish tartibi⁷⁰

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi MIZ faoliyati ko‘rsatishi sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta‘minlash, MIZ rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash, chegaralarini tasdiqlash, ma‘muriy kengashlarni tuzish va ularning faoliyatini nazorat qilish, MIZ faoliyat ko‘rsatishini va ularni rivojlantirishni tashkil etish sohasidagi vakolatli davlat organlarini belgilash, ularning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish, investitsiya loyihalarining o‘z vaqtida ro‘yobga chiqarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish kabi vazifalarni bajaradi.

Vakolatli davlat organlariga Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Sog‘likni saqlash vazirligi va boshqa bir qancha tashkilotlar kirishi mumkin.

Maxsus iqtisodiy zonaning ma‘muriy kengashi tegishli mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar vakillari orasidan tuziladigan kollegial organ bo‘lib, unga maqomi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, tegishli viloyat hokimi va Toshkent shahar hokimi bo‘lgan rais rahbarlik qiladi. Ma‘muriy kengashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- maxsus iqtisodiy zonaning faoliyat ko‘rsatishi, maxsus huquqiy rejimga rioya etish va maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga ko‘maklashish bilan bog‘liq

⁷⁰ O‘zbekiston Respublikasining 17.02.2020 yildagi 604-son. qarori asosida muallif ishlanmasi

masalalar bo'yicha mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- maxsus iqtisodiy zona hududida amalga oshirish uchun investitsiya loyihalarini saralab olishni amalga oshiradi;
- maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini berish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;
- maxsus iqtisodiy zonaning muhandislik-kommunikatsiya va transport infratuzilmasi qurilishi bo'yicha loyihalarning o'z vaqtida amalga oshirilishini tashkil etadi;
- maxsus iqtisodiy zona direksiyasining yillik daromadlar va xarajatlar smetasini ko'rib chiqadi hamda tasdiqlaydi.

Shunday qilib muallifning fikricha maxsus iqtisodiy zona direksiyasi maxsus iqtisodiy zonaning faoliyat ko'rsatishi va boshqarilishini ta'minlash uchun tashkil etiladigan davlat unitar korxonasi shaklidagi yuridik shaxsdir. Direksiyaning quyidagi vazifalari mavjud:

- MIZ hududida maxsus huquqiy rejimning amal qilishini, MIZ rivojlantirish dasturi amalga oshirilishini ta'minlaydi; MIZ ishtirokchilari reyestrini yuritadi.
- salohiyatli investorlar va maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari bilan o'zaro hamkorlikni, shu jumladan investitsiya buyurtmanomasini ko'rib chiqish va tanlab olish uchun qabul qilishni, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi tarmoqlariga ulanish uchun zarur ruxsatnomalar berishni "yagona darcha" prinsipi asosida tashkil etadi;
- maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari bilan shartnomalar asosida marketing xizmatlari, shuningdek mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda targ'ib qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi;
- maxsus iqtisodiy zonaga investorlarni jalb etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi;

- investorlarni, maxsus iqtisodiy zonaning ishtirokchilarini axborot bilan taʼminlaydi, shu jumladan ularning davlat organlari va boshqa tashkilotlar vakillari bilan uchrashuvlarini tashkil etadi;

- maxsus iqtisodiy zona hududidagi yer uchastkalarini, shuningdek binolar va inshootlarni maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga beradi;

Maxsus iqtisodiy zonalar hududidagi yer uchastkalari maxsus iqtisodiy zonalarining direksiyalari tasarrufida turadi va maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarining foydalanishiga investitsiya bitimiga muvofiq investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun maxsus iqtisodiy zonalar maʼmuriy kengashlarining qarorlari asosida berilishi mumkin, bundan maxsus sanoat zonalarining hududlari mustasno.⁷¹ Maʼmuriy kengash Direksiyaqa berilgan davlat mulkidan belgilangan maqsadda foydalanilishini va uning saqlanishini, shuningdek, oʻzgarga berilishini Muassis nomidan nazorat qiladi.

Direktor har chorakda Direksiya faoliyatining natijalari va tasdiqlangan rivojlantirish dasturlarining amalga oshirilishi toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

Muallifning fikricha, hozirgi kunda milliy MIZ larni boshqarish va undagi investitsion loyihalarni koʻrib chiqish jarayonlari va muddati zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga mos emas va bu faoliyatning yanada mukamallashtirilishi kerakligi aytiladi. Investor loyihasini va barcha kerakli hujjatlarini direksiyaqa topshiradi. Direksiya oʻz ekspertizasidan oʻtkazgandan soʻng tegishli muassisga (Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish” DUK) yana ekspertiza uchun yuboradi. Bu muassis 20 ish kuni ichida loyihani koʻrib chiqib, direksiyaqa qaytaradi. Direksiya uni endi maʼmuriy kengashning tasdiqlashi uchun yuboradi. Barcha majburiyatlar bajarilgandan soʻng investorning MIZ rezidenti maqomini olish boʻyicha maʼmuriy kengashning tasdiqlashi qonundan 5 ish

⁷¹ Oʻzbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar” toʻgʻrisidagi Qonuni

kunida hal etilishi lozim. Ammo tajribada bu jarayon taxminan bir oylarga choʻzilishi mumkin. Shuningdek, qiymati 5 mln.doll. dan ortiq boʻlgan loyihalar uchun ruxsatnoma olish yanada koʻproq vaqt talab qiladi. Bunday loyihalarni amalga oshirish toʻgʻrisidagi arizani koʻrib chiqish natijalari boʻyicha barcha tegishli vazirliklar va idoralar oʻzlarining yozma roziliklarini bildirishi arizani koʻrib chiqish va loyihani tasdiqlanish muddatini choʻzib yuboradi (bunday loyihalar tasdigʻi 4 oygacha choʻzilgan). Ortiqcha byurokratiya jarayonlari MIZ larga investitsiya kiritishni xohlagan salohiyatli investorlarning hududda biznes yuritishga boʻlgan qiziqishlarini soʻndirishi mumkin.

Loyiha qiymati qanday boʻlishidan qatʻiy nazar MIZ direksiyasi va maʼmuriy kengash oʻzlari mustaqil arizalarni koʻrib chiqishi va MIZ rivojlanishi uchun maʼsuliyatli qarorlarni oʻzlari mustaqil ravishda koʻrib chiqsa maqsadga muvofiq boʻlar edi. Jahon tajribasidan (AQSH , Xitoy) ham koʻrib oʻtganimizdek, MIZ larni boshqarish , investitsion loyihalarni joylashtirish kabi masalalar markaziy emas, balki regional darajada hal etiladi. Bu esa ham vaqtni , ham ortiqcha urinishlarning oldini oladi.

Bundan tashqari MIZ direksiyasi istiqbolli investorlarga yer, bino va boshqa qulayliklarni mustaqil ravishda taqdim eta olmaydi. Bu kabi masalalar maʼmuriy kengashning tasdigʻini talab etadi va bir qancha oyga choʻzilishi ham mumkin. Investorlarni muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi (elektr, gaz, sovuq suv, kanalizatsiya) tarmoqlariga ulash boʻyicha direksiyalarning vakolatlari cheklangan. Koʻpgina hollarda, EIZlar muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratmasdan ochiladi.

Bundan tashqari, MIZ larni boshqarishda, tajriba tariqasida, bu sohada yetarli malakaga ega boʻlgan xususiy xorijiy kompaniyalar va investorlarni jalb qilib koʻrish lozim. DP World (BAA), Amata (Tayland) , Sembcorp (Singapur) va APM Terminals (Niderlandiya) kabi maxsus iqtisodiy zonalar xususiy kompaniyalar tomonidan samarali tarzda boshqarilib kelinmoqda.

Bevosita, MIZ lardagi investitsiya muhitiga taʼsir qiluvchi omillarni tahlil qilar ekanmiz, bu borada MIZ rezidentlariga beriladigan soliq imtiyozlari ham

muhim o‘rin tutadi. Quyida mavjud bo‘lgan soliq tizimini batafsilroq yoritib o‘tamiz.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari soliq bo‘yicha imtiyozlardan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda foydalanadi.

Muallif fikricha maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari quyidagilarni to‘lashdan ozod etilishi zarur:

respublikada ishlab chiqarilmaydigan va investitsiya bitimiga muvofiq investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun qurilish davrida belgilangan tartibda olib kirilgan qurilish materiallari uchun bojxona to‘lovlarini (bundan qo‘shimcha qiymat solig‘i va bojxona rasmiylashtiruvini uchun yig‘imlar mustasno);

tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha texnologik uskunalarning o‘xshashi O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydiganini olib kirishda bojxona to‘lovlarini (bundan bojxona rasmiylashtiruvini uchun yig‘imlar mustasno).

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqarish va mahsulotlarni eksportga realizatsiya qilish uchun foydalanadigan xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda bojxona to‘lovlari (bundan bojxona rasmiylashtiruvini uchun yig‘imlar mustasno) to‘lanmaydi.

Maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari tovarlarni import qilganda qo‘shilgan qiymat solig‘ini 120 kungacha muddatga kechiktirib to‘lashi mumkin.

MIZ lardagi soliqqa tortish tizimi tahlili 2019 -yilgacha amalda bo‘lgan tizim va 2020 -yildan keying holat o‘zaro taqqoslangan holda tahlilni davom ettiramiz.

2020-yilgacha amalda bo‘lgan soliq qonunchiligi doirasida, tadbirkorlar uchun xodimlar soniga qarab ikkita soliq rejimi yaratildi - umumiy va soddalashtirilgan.⁷²

Umumiy belgilangan rejimga muvofiq, yirik korxonalar daromad solig‘ini (7,5%), mol-mulk solig‘i (5%), yer solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) (20%),

⁷² O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi

aktsiz solig'i, yer osti boyliklaridan foydalanishga solinadigan soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (faoliyat turiga qarab) va ayrim korxonalar esa ortiqcha foyda solig'ini ham to'laydilar.

Bundan tashqari, yirik korxonalar oborotdan (tushumidan) jami 3,5 % miqdorda majburiy ajratmalar to'laydilar (QQS va aktsizni hisobga olmaganda , 1,6% - Pensiya jamg'armasiga, 1,4% - Yo'l fondiga va 0,5% - ta'lim va tibbiyot muassasalari qayta qurish, kapital ta'mirlash va jihozlash fondiga) va O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasiga yo'naltirilgan Mehnatga haq to'lash fondidan 25% miqdorida yagona ijtimoiy to'lov .

Soddalashtirilgan rejimga kiruvchi kichik korxonalar va mikrofirmalar odatda yirik korxonalardan undiriladigan katta miqdordagi soliq va chegirmalardan ozod qilinadi, ammo 15 % lik Pensiya jamg'armasiga yo'naltirilgan Mehnatga haq to'lash fondi hisoblangan yagona ijtimoiy to'lov bundan mustasno. Bundan tashqari, kichik biznes subyektlari ham tushumning 5% miqdorida yagona soliq to'lovini to'lashlari shart.

3.2. O'zbekiston MIZ lari faoliyati samaradorligining iqtisodiy sohalardagi yo'nalishlar


Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotni liberallashtirish to'liqini bilan yangi iqtisodiy rivojlanish davriga qadam qo'ydi. Respublikada zamonaviy innovatsion ishlab chiqarishni shakllantirish, hayot uchun qulay muhitni shakllantirishning yangi mexanizmlari va vositalari ishlab chiqilmoqda va joriy qilinmoqda, bu esa O'zbekistonni xalqaro miqyosda sanoati rivojlanayotgan mamlakati sifatida tasavvurini yaratishga imkon beradi. MIZlarni yaratish va rivojlantirish O'zbekiston uchun ham dolzarbdir. Ularni respublikaning iqtisodiy muammolarini hal qilish va ishlab chiqarish jarayonlariga yangiliklarni kiritish uchun yangi g'oyalarni yaratish usullaridan biri deb hisoblash mumkin. MIZlar ichki bozorni yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'yinganligini ta'minlash, eng yangi ilmiy-texnik ishlanmalarni mahalliy ishlab chiqarishga joriy etish, bandlikni oshirish, eksportni kengaytirish, valyuta tushumini ko'paytirish, xalqaro standartlarga javob

beradigan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash uchun imkoniyatlar yaratishga imkon beradi.

Ko‘rib turganimizdek hozirgi kunda milliy MIZ larda 369 ta loyiha amalga oshirilgan bo‘lib, umumiy jalb etilgan investitsiya miqdori 2 090.7 mln.AQSH doll.ini tashkil etadi va bunda TTXI ning hajmi 727 mln.AQSH doll.iga teng bo‘lib, MIZ lardagi loyihalarda xorijiy investitsiyaning ishtiroki qariyb 30 % ni tashkil etishini ko‘rsatadi⁷³ va 12 ta MIZ da xorijiy kapital ishtirokidagi loyihalar amalga oshirilgan. MIZ lardagi loyihalarni amalga oshirishga jalb etilgan 300 mln.doll. dan ortiq xorijiy investitsiyalar Xitoy (umumiy hajmning 40 %i), Buyuk Britaniya (10 %), Koreya (5 %), Singapur va Avstriya (37 %), Bolgariya, BAA, Hindiston, Italiya, Beliz va boshqa davlatlardan jalb qilingan. Masalan,xorijiy investitsiya ishtirokida “Angren shakar” (108,5 mln.doll. xorijiy kapital) zavodining qurilishi, “Angren” EIZ da chinni tosh buyumlar va keramik plitkalar ishlab chiqarishni tashkil etish bo‘yicha loyiha (20,9 mln.doll.), “Jizzax” EIZ da oyna buyumlar ishlab chiqarishni keng assortimentda tashkil etish (28,9 mln.doll.) va “Sirdaryo” EIZ da keramik plitkalarini (15 mln.doll.) ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yilgan. Farmatsevtika sanoatini rivojlantirishni maqsad qilgan MIZ lardagi loyihalarda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ko‘p emas (Ilova 7).

Mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish hajmida respublikada EIZ korxonalarining ulushi barqaror emas va yetarlicha past, EIZ doirasida istiqbolli loyihalarning to‘liq va o‘z vaqtida amalga oshirilishi ta‘minlanmaydi. Masalan, Taraqqiyot markazi ma‘lumotlariga asosan, “Jizzax” va “Navoiy” EIZ larida ishlab chiqarishning 1,3-1,5 martagacha kamayganligi hisobiga umumiy ishlab chiqarishda eksportning ulushi kamayib ketgan. “Navoiy”, “Angren”, “Jizzax”, “Termiz” EIZ larda ammalga oshirilishi rejalashtirilgan 144 istiqbolli loyihadan 90 tasi amalga oshirilgan bo‘lib, umumning 60 % ini tashkil qiladi. Agarda yuqorida keltirilib o‘tilgan MIZ lar faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlariga yondashsak, ushbu MIZ larning faoliyati “qoniqarli” baho qo‘yilgan bo‘lar edi.

⁷³ O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma’lumotlari asosida hisoblab chiqildi



3.1-rasm. Maxsus iqtisodiy zonalarda amalga oshirilgan investitsion loyihalar dinamikasi (2012-2022)⁷⁴

2019-yil yakunlariga ko‘ra MIZ larda yaratilgan ish o‘rinlari soni 29,3 mingni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yakunlarida 36 ming ish o‘rinlari yaratilgani ma‘lum qilindi.

Bundan tashqari hozirgi kunda MIZ larga xorijiy investitsiya oqimi kirib kelishi uchun asosiy talab yuqorida yoritilgan imtiyoz va rag‘batlar emas, balki hududning obodonlashtirilganligi, infrastrukturaning holati ya‘ni suv, elektroenergiya bilan muammosiz ta‘minlanganligi, telekommunikatsiya tarmog‘i, aeroportga chiqish imkoniyati, ishchi xodimlar uchun barcha sharoitlari mavjud bo‘lgan qulay uy-joylarning mavjudligi kabi omillar birlamchi xarakterga ega bo‘lib bormoqda. Sababi, xorijiy investitsiyani jalb etish maqsadida qonuniy normalarni yengillashtirayotgan davlatlar ko‘p, ya‘ni raqobatchilar ko‘p, ammo ularning hammasida ham xorijiy investor, xorijiy ishchilar hududda istiqomat qilishlari uchun qulay sharoitlar mavjud emas. Agar bu talablar bajarilmas ekan, ular bu hududga investitsiya kiritish masalasini ko‘rib chiqishmaydi ham.

⁷⁴ O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqildi

Biz o‘ylaymizki maxsus iqtisodiy hududlar asosiy mohiyati mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ichki va tashqi kapitalni, istiqbolli texnologiyalar va boshqaruvga oid tajribalarni jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma‘muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududlarni anglatadi.

Maxsus iqtisodiy zonalar jahon xo‘jaligining muhim bo‘g‘iniga sifatida ko‘plab mamlakatlarda o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatdi va ba‘zi mamlakatlar iqtisodiyotining ajralmas bo‘lagiga aylanib qoldi. MIZ lar turli davlatlarda turli ko‘rinishlarda mavjud bo‘lib, ularni asosan bir xususiyat, ya‘ni mana shu hududlarda joriy qilingan imtiyozli sharoit, birlashtirib turadi. Mana shunday imtiyozli muhit chet el investitsiyalarini jalb qilishning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi.

MIZlar hozirgi kundagi integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlarining yirik omillaridan hisoblanadi. Chunki aynan MIZlar chet el investorlari jalb qilish orqali kapitalning internatsionallashuviga sabab bo‘ladi va transmilliy kompaniyalarning kirib kelishi orqali integratsiyalashuv jarayonlari yanada yuqori bosqichga olib chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalar mexanizmini tubdan qayta qurish, xorijiy investitsiyalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etish borasida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlash, xorijiy sarmoyador va tadbirkor-ishbilarmonlar bilan iqtisodiy integratsiyaning samaradorligini oshirish uchun erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilishi muhim ahamiyatga egadir.

Muallif fikricha O‘zbekiston sharoiti MIZlar tashkil qilishga bo‘lgan xarakterlar va hozirgi kundagi istiqbolli rejalar juda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va ayrim nozik jihatlarni hisobga olgan holda MIHlarning tashkil etilishi kelajakdagi yutuqlarga podevor bo‘lib xizmat qiladi. MIHlar tashkil qilishdan turli mamlakatlar turlicha maqsadlarni ko‘zlaydilar.

Umuman olganda muallifning fikricha MIZni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar quyidagicha:

- mamlakat iqtisodiyotiga chet el investitsiyasini jalb etish, ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay imkoniyat;
- chet el investorlari ishtirokida mamlakat tadbirkorlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va oqibatda tovar va xizmatlar eksporti hajmini oshirish;
- mamlakatning ichki bozoriga yuqori sifatli mahsulotlar va xizmatlar, yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelishi va tadbiq qilinishini ta‘minlash;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi xo‘jalik yuritish usullarini joriy qilish, korxonalar boshqaruvining zamonoviy usullarini o‘zlashtirish;
- bozor infratuzilmasini rivojlantirish, xususan, maxsus iqtisodiy hudud joylashgan mintaqada infratuzilmani yanada yuqori bosqichga olib chiqish;
- tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorligi oshirish, xom-ashyo va inson resurslarini unumli foydalangan holda samaradorlikni oshirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni takomillashtirish, ya‘ni MIH orqali butun hududni kompleks rivojlantirishdan iborat.

Jahon xo‘jaligida maxsus iqtisodiy hududlarning shakllanishi, ya‘ni tashkil qilish va jahon xo‘jaligida maxsus iqtisodiy hududlar faoliyatini rivojlantirish orqali tarqqiyotga erishish va milliy iqtisodiyot yuksalishida tashqi savdo-sotiq siyosatini ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish, uning ijobiy tomonlarini umumlashtirish asosida O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil qilish va uni rivojlantirish istiqbollari, hamda maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etishdagi jahon tajribasidan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari borasida quyidagi takliflarni bildirib o‘tamiz:

Shu o‘rinda muallif fikricha MIZlar tashkil qilish bo‘yicha jahon tajribalarini o‘rganib chiqib, ulardan eng ma‘qulini tanlab olish, O‘zbekiston sharoitiga moslashtirib, ya‘ni uni ko‘r-ko‘rona ko‘chirmasdan bizda tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Chunki malakaviy ishda aytib o‘tilgan ba‘zi mamlakatlarni ko‘radigan bo‘lsak, ularning hammasi ham MIH tashkil qilib, yaxshi natijaga erishmagan. Faqatgina ba‘zilari to‘g‘ri siyosat olib borgani sababli yuqori natijaga erishdi. Shunda ham ularda bir qator kamchiliklar mavjud. Ishning asosiy maqsadi ham jahon tajribasini o‘rganib chiqish va MIHlarni tashkil qilishdan oldin unga asos

va sharoit yaratish, loyihlarni to'g'ri yaratish kabi bir qator muhim masalalarni bartaraf etish yo'llarini o'rganishdan iborat bo'ldi. Shundagina barcha tajribalar asosida bizning yurtimizga to'g'ri keladigan samarali MIHni tashkil qilish va oqsab kelayotgan tarmoqlarni yoki hududlarni rivojlantirish mumkin.

Hududlarda hali ochilmagan imkoniyatlarni inobatga olgan holda, davlatimiz rahbari tomonidan "Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari muhandislik – kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora -tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq, joriy yilda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari infratuzilmasini yaxshilash uchun 1 trillion 600 milliard so'm mablag' ajratilishi belgilandi. Xususan, 17 ta EIZ qo'shimcha elektr energiyasi, gaz, ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlari hamda avtomobil yo'llarini barpo etish uchun 584 milliard so'm ajratilishi e'lon qilindi. Shuningdek, joriy yilda umumiy qiymati 1,1 milliard dollar bo'lgan 332 ta loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan.⁷⁵

Bizning o'ylashimizcha hozirgi kunda deyarli barcha viloyatlar hududida maxsus iqtisodiy zona mavjud. Quyidagi rasmda 2012-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi berilgan. Oxirgi yillarda kiritilyotgan investitsiyalar salmog'i sezilarli ravishda o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2000-yilda 732 mlrd. so'mga teng bo'lgan bo'lsa, 2020-yil 202 trln.so'mdan ortiqni tashkil qilgan.Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi Ilova 8 da berilgan. 2020-yil yakunlariga ko'ra, maxsus iqtisodiy zonalarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 3,9 mlrd. so'mni tashkil etib, jami mamlakatga kiritilgan investitsiyaning 0,001 foizini tashkil etmoqda.⁷⁶

Ammo viloyatlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni o'zaro katta tafovutga ega. Rasm 3.2.3.dan ko'rishimiz mumkinki,asosiy xorijiy kapital qo'yilmalar aynan Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga tegishli bo'lib, ular asosida tashkil etilgan korxonalar 7124 va 1334 tani tashkil qiladi. Eng kami esa, Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etilgan bo'lib, 164 ta chet el

⁷⁵ www.namangan-fez.uz rasmiy sayti

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining MIZ „KSZ, klasterlar faoliyati bo'yicha 2022-yil yanvar-dekabr ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar bor. Butun viloyat hududi erkin iqtisodiy zona hisoblangan Navoiy viloyatida esa 239 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich maxsus iqtisodiy zona haligacha chet el investorlarini jalb etishda o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmayotganidan dalolat beradi.

Biz o'ylaymizki zamonaviy bosqichda har bir mintaqada imkoniyati va xususiyatlariga bog'liq ravishda muayyan iqtisodiy masalarni hal qilishda turli yondashuvlar juda muhim. Faqatgina mamlakatning barcha tabiiy-iqtisodiy, demografik, ekologik va boshqa sharoitlari hamda xo'jalik subyektlari joylashuvi va boshqa xususiyatlarining har tomonlama hisobga olinishi mintaqada iqtisodiyotini oqilona rivojlantirish orqali iqtisodiyotni ko'tarish kabi asosiy masalalarni hal qilish imkoniyatini beradi.

Iqtisodiy aloqalarning eng muhim shakllaridan biri bu – maxsus iqtisodiy hududlardir. Ular TIF(tashqi iqtisodiy faoliyat)ni davlat tomonidan nazorat qilishning alohida ko'rinishidir.

Tarixdan ma'lumki, erkin tadbirkorlik, savdo va hunarmandchilik g'oyalari eramizdan oldingi asrlarda ham amalga oshirilgan. Masalan, finikiyalik qadimgi greklar va rimliklar xalqaro savdoga ko'maklashgan holda, xorijiy kemalarga o'z portlariga kirishda erkinlik va xavfsizlikni kafolatlashgan. Keyinchalik o'rta asrlarda ko'plab Evropa davlatlari o'zlarini "erkin savdo shaharlari" deb e'lon qilishdi. O'sha vaqtning o'zida ham Ganza ittifoqi doirasida bir qator davlatlar (xususan, Gamburg, Bremen, London, Novgorod, Lyubek, Bryugge, Antverpen, Riga, Gdansk) erkin savdo rejimini ta'minlardilar. Shu yerning o'zida savdo va hunarmandchilik uyushmalari shakllanardi. Ular portda turli xil yarmarka va madaniy-xo'jalik tadbirlarini o'tkazishardi. XVI asr boshlarida Lissabon o'zining qulay geografik joylashuvi, portugal dengiz suzuvchilarining shijoati va tadbirkorligi tufayli Evropaning markaziga aylandi.

Turli ma'lumotlarga ko'ra dunyodagi MIHlar soni 1200 dan ortiqdir. Biroq haqiqatda ularning sonini aniqlash qiyin, chunki turli mamlakatda MIH tushunchasi, maqomi va faoliyat ko'rsatish mexanizmi turlichadir. Ularning 400tasi erkin savdo zonalar, 400tasi ilmiy-ishlab chiqarish, 300tasi ishlab chiqarish eksport zonalar,

100tasi offshor markazlari, rekreatsiya, ekologik-iqtisodiy va turistik zonalardan iborat. G'arb mutaxassislari fikriga ko'ra, 2001-yilda bu hududlardan jahon tovar aylanmasining 50%i o'tgan.

Muallif fikricha MIZ joylashishi uchun qulay hududlar boshqa mamlakatlarga nisbatan chegarada joylashgan hamda dengiz savdo bandargohlari va magistral transport tarmoqlariga ega bo'ladi. Alohida hollarda rivojlanmagan sanoat, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo'lgan yangi xo'jalik o'zlashtirish hududlarida ham MIZ tuziladi. MIZlar hatto uzoq muddatli yirik umumdavlat dasturlarini yechishga qaratilgan (mamlakat yoqilg'i-energetika va mineral-xom ashyo bazasini mustahkamlash).

MIZlarda beriladigan imtiyoz turlari quyidagicha bo'lishi lozim:

- 1) moliyaviy imtiyozlar – subsidiya, imtiyozli kreditlar, arzon ijara xaqi;
- 2) soliq imtiyozlari – jadallashtirilgan amortizatsiya, qayta investitsiya soliq solmaslik, daromad solig'iga imtiyozlar;
- 3) ma'muriy imtiyozlar – ro'yxatdan o'tkazish va bojxona muolajalarini yengillashtirish, alohida viza rejimi, qulay infratuzilma bilan ta'minlash;
- 4) tashqi savdo imtiyozlari – eksport-import bojlarini qisqartirish, tovarlar eksportini kvotalar va litsenziyalardan ozod qilish.

Bularning barchasi turli xildagi talqinlar uchun keng ko'lam yaratadi: ba'zi mualliflarning fikricha, MIZning 25-30 turi mavjud, boshqalari esa 10-15 va undan ham kam turlari bor deyishadi. Biroq har qanday holatda ham ularni turlarga ajratish, bir nechta yaqin turlarini guruhlash juda muhim.

Birinchi guruhni savdo EIHLari tashkil etadi. Bu eng avval paydo bo'lgan EIHLardan biridir(XVI-XVII asrlarda paydo bo'lgan). Unga erkin bojxona hududlari, savdo-saqlash hududlari, erkin portlar, birinchi navbatda esa eng keng tarqalgan ESH (erkin savdo hududlari) kiradi. ESH dengiz portlari yoki aeroportlar hududida yoki bevosita ularga yaqin joylarda tashkil qilinadi. Ular bojxona eksterritorialligidan foydalanishadi: ularda saqlanayotgan va sotilayotgan mahsulotlar oddiy bojxona tekshiruvidan o'tkazilmaydi. ESHlaridan biri sifatida "Dyuti fri" (Duty free – boj to'lanmaydigan) magazinlari tilga olinadi. Ular ko'p

xalqaro aeroportlarning zaruriy ashyosiga aylangan bojsiz savdo qilish huquqidan foydalanadi.

Ikkinchi guruhga sanoat ishlab chiqarish EIHLari kiradi va ularning bir qancha turlari mavjud. Bu guruh EIHLarini eksport va importga ixtisoslashgan ikki bo'limga ajratish mumkin. Ulardan birinchisi tashqi bozorda, ikkinchisi esa ichki bozorda faoliyat yuritadi. Eksport–ishlab chiqarish hududlari ancha ko'p bo'lganligi uchun ular EIH ikkinchi guruhining asosiy qismini tashkil qiladi. ESHlaridan farqli ravishda eksport-ishlab chiqarish hududlari birinchi o'rinda mamlakatning eksport salohiyatini va mos ravishda valyuta tushumlarini oshirishga mo'ljallangan. Bunday hududga misol sifatida Irlandiyada tashkil qilingan Shennon EICHH ni keltirish mumkin.

Ularning ba'zi birlari ESHni o'zgartirish asosida paydo bo'lgan, lekin ko'p qismi eksportga yo'nalganlik asosida shakllangan. Bunday hududlar uchun yig'ish korxonalari mavjudligi xosdir. Suningdek, bunday turdagi hududlardan yana biri Meksikada tashkil qilingan makiladoraslardir. Makiladoraslar dastlab 1965 yilda tashkil etilgan va ularning asosiy maqsadi AQSHlar ishlab chiqaruvchilarini Meksikaning arzon xom-ashyo hamda ishchi kuchiga ega bo'lgan chegara hududlariga jalb qilish va shu hududlarda eksport-ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'lgan.

Uchinchi guruhni ilmiy-texnologik (texnik-joriy etish) MIHLar tashkil etib, ularda milliy va chet el loyiha, izlanish, ilmiy-ishlab chiqarish, shuningdek, yagona soliq va moliya tizimi imtiyozlaridan yagona foydalanadigan firmalar mujassam etadi. Bunday MIHLarning vazifasi yangi texnologiyalarni mahalliy amaliyotga kiritish va ishlab chiqishdan iborat. Ular innovatsion va ilmiy markazlar, ilmiy, izlanish parklari, texnoparklar xususiyatlariga ega. Bunday hududlar dastlab AQSh da 70-yillarda paydo bo'lgan. Misol uchun, Santa – Klara shahri yaqinida joylashgan Silikon Vodiysi AQShnin eng yirik ilmiy-texnologik hududi hisoblanib, bu hududda butun dunyoda ishlab chiqariladigan kompyuter va kompyuter qurilmalarining 20% ishlab chiqariladi.

To'rtinchi guruh xizmat MIZlaridan iborat bo'lib, asosan moliyaviy, shuningdek, boshqa turli xildagi xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan firma va tashkilotlarga imtiyozli sharoitlar yaratib beradi. Ular orasida offshor hududlar, moliyaviy markazlar, bank, turistik va boshqa xizmatlarni ko'rsatish markazlari farqlanadi. Bunday hududlarga misol sifatida Panama, Beliz, Gibraltar va Singapurda joylashgan offshore hududlarni keltirishimiz mumkin.

Offshor hududlar ESH dan farqlanadi. Chunki ESH hududlarida soliq va boshqa imtiyozlar hududdagi barcha korxonalariga berilsa, offshor hududlarda bunday imtiyozlar faqatgina bu territoriyadan tashqari hududda faoliyat ko'rsatadigan korxonalariga beriladi. Offshor markazlarida jahon depozitlarning 1\3 qismi jamlangan bo'lib, ularning hajmi 2005 yilda butunjahon tovar aylanmasining 17% foizini tashkil etgan.

Beshinchi guruhni kompleks MIZlar tashkil etadi. Ular tor ixtisoslashuvga ega emas, eksport-import, ishlab chiqarish va innovatsion faoliyatning turli tomonlarini qamrab oladi, shuning uchun ularning ichki tizimi hammasidan ko'ra murakkabroq. Qoida bo'yicha kompleks MIZlar maydoni bo'yicha ham boshqalaridan yirik. Ular butun bir tuman, ma'muriy viloyat, ba'zi hollarda esa bundan ham katta mintaqa hududlarini egallashi mumkin. Brazilyada tashkil etilgan "Manaus" kompleks MIZ bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu hudud 1967 yilda tashkil qilingan bo'lib, 13 mlrd.dan ortiq investitsiyalarni jalb qilgani holda, ishlab chiqarishning 30 ortiq turlari, 600 dan ortiq korxonalarini va 80 mingdan ortiq ishchilarni o'zida mujassam etadi.

Nihoyat, oltinchi guruhga xalqaro MIZlarni kiritish mumkin. Bu guruh nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. Bunday hududlar ikki va undan ortiq mamlakatlar chegaralarida joylashgan tumanlarda xususiy firmalar, shuningdek, mamlakatlar ishtirokida tashkil etiladi. Xalqaro MIHning yorqin misoli sifatida Rossiya, Xitoy, KXDR chegaralarida joylashgan Tumangan hududini ko'rsatsa bo'ladi. Tumangan loyihasida Tumangan (Tumintszyan) daryo irmog'ida yangi port shaharga ega bo'lgan, maydoni 1000 km² ga teng maxsus xalqaro iqtisodiy hududni tashkil etish ko'zda tutiladi. Bu loyiha 20yil muddatga mo'ljallangan bo'lib, 90-110 mlrd. AQSh

dollari miqdorida sarmoyani nazarda tutadi. Loyihani amalga oshirish uchun mamlakatlar o'rtasida mos bitimlar tuzilgan. Bu loyiha Xitoy uchun yangi ish o'rinlarini yaratish hamda Yapon dengiziga chiqish inkonini beradi. Bu hudud yopiq iqtisodiyoti bilan ma'lum bo'lgan KXDRga ko'p tomonlama bitimlarda ishtirok etish imkonini beradi. Rossiya bunda ilmiy mahsulot va xizmatlar sohasida Osiyo-Tinch okeani hududidagi mamlakatlar bilan o'z iqtisodiy aloqalarini chuqurlashtirishi mumkin. Shuningdek, bu loyiha Yaponiya va Koreya Respublikasida ham katta qiziqish uyg'otadi. Biroq, siyosiy va iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan ba'zi bir omillar bu loyihani amalga oshirishda to'sqinlik qiladi.


Shuni qo'shimcha qilish kerakki, eksport-iqtisodiy hududlarni sinflarga bo'lishda mualliflar ularni ketma-ket avlod sifatida ajratishga harakat qilishdi. Odatda, birinchi avlodga ESHlarini, ikkinchi avlodga – eksport-ishlab chiqarish hududlarini, uchinchi avlodga texnik-innovatsion va xizmat hududlari kiradi. To'rtinchi avlod MIHga taalluqli dastlabki g'oyalar ham paydo bo'lgan.

MIZda korxonalar yoki umuman soliqdan ozod qilingan, yoki turli soliq imtiyozlari kafolatlangan bo'ladi. Undan tashqari, korxonalarining ro'yxatdan o'tkazilishi osonlashtiriladi.

Umuman olganda muallifning fikricha MIZlar nafaqat gorizontal (ya'ni hududiy), balki vertikal (ya'ni tarmoqli) faoliyat ko'rsatadi. Birinchi holda MIZ cheklangan maydonga ega bo'ladi, ammo shuni ham qayd etish lozimki, ba'zan butun mamlakat MIZga aylanishi mumkin. Shunday, xorijiy investorlar, qo'shma korxonalar, o'rta va kichik biznes uchun imtiyozlar yaratayotganda, hukumat ba'zan mamlakatda "mikroMIHlar" tashkil qilayotganini anglamaydi. Bu MIZlar tor ixtisoslikdagi masalalarni hal etadilar, biroq makroiqtisodiy vaziyatga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydilar. Ikkinchi holda, muayyan tarmoqning ba'zi korxonalari hamda shu tarmoqning o'zi (masalan, qishloq xo'jaligi, oltin qazib olish, mashinasozlik) ham faqatgina ularning faoliyatiga tegishli bo'ladigan imtiyozlarga ega bo'ladi: O'zbekiston uchun deylik, bu turizm bo'lishi mumkin.

Umuman olganda muallif fikriga ko'ra O'zbekiston MIZ larining asosiy faoliyat yo'nalishi bu sanoat mahsuloti ishlab chiqarishdir. Ularda, asosan, rezina va


plastmassa buyumlar, metallurgiya sohasi, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar, kimyo mahsulotlari, avtotransport vositalari, nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarish yaxshi yoʻlga qoʻyilgan



3.2-rasm. Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni⁷⁷

Quyidagi 3.2-rasm 3.2. da 2022-yilda MIZ lardagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot turlarini umumiyga nisbatan foiz ko'rsatkichlarini ko'rishimiz mumkin. Muallif fikricha shuni ko'rishimiz mumkinki hududlar kesimida eng salmoqli ko'rsatkich Toshkent shahrida ekanligini takidlashimiz zarur. Buning birgina sababi bilamizki Toshkent shahrida ish haqlari nisbattan yuqori va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan mavjud muammolar kam uchraydi. 2022-yilda xorijiy kapitallar ishtirokida xizmat ko'rsatayotgan hududlar ichida 2-o'rinda Samarqand viloyati 1334 tani tashkil qilmoqda. 3-o'rinda Surxondaryo viloyati 446 ta bilan pechqadamlik qilgan.

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



3.3-rasm. 2022-yil yanvar-dekabr oylarida MIZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot turlari, % da

Manba:⁷⁸ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining MIZ ,KSZ, klasterlar faoliyati bo‘yicha 2022-yil yanvar-dekabr ma‘lumotlari

Ammo sanoat ishlab chiqarish hajmida MIZning sanoat mahsuloti ulushi 1 foizdan kamni tashkil etadi va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 22 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismi eksport qilinadi. Xorijiy mamlakatlarda ushbu zonalardan mahsulotlar eksporti 40-60% ni tashkil qilmoqda.

EIZning vazifalaridan biri eksportni rivojlantirish va mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash bo‘yicha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish bo‘lishiga qaramay, amalga oshirilayotgan loyihalarning tahlili ushbu vazifaning etarli darajada bajarilmaganligidan dalolat beradi. Bugungi kunga kelib, 21 ta EIZdan faqat 12 ta EIZda tashqi iqtisodiy faoliyat olib borilmoqda. Quyidagi xususiyatlar O‘zbekiston Respublikasi EIZ uchun xarakterlidir:⁷⁹

tashqi iqtisodiy aylanmaning salbiy saldosi;

- EIZ korxonalari mahsulotlarining mamlakat YaIM tarkibidagi ahamiyatsiz ulushi (1 foizdan kam);

⁷⁸ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining MIZ ,KSZ, klasterlar faoliyati bo‘yicha 2022-yil yanvar-dekabr ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

⁷⁹ Shavkatov A. “Свободные экономические зоны – основная площадка для привлечения инвестиций и развития экспортного потенциала”. Maqola – mineconomy.uz rasmiy saytida e‘lon qilingan

- eksportning past hajmi;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning past raqobatdoshligi;
- asosan MDH davlatlariga eksportga yo'naltirish;
- ishlab chiqarish va shunga muvofiq eksportning past diversifikatsiyasi

Ilova 9 da oxirgi 3 yilda O'zbekiston EIZ larining eksport ko'rsatkichlari berilgan.

Bizning tadqiqotimizga ko'ra 2022-yil yakunlarida O'zbekiston yalpi eksport hajmi qariyb 12 697,8 mln.doll.ga teng bo'lgan bo'lsa, shundan 257 mln.doll.i MIZ lar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, mamlakat eksportining qariyb 5 foizini tashkil etadi.

3.3. O'zbekiston MIZ lari eksport ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillar regeression tahlili

O'zbekiston maxsus iqtisodiy zonalarida amalga oshirilgan eksport hajmiga makroiqtisodiy omillarning ta'sirini aniqlash maqsadida quyidagicha model yaratamiz:

Quyidagi ekonometrik model (MIZ lar eksport hajmi (choraklik), YaIM deflyatori, YaIM hajmi, TTXI hajmi) O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va sanoat savdo vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.(10-ilova)

$$Y = \beta_0 + \beta_1 * x_1 + \beta_2 * x_2 + \beta_3 * x_3$$

Barcha prediktorlarni asoslab chiqamiz.

Y = MIZ eksport hajmi;

x_1 = YaIM deflyatori (inflyatsiya) ;

x_2 = YaIM hajmi;

x_3 = TTXI hajmi;

$\beta_0, \beta_1, \beta_2, \beta_3$ - modelning baholanuvchi parametrlari.

Masalaning ekonometrik modeli quyidagicha:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 * x_1 + \beta_2 * x_2 + \beta_3 * x_3 + \varepsilon$$

ε - tasodifiy xatolik.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda **R** programmasidan foydalanamiz. Ekonometrik model uchun ma'lumotlar Ilova 10 da berilgan.

Ko'rsatkichlar asosidagi dastlabki xulosa quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

3.2-jadval

Ko'rsatkichlarning xususiyatlari

SEZexport	inflation	GDP	FDI
Min. :10.00	Min. :0.1000	Min. : 8901	Min. : 1.7
1st Qu.:15.25	1st Qu.:0.1450	1st Qu.:12691	1st Qu.:197.8
Median :43.00	Median :0.1850	Median :14335	Median :399.0
Mean :40.33	Mean :0.1981	Mean :13785	Mean :389.1
3rd Qu.:54.25	3rd Qu.:0.2200	3rd Qu.:15396	3rd Qu.:511.2
Max. :81.00	Max. :0.3700	Max. :16119	Max. :832.0

Qayd etish lozimki, dastlabki tahlilda o'zgaruvchlilar o'rtasidagi bog'lanish darajasini aniqlash (korrelyatsion matritsani qurish va o'zgaruvchilar sifatini baholash) muhim ahamiyatga ega. Quyida barcha o'zgaruvchilar ishtirokidagi korrelyatsiya matritsasi berilgan.

3.3-jadval

Korrelyatsiya matritsasi

	SEZexport	inflation	GDP	FDI
SEZexport	1.0000000	-0.7392261	0.1974210	0.3487582
inflation	-0.7392261	1.0000000	-0.6658305	-0.4044563
GDP	0.1974210	-0.6658305	1.0000000	0.3850429
FDI	0.3487582	-0.4044563	0.3850429	1.0000000

Korrelyatsion jadvaldan ko'rinib turganidek, inflyatsiya darajasi MIZ eksport hajmi (SEZ export) ga kuchli manfiy bog'lanish (-0,732) ga ega. YaIM (GDP) va

TTXI (FDI) ko'rsatkichlari esa MIZ eksport hajmiga sezilarsiz musbat ta'sir ko'rsatgan. Buni Rasm 3.3.1.dan ham ko'rishimiz mumkin.

Endi SEZ eksport hajmiga ta'sir qiluvchi omillardan quyidagicha model yaratamiz:

$$SEZexports = b_0 + b_1 * inflation + b_2 * GDP + b_3 * FDI$$

R dagi ko'p o'zgaruvchili model koeffitsientlarini quyidagicha hisoblash mumkin:

3.4-jadval

Model koeffitsiyentlari

```
lm(formula = SEZexport ~ inflation + GDP + FDI, data = data_sez)

Residuals:
    Min     1Q   Median     3Q     Max
-23.938 -5.931 -4.256  5.952 22.073

Coefficients:
            Estimate Std. Error t value Pr(>|t|)
(Intercept) 1.776e+02  4.822e+01  3.683 0.00619 **
inflation  -2.994e+02  7.314e+01 -4.094 0.00347 **
GDP         -5.995e-03  2.745e-03 -2.184 0.06047 .
FDI          1.197e-02  1.825e-02  0.656 0.53022
---
Signif. codes:  0 '***' 0.001 '**' 0.01 '*' 0.05 '.' 0.1 ' ' 1

Residual standard error: 14.73 on 8 degrees of freedom
Multiple R-squared:  0.7177, Adjusted R-squared:  0.6119
F-statistic: 6.781 on 3 and 8 DF, p-value: 0.01374
```

R-Sq = 71,7%, R-Sq(adj) = 61,19% ga teng bo'lib, bu ko'rsatkich omillarning modelni aniqlab berishdagi ulushini bildiradi. Ko'rinib turganidek,

barcha prediktorlar qatnashgan model MIZ eksport hajmini **71.7 %** ga tushuntirib berishi mumkin . Regressiya tenglamasi orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolik juda kam bo'lib, 14.73 ni tashkil etmoqda.

Koeffitsient β_0 barcha o'zgaruvchilar bir birlikka oshirilgan holatida, y ning o'rtacha qiymatini bildiradi va u 177,6 ga teng.

Misol uchun, YaIM (GDP) va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya (FDI) hajmi o'zgarish bo'lganida, inflyatsiya darajasining 1 foizga oshishi MIZ eksport hajmining o'rtacha 299 ming doll. ga kamayishiga olib kelgan.

Agar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya (FDI) va inflyatsiya darajasi (inflation) o'zgarish bo'lib, YaIM 1 mln. AQSH doll.ga oshirilsa, MIZ eksport hajmi 0,006 mln AQSH doll.ga ko'payishi mumkin.

Agar YaIM (GDP) va inflyatsiya darajasi o'zgarish bo'lib, FDI 1mln. AQSH doll.ga oshirilsa, SEZ eksport hajmi 0,01 mln AQSH doll.ga ko'payishi mumkin.

Ammo o'zgaruvchilarning p-valusini ham inobatga olish lozim. P-qiymat - korrelyatsiya koeffitsiyentining ishonchlilik darajasi. (Ishonchilik darajasi kamida 0,95 bo'lishi kerak, ya'ni $p < 0.05$). Ko'rinib turganidek, faqat inflyatsiyaning p-valuesi 0.05 dan kichik bo'lganligi sababli keyingi bosqichga o'ta oladi. Qolgan omillarning korrelyatsion koeffitsiyentlari juda past bo'lganligidan ya'ni YaIM (GDP) va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya (FDI) ning MIZ eksport hajmiga ta'sir darajasi yuqori emasligidan keyingi bosqichlarda ushbu o'zgaruvchilarni qo'llash ahamiyatsiz.

Va bizda faqat bir omildan tashkil topgan regression model qoladi:
 $Y = \beta_0 + \beta_1 * x_1$.

2-model koeffitsiyentlari Ilova 11 da berilgan.

Va ushbu model o'zgaruvchilarini F-test va t-testdan o'tkazamiz.

F-test regressiya tahlilidagi asosiy statistiklardan biri hisoblanadi. F-test tanlanma regressiya tenglamasi Y o'zgaruvchi dispersiyasining ko'p qismini tushuntira olmaydi, ya'ni $R^2 = 0$ degan nolinch gipotezani tekshirish uchun ishlatiladi.

Nolinchi va Alternativ gipotezalarni quramiz:

H0: $\rho^2 > 0$ (bog'liqlik yo'q)

H1: $\rho^2 = 0$ (hech bo'lmaganda bitta prediktor y ga ta'sir qiladi)

α ahamiyatlilik darajasi uchun hal qiluvchi qoida quyidagicha:

- Agar $F \geq F_{\alpha}(k-1, n-k)$ bo'lsa, u holda H0 rad etiladi va H1 qabul qilinadi.
- Agar $F < F_{\alpha}(k-1, n-k)$ bo'lsa, u holda H0 qabul qilinadi.

Masalamizda $\alpha = 0,05$ ahamiyatlilik darajasi uchun F ning kritik qiymatini topamiz. Bu yerda F ning hisoblangan qiymati $F = 12.05$ ekanligini ko'rish mumkin. F ning kritik qiymati esa $F_{\alpha} = p\text{-value} = 0.00601$ ga teng. Ko'rish mumkinki, $F > F_{\alpha}$, va H0 rad etildi, ya'ni hech bo'lmaganda bitta prediktor y ga ta'sir qiladi.

T-test esa erkli va erksiz o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlikni baholab, beta koeffitsiyentning noldan farqli bo'lishini talab qiladi. Va bu model t - testdan ham o'ta oladi chunki $b_1 = -209$ va bu o'zgaruvchi qatnashgan model SEZ eksport hajmini 54 % ga yoritib bera oladi.

Modelning ko'rinishi quyidagicha:

$$\text{SEZexports} = 81.88 - 209.73 * \text{inflation}$$

Ishonch va bashorat oraliqlari.

confint(modell)		
	2.5 %	97.5 %
(Intercept)	53.1280	110.62735
inflation	-344.3608	-75.10251

97,5 % lik ishonch bilan β_0 va β_1 uchun oraliq quyidagicha:

β_0 (53.1280 ; 110.62735); β_1 (-344.3608; -75.10251)

predict(modell, data.frame (inflation = 0.05))
1
71.39109

Agar inflyatsiya darajasi 5 % bo'lsa, SEZ eksporti 71 mln AQSH doll.gacha oshadi.

Demak keyingi navbatda biz berilgan ma'lumotlar asosida inflyatsiya darajasini yillarda aniqlaymiz.

3.5-jadval

Vaqtli qatorning statsionarligini baholash testi natijalari⁸⁰


Rasshirennyy test Diki-Fullera dlya Y
test. nachinaya s 4 lagov, kriteriy AIC
ob'em vyiborki 11
nulevaya gipoteza edinichnogo kornya: $a = 1$

test bez konstanty
vklyuchaya 0 laga(-ov) dlya (1-L)Y
model: $(1-L)y = (a-1)*y(-1) + e$
osenka dlya (a - 1): -0,0323899
testovaya statistika: $\tau_{nc}(1) = -0,238486$
asimpt. r-znachenie 0,6006
kof. avtokorrelyasii 1-go poryadka dlya e: -0,268

test s konstantoy
vklyuchaya 4 laga(-ov) dlya (1-L)Y
model: $(1-L)y = b_0 + (a-1)*y(-1) + \dots + e$
osenka dlya (a - 1): -0,520741
testovaya statistika: $\tau_c(1) = -1,07595$
asimpt. r-znachenie 0,7275
kof. avtokorrelyasii 1-go poryadka dlya e: -0,080
lag dlya raznostey: $F(4, 1) = 1,264 [0,5761]$

13-jadvalga ko'ra p-qiymat istalgan ahamiyatlilik darajalaridan katta. Shu sababli Y ning birinchi farqlariga o'tildi. Tajribalarda birinchi farqlar statsionarligi ma'lum bo'ldi (3.3.2-rasm).

⁸⁰ Gretlda muallif tomonidan shakllantirilgan.




3.4-rasm. Vaqtli qator statsionar 1-farqlari chizmasi

Birinchi farqlar statsionarligini kengaytirilgan Dikki-Fyuller testi orqali baholash natijalari 3.4-jadvalda berilgan.

3.6-jadval

Kengaytirilgan Dikki-Fyuller testi natijalari

Rasshirennyy test Diki-Fullera dlya d_Y
 test. nachinaya s 3 lagov, kriteriy AIC
 ob'em vyborki 10
 nulevaya gipoteza edinichnogo kornya: $a = 1$
 test bez konstanty
 vklyuchaya 0 laga(-ov) dlya $(1-L)d_Y$
 model: $(1-L)y = (a-1)*y(-1) + e$
 osenka dlya $(a - 1)$: -1,30237
 testovaya statistika: $\tau_{nc}(1) = -4,10326$
 asimpt. r-znachenie 4,22e-05
 koef. avtokorrelyasii 1-go poryadka dlya e: -0,048
 test s konstantoy
 vklyuchaya 3 laga(-ov) dlya $(1-L)d_Y$
 model: $(1-L)y = b_0 + (a-1)*y(-1) + \dots + e$
 osenka dlya $(a - 1)$: -5,83313
 testovaya statistika: $\tau_c(1) = -2,58605$
 asimpt. r-znachenie 0,09583
 koef. avtokorrelyasii 1-go poryadka dlya e: 0,449
 lag dlya raznostey: $F(3, 2) = 1,837 [0,3715]$



3.5-rasm. ACF va PACF korrelogrammalari

Avtokorrelyatsiya (ACF) va xususiy avtokorrelyatsiya (PACF) modelning biror bir tartibiga dalolat qilmadi. Shu sababli bir necha turdagi ARIMA model tartiblarini tajribadan o‘zkazdik. Natijada ARIMA(4,1,2) modeli tuzildi (3.7-jadval).

3.7-jadval

Regression tahlil natijalari⁸¹

Model 1: ARIMA, ispolzovany nablyudeniya 2020:2-2022:4 (T = 11)

Zavisimaya peremennaya: (1-L) Y

Standartnyye oshibki rasschitany na osnove Gessiana

	<i>Koeffisient</i>	<i>St. oshibka</i>	<i>z</i>	<i>p-</i> <i>znachenie</i>	
const	5,49477	0,998500	5,503	<0,0001	***
phi_1	-1,41515	0,124421	-11,37	<0,0001	***
phi_2	-1,39830	0,175626	-7,962	<0,0001	***
phi_3	-1,37154	0,124019	-11,06	<0,0001	***
phi_4	-0,907613	0,0997811	-9,096	<0,0001	***
theta_1	1,04690	0,494307	2,118	0,0342	**
theta_2	0,999997	0,561712	1,780	0,0750	*

Srednee zavis. 3,727273 St. otkl. zavis. perem 20,16973
peremen


⁸¹ Gretlda muallif tomonidan shakllantirilgan.

Srednee innovasiy	-0,241636	St. otkl. innovasiy	5,941570
R-kvadrat	0,927885	Isprav. R-kvadrat	0,855770
Log. pravdopodobie	-40,98594	Krit. Akaike	97,97187
Krit. Shvarsa	101,1550	Krit. Xennana-Kuinna	95,96533

8-jadvaldagi model bo'yicha approksimatsiya xatoligi 14,135% ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, barcha koeffitsientlari 0,1 erkinlik darajasida statistik ahamiyatga ega bo'ldi.

Modelning umumiy ko'rinishi:

$$\Delta^1 y_t = 5,494776 - 1,41515\Delta^1 y_{t-1} - 1,3983\Delta^1 y_{t-2} - 1,37154\Delta^1 y_{t-3} - 0,907613\Delta^1 y_{t-1} + 1,04690e_{t-1} + 0,999997e_{t-2}$$



3.5-rasm. O'zbekiston Respublikasining maxsus iqtisodiy zonalar eksport hajmining 2028 yilgacha prognoz qiymatlari⁸²

3.8-jadval

Prognoz qiymatlar va ishonch intervallari⁸³

Dlya 95% doveritel'nykh intervalov, $z(0,025) = 1,96$			
Nabl.	prognozirovaniye	st. oshibka	95% doveritel'nyy interval
2023:1	61,3138	5,94157	(49,6685, 72,9590)
2023:2	97,8483	7,02794	(84,0738, 111,623)
2023:3	94,3667	8,33619	(78,0281, 110,705)
2023:4	72,5612	8,49578	(55,9098, 89,2126)
2024:1	85,0183	9,23206	(66,9238, 103,113)

⁸² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁸³ Gretlda muallif tomonidan shakllantirilgan.

2024:2	102,974	10,8639	(81,6809, 124,267)
2024:3	126,690	11,3048	(104,533, 148,847)
2024:4	104,204	11,5177	(81,6298, 126,778)
2025:1	100,407	11,5294	(77,8098, 123,004)
2025:2	121,876	13,1253	(96,1505, 147,601)
2025:3	139,596	13,7490	(112,649, 166,544)
2025:4	143,593	13,9322	(116,286, 170,900)
2026:1	120,637	13,9726	(93,2511, 148,023)
2026:2	137,222	14,1362	(109,516, 164,929)
2026:3	157,764	15,6782	(127,035, 188,492)
2026:4	166,839	15,8065	(135,858, 197,819)
2027:1	156,838	15,9171	(125,641, 188,035)
2027:2	148,552	15,9782	(117,235, 179,868)
2027:3	176,649	16,6266	(144,061, 209,237)
2027:4	187,431	17,4362	(153,257, 221,605)
2028:1	186,803	17,4475	(152,607, 221,000)

Demak prognozimiz natijasiga ko‘ra maxsus iqtisodiy zonalarini eksport hajmiga YaIM deflyatorining ta‘sirini ifodalovchi ekonometrik model tuzish orqali MIZ eksport hajmining 2028-yildagi prognoz qiymati inflyatsiya darajasi 17% bo‘lgan holda 186,803 mln aqsh dollarga yetishi mumkinligi hisoblab chiqildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 2020-2022-yillarning choraklik ma‘lumotlar asosida MIZ eksportiga ta‘sir ko‘rsatgan makroiqtisodiy omillarni ko‘rib chiqdik. YaIM (GDP) va TTXI (FDI) y ni asoslab berishida juda kam hissasi bo‘lganligi sababli modeldan chiqarib yuborildi. Inflyatsiya darajasi esa MIZ eksporti kuchli salbiy bog‘langanligi tufayli, ushbu o‘zgaruvchidan iborat modelni qoldiramiz va bu model 54 % gacha MIZ eksportini tushuntirib bera olar ekan. Demak, o‘tgan uch yil mobaynida maxsus iqtisodiy zonalaridagi eksport qilingan mahsulotlarda xorijiy kapital sig‘imkorligi past darajadali ma‘lum bo‘ldi.

III-bob bo‘yicha xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, MIZlar ularning mohiyati, turlari va ularni tashkil qilish bo‘yicha jahon amaliyoti, shuningdek O‘zbekistonda MIZ tashkil

qilishning o'ziga xos tomonlari, mavjud muommolar va kelajakdagi istiqbollar kabi masalalar tahliliga bag'ishlandi.

Maxsus iqtisodiy hududlar asosiy mohiyati mintaqani jadal ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish uchun ichki va tashqi kapitalni, istiqbolli texnologiyalar va boshqaruvga oid tajribalarni jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududlarni anglatadi.

O'zbekiston sharoita MIZlar tashkil qilishga bo'lgan xarakatlar va hozirgi kundagi istiqbolli rejalar juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va ayrim nozik jihatlarni hisobga olgan holda MIZlarning tashkil etilishi kelajakdagi yutuqlarga podevor bo'lib xizmat qiladi. MIZlar tashkil qilishdan turli mamlakatlar turlicha maqsadlarni ko'zlaydilar. 2020-2022-yillarning choraklik ma'lumotlar asosida MIZ eksportiga ta'sir ko'rsatgan makroiqtisodiy omillarni ko'rib chiqdik. YaIM (GDP) va TTXI (FDI) y ni asoslab berishida juda kam hissasi bo'lganligi sababli modeldan chiqarib yuborildi. Inflyatsiya darajasi esa MIZ eksporti kuchli salbiy bog'langanligi tufayli, ushbu o'zgaruvchidan iborat modelni qoldiramiz va prognozimiz natijasiga ko'ra maxsus iqtisodiy zonalari eksport hajmiga YaIM deflyatorining ta'sirini ifodalovchi ekonometrik model tuzish orqali MIZ eksport hajmining 2028-yildagi prognoz qiymati inflyatsiya darajasi 17% bo'lgan holda 186,803 mln aqsh dollarga yetishi mumkinligi hisoblab chiqildi.

XULOSA

Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotdan quyidagi **asosiy xulosalarni** chiqarish mumkin:

1. "Maxsus iqtisodiy zonalar" tushunchasi muayyan hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun yuqori texnologiyalar va ilg'or boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan hudud hamda unda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi jihatidan takomillashtiradi.

2. Hududlarda tashkil etilayotgan maxsus iqtisodiy zonalar uchun muayyan vaqt davomida erishishi lozim bo'lgan iqtisodiy natijalarning mo'ljal ko'rsatkichlarini belgilash hamda tegishli oraliq davrlardagi natijalar asosida maxsus iqtisodiy zonalar bo'yicha imtiyozlar tarkibiga tuzatishlar kiritib borish orqali hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash hamda raqobatbardoshligini oshirishi zarur.

3. Milliy iqtisodiyot rivojlanganligi darajasi va taraqqiyot bosqichlariga muvofiq holda maxsus iqtisodiy zonalarning tadbirkorlik zonalari, hududiy ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologiya va innovatsiyalar, texnoparklar, xizmat ko'rsatish zonalari kabi turlarini tashkil etishning asosiy xususiyat va tamoyillarini belgilash orqali yuqori iqtisodiy samaraga erishish hamda barqaror faoliyatni ta'minlashi lozim.

4. O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalari eksport hajmiga YaIM deflyatorining ta'sirini ifodalovchi ekonometrik modellar asosida maxsus iqtisodiy zonalar eksport hajmining uzoq yillarga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqilsa samaradorligi yuqori bo'ladi.

5. Jahon tajribasidan maxsus iqtisodiy zonalarning yaratilishi va samarali faoliyat olib borishi mamlakatning iqtisodiy o'sishi, ishsizlikning kamayishi, mahalliy xomashyolardan foydalangan holda qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va ular eksportini oshirish, mamlakatning valyuta va to'lov balansini mustahkamlash, ishlab chiqarishga yangi texnika va

texnologiyalarni jalb qilish kabi bir qator ijobiy natijalar ushbu izlanish davomida o'rganilib chiqildi. Agar erkin iqtisodiy zonalar mavjud hududlarda ishlovchilarning ish haqlari o'sa boshlasa, xorijdan investitsiya ko'proq kela boshlasa, ishsizlar soni kamaya boshlasa, bozorda tovar va xizmatlar ko'paya boshlasa maxsus iqtisodiy zona yaxshi samara beradi.

6. Rivojlangan davlatlarda MIZlarni tashkil etishdan asosiy maqsad hududlar faoliyatini iqtisodiy mustahkamlash, ma'lum bir sanoat sohaslararo yoki ba'zi bir xollarda aniq bir korxonalar faoliyatini qo'llab quvvatlash maqsadida tashkil etiladi. Bundan tashqari maxsus iqtisodiy zona yaratish uchun joy tanlanyotgan vaqtda, hududda ishsizlik darajasi va aholining pul daromadlari kabi ko'rsatkichlar o'rganib chiqilishi maqsadga muvofiq.

7. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan davlatlardagi MIZ larning yana bir xususiyati shundaki, ularda xorijiy investitsiyaga emas, balki milliy xususiy kapitalga ustuvorlik berish lozim.

8. Tadbirkorlik hududlari aynan biror bir hudud yoki korxonalar faoliyati uchun imtiyozlar berish orqali hududning rivojiga xissa qo'shishdir va bunday hududlar faqat ichki bozorni qo'llab quvvatlash uchun tashkil etilishi zarur.

9. Rivojlangan davlatlardan farqli ravishda rivojlanyotgan davlatlarda xorijiy kapitalni jalb qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, milliy ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, ishchilar malakasini oshirish va qoloq hududlarni jadal rivojlanuvchi hududlarga aylantirish kabi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

10. Mamlakatning rivojlanmagan qoloq hududlaridagi MIZ larda tadbirkorlar uchun taqdim etiladigan imtiyozlar iqtisodiy rivojlangan hududlardagi MIZ lardan farq qiladi (soliq ta'tillari uzaytirilgan ko'rinishda bo'lishi mumkin). MIZ larni boshqarish ham mahalliy darajaga tushirilganligi, MIZga investitsiya kiritmoqchi yoki qo'shma korxonalar tashkil qilmoqchi bo'lgan chet el investorlari uchun juda qulay. Sababi, barcha masala bitta instansiya orqali hal bo'ladi va ortiqcha vaqt yo'qotilmaydi. "Yagona oyna" tamoyili ham ishlaydi. Loyihani ko'rib chiqish,

korxonani ro'yxatdan o'tkazish va loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa byurokratik protseduralarni ko'rib chiqish 20 kundan oshmasligi kerak.

11. MIZlarga kiritiladigan xorijiy investitsiyalar miqdori kamida 50 mln. AQSH. doll. bo'lishi kerak. MIZ larda o'z ishlab chiqarishini yo'lga qo'ygan korxonalarga berilgan soliq va bojxona imtiyozlaridan tashqari, ustav kapitalida xorijiy rezidentning ulushi kamida 25 % bo'lishi va 100 % xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga ham ruxsat berilishi lozim.

O'zbekiston MIZlarida mavjud muammolar va ularning muqobil yechimlari bo'yicha **takliflar:**

1. Milliy MIZ lardagi ixtisoslashuvning deyarli mavjud emasligi. Yaqin yillarda yaratilgan farmatsevtika bo'yicha erkin iqtisodiy zonalar va turizmga yo'naltirilgan zonadan tashqari qolgan barcha MIZ lar sanoatga yo'naltirilgan. Ammo aynan qanday sanoat sohasi rivojlantirilishi aniqlashtirilmagan. MIZ larni tashkil qilinishida hududning resurs salohiyatidan kelib chiqqan holda aynan bir yo'nalishni kuchliroq rivojlantirishga urg'u berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi;

2. Maxsus iqtisodiy zonalaridagi boshqaruv va nazoratning amalda bir necha darajadan iboratligi va masalalarning tezkor ravishda hal etilmasligi. MIZ larni boshqarish va nazorat qilish masalalari, asosan, regional darajada hal etilishi, ya'ni direksiya hamda ma'muriy kengashning vakolatlari oshirilishi, bu sohada zamonaviy standartlarning ko'rinishi hisoblanadi. Masalan, investitsiya jalb qilish, investitsion loyihalarni ko'rib chiqish, rezidentlikka qabul qilish, yer uchastkalarini ajratish kabi masalalar direksiya tomonidan amalga oshirilishi, ma'muriy kengash tomonidan esa zonani rivojlantirish bilan bog'liq qisqa, uzoq muddatli rejalar ishlab chiqilishi va direksiyaning ushbu rejalar ijrosini amalga oshirishini nazorat qilish vazifasi yuklatilishi lozim. MIZ larni boshqarishda xorijiy tajribaga ega xususiy korxonalarini jalb etish va davlat-xususiy sherikchilikka asoslangan boshqaruv kompaniyalarini ham qo'llab ko'rish maqsadga muvofiq;

3. MIZ lardagi zaruriy infrastruktura bilan ta'minlanganlik va salohiyatli kadrlarning yetishmasligi. Xitoy tajribasidan o'rganilganidek, O'zbekistonda ham xususiy kapital ishtirokidagi boshqaruv kompaniyalariga MIZ boshqaruv vakolati

topshirilsa va zaruriy ichki infrastruktura hamda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish xarajatlari aynan ular tomonidan amalga oshirilishi, davlat tomonidan esa xarajatlarning 25 % iga teng keladigan tashqi infrastrukturani yaratish vazifalari qo'yilishi, kapital qo'yilmalarining samarali qaytishini kafolatlagan bo'lar edi. Shuningdek, tor doirada ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan MIZ lar hududida faoliyatni rivojlantirish bilan bog'liq milliy yoki jahon universitetlari bilan o'zaro hamkorlikda tadqiqot markazlari yoki universitetning ma'lum bir bo'linmalari ochilishi kadrlar bilan bog'liq muammolarni hal etishga yordam bergan bo'lar edi;

4. Deyarli barcha MIZ larda bir xil imtiyoz va rag'abtlarning mavjudligi. Investorlarni respublikaning kam rivojlangan va infrastruktura bilan to'liq ta'minlanmagan hududlariga jalb etish maqsadida ushbu hududlarda tashkil etilgan maxsus iqtisodiy zonalar uchun boshqa MIZ lardan farqli qo'shimcha imtiyozlar yaratilib berilishi lozim (Xitoy MIZ tajribasidan kelib chiqqan holda); Soliq imtiyozlarini amal qilish va hisoblash muddatini MIZ larda tashkil etilgan korxonalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygunlarigacha uzaytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi;

5. MIZ ni bojxona hududidan alohida deb qaralmasligi. Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, MIZ larning bojxona hududidan tashqari hudud deb hisoblanishi ularda eksport ishlab chiqarishni jadal sur'atlarda rivojlantirishga yordam bergan. O'zbekistonda ham aynan eksport ishlab chiqarish uchun MIZ lar tashkil etilishi va buni amaliyotda sinab ko'rish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, ushbu hududda mavjud imtiyozlardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlar mamlakatning boshqa ichki hududlariga odatdagi ravishda boj to'lovlari bilan olib kirilishi respublikaning MIZ bo'lmagan hududlaridagi ishlab chiqaruvchilarni sindirmaydi;

6. Faqat MIZ da imtiyozli faoliyatini amalga oshiradigan bank tizimi, sug'urta kompaniyalari va konsalting markazlari tashkil etilmagan. Korxonalariga imtiyozli kreditlar berish bilan MIZ hududida yangi texnologiyalarni joriy etish

orqali ishlab chiqarishning o'sishi va mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishiga erishiladi;

7. MIZ rasmiy internet saytlari to'liq ma'lumotlarga ega emas . MIZ rasmiy saytlari orqali ko'plab investorlar yaratilgan imkoniyatlar, hududdagi yangiliklar to'g'risida ma'lumot olishlari uchun xorij tillarida ham yuritilishi, shuningdek, ma'lumotlar doimiy ravishda yangilanib turilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

a) Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining “ Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida” Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida” 2008-yil 2-dekabrda, PF-4059-son Farmoni;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Angren" erkin iqtisodiy zonasini barpo etish to'g'risida” 2012-yil 13-aprelda PF-4436-son Farmoni;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ “Urgut”, “G'ijduvon”, “Qo'qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida” 2017-yil 12-yanvarda, PF-4931-son Farmoni;
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ “Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo'stonliq-farm” va “Parkent-farm” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida” 2017-yil 3-mayda, PF-5032-son Farmoni;
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2017-yil 25-oktyabrda PQ-3356-son qarori;
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sirdaryo" erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 12-aprelda, PF-5412-son Farmoni;
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 21-dekabrda, PF-5600-son Farmoni;
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “ “Angren” erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2012-yil 29-mayda 146-son qarori;

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “ Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2016-yil 29-dekabrda 418-son qarori;

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2017—2022 yillarda “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Xazarasp” erkin iqtisodiy zonalarining transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 2-iyundagi 341-son qarori;

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2017 — 2022 yillarda “Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq-farm” va “Parkent-farm” erkin iqtisodiy zonalarida transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ishlab chiqarish infratuzilmalarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 2-sentyabrdagi 691-son qarori;

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017 yil 25 oktabrdagi PQ-3356-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2018-yil 16-yanvardagi 29-son qarori.

b) Maxsus adabiyotlar:

1. U.S. International Trade Administration. “U.S. Foreign-Trade Zones”. 2013;

2. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti. “Состояния и перспективы свободных экономических зон в Узбекистане”. Analitik hisobot. – Toshkent, 2015;

3. Jahon banki “Maxsus iqtisodiy zonalar: faoliyati, orttirilgan tajriba va hudud rivojida o‘rni” (“Special Economic Zones: Performance, Lessons Learned, and Implications for Zone Development”) nomli hisoboti, 2022;

4. UNCTAD , “World Investment Report 2022” (“Jahon investitsiyalari to‘g‘risidagi hisobot”);

5. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), “Об актуальных проблемах развития свободных экономических зон в Республике Узбекистан”, 2018;
6. Xujamkulov D.Y. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. Toshkent – Iqtisodiyot , 2022;
7. United Nations ESCAP, Establishing Science and Technology Parks: A Reference Guidebook for Policymakers in Asia and the Pacific, Analitik hisobot, UN Publication, 2022;
8. Congressional Research Service. U.S. Foreign-Trade Zones: Background and Issues for Congress. Hisobot, 2022;
9. China Development Bank, Zones Experience Gained in the Development of China’s Special Economic Zones, Analitik hisobot, 2022;
10. Osiyo Taraqqiyot banki, “Диагностическое исследование специальных экономических зон и индустриальных зон Казахстана” , 2018
11. Qozog‘iston Respublikasi Parlament Senati , «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Казахстан по вопросам специальных экономических и индустриальных зон, привлечения инвестиций, развития и продвижения экспорта, а также социального обеспечения» Qonuni proyekti uchun analitik-informatsion tahlili, 2022;
12. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi hisoboti “Оценка эффективности свободных экономических зон (СЭЗ) в Узбекистане : законодательные, инвестиционные, экономические, социальные и экологические аспекты” Toshkent – 2018.
13. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining MIZ, KSZ, klasterlar faoliyati bo‘yicha 2020-2022 yil yanvar-dekabr ma‘lumotlari.
14. Mirzalieva S."Erkin iqtisodiy zonalar asosiy yo‘nalishlari va tamoyillari" avgust 1999y.
15. Авдокушин Е.Ф. Свободные (специальные) экономические зоны.М.2006.
16. Александрова Е. «Специальные экономические зоны в мировом хозяйстве/Внеэкономическая деятельность» №10, 1997г

17. Данко.,Т.П.Окрут.З.М.Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве.М:ИНФРА-М,1998. С.120
18. Друзик Я.С.. “Свободные экономические зоны”, Мн: 2000г;
19. Игнатов В., Бутов В. “Свободные экономические зоны”, М: 1997г;
20. Зименков Р. «Свободные экономические зоны», Российский экономический журнал №3, 1998г;
21. “Свободные экономические зоны”, В.П. МАКСАКОВСКИЙ Савин В.А. Свободные экономические зоны в Китае. Международный бизнес России, 2005.
22. Мировая экономика: учебник / под ред. А. С. Булатова. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Экономист, 2007.
23. А.П.Градов, Б.И.Кузин, М.Д.Медников, А.С.Соколицын. Региональная экономика // —СПб.: Питер, 2003.—222 с.:ил. (Серия «учебник для вузов»)
24. В.Е.Рыбалкин, Ю.А.Щербанин, Л.В.Балдин и др. Международные экономические отношения: Учебник для вузов // 4-ое изд., перераб. и доп. -М. :ЮНИТИ-ДАНА, 2003.
25. Савин В.А. Свободные экономические зоны в Китае // Международный бизнес России, 1995.№ 12.
26. В. П. Максаковский «Географическая картина мира», част 1, Ярославл, Верхне Волжское книжное издательство, 1996

с) Илmiy maqolalar:

1. Hamdamov M., Xudoynazarova N. “Xitoy Xalq Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari”, 2015;
2. Rashidov M.K. ‘Erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini baholash mezonlari’ . Iqtisod va moliya, № 12, 2012;
3. Qoraboyev SH.A., Inamova G.A. va bshq. “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish masalalari”, 2018;

4. Василев А.Н.,Щукина А.Я., Анализ эффективности деятельности СЭЗ в России. Вестник Волжского университета имени В.Н. Татищева № 1, том 2, 2022;

5. Акрамов А.У. “Анализ опыта функционирования свободных экономических зон России и Китая и возможности его использования в Узбекистане” - Экономика Центральной Азии,№3, 2017;

6. Shavkatov A. “Свободные экономические зоны – основная площадка для привлечения инвестиций и развития экспортного потенциала”;

7. Karimkulov J. “ Free economic zones: its essence and development in the example of foreign experience”, 2017;

8. Rashidov M.K. , Vakoev H.N. , “ Econometric analysis of indicators of efficiency of free economic zones”, 2022;

9. Капустина Е.С., “Оценка эффективности функционирования особых экономических зон в России “, 2012;

10. Баландина А.С. “Зарубежный опыт создания особых экономических зон в развитых странах”, 2016;

11. Вохидова М.Х., “Создание особых экономических – перспективное направление государственного стимулирования экономики в Узбекистане” , 2016.

12. François B. “Special economic zones:methodological issues and definition”, Maqola. – Transnational Corporations, №2, 2022.

d) Dissertatsiya va avtoreferatlar:

1. Асадова Н.А., “Необходимость и особенности создания свободных экономических зон в Азербайджане”, 2022;

2. Radoslaw P., “Special Economic Zones effectiveness assessment based on the adjusted enclave model.The Case of Poland”;

3. Назирова С.С., “Свободные экономические зоны (СЭЗ) как инструмент привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику”, 2016;

4. Ван Ч., Полоник С.С., “Современная экономика Китая”, 2016.

5. Ven S., “Special Economic Zones as a Tool for Accelerating Economic Growth” , 2018.

e) Internet resurslar:

1) O‘zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarining rasmiy sayti www.sez.gov.uz;

2) O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo vazirligi huzuridagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi rasmiy sayti www.invest.gov.uz;

3) “Navoiy” EIZ rasmiy sayti www.feznaveoi.uz;

4) “Angren” EIZ rasmiy sayti www.fez.uz;

5) “Jizzax” EIZ rasmiy sayti www.jizzakhfez.uz;

6) “Namangan” EIZ rasmiy sayti www.namfez.uz;

7) “Nukus” EIZ rasmiy sayti www.nukus.feiz;

8) Qozog‘iston Respublikasi sanoat va infrastrukturani rivojlantirish vazirligi rasmiy sayti www.gov.kz;

9) Центр деловой информации Капитал www.kapital.kz;

10) Trendeconomy.ru;

11) “Los Anjeles porti” rasmiy sayti www.portoflosangeles.org/;

12) Davlat stati

13) stika qo‘mitasi rasmiy sayti www.stat.uz

ILOVALAR

Ilova 1

**Erkin zonalar va maxsus iqtisodiy zonalarining asosiy geografik hududlar bo'yicha taqsimoti
(2021 yil)**

	Erkin zonalar soni	%	MIZ soni	%
Dunyo bo'yicha	2296	100	5383	100
Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar	295	12,9	374	7
<i>AQSH</i>	191	8,3	262	4,7
<i>Yevropa</i>	85	3,7	105	2
Iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar	1869	81,4	4772	88,6
Afrika	215	9,4	237	4,4
Osiyo	1196	52	4046	75
<i>Filippin</i>	385	16,8	528	9,8
<i>Xitoy</i>	135	5,9	2543	47,2
<i>Malayziya</i>	45	2	45	0,83
<i>Hindiston</i>	231	10	373	7
<i>Birlashgan Arab Amirliklari</i>	47	2	47	0,9
Okeaniya	1	0,04	3	0,05
Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari	457	19,9	486	9
<i>Kolumbiya</i>	101	4,4	101	
<i>Dominika Respublikasi</i>	71	3,1	73	1,3
O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari	132	5,7	237	4,4
<i>Rossiya</i>	39	1,7	130	2,4

Manba: UNCTAD, World Investment Report ,2021

Xitoy MIZ laridagi imtiyozlar

Qo'llanilish sohalari	Tavsifi
Soliq	<p>5 yil davomida “ soliq ta'tillari”: dastlabki 2 yil davomida daromad solig'i to'lanmaydi. Keyingi 3 yil davomida soliqning 50 % i to'lanadi. MIZ rezidentlari uchun foyda solig'i 15 % (boshqa hududlar uchun 33 %) dan boshlangan, hozirgi kunda qat'iy 25 %.</p> <p>Savdo, qayta ishlash va import-eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi MIZ rezidentlari uchun QQS 17 %.</p>
Moliyaviy	<p>Valyuta siyosatining liberalashtirilganligi;</p> <p>Chegarasiz miqdorda foyda repatriatsiyasi</p>
Administrativ boshqaruv	<p>Rivojlangan infrastruktura;</p> <p>Mahalliy rejalashtirish organlarining nisbiy mustaqilligi bilan ma'muriy qoidalarni soddalashtirish;</p> <p>Viloyat va markaziy darajadagi rejalashtirish tuzilmalariga to'g'ridan-to'g'ri aloqaga chiqa olish;</p> <p>MIZ rezidentlari yer, suv, elektr energiya, gaz, internet, bino ijarasi kabi to'lovlardan to'liq yoki qisman ozod etiladi.</p>
Tashqi savdo siyosati	<p>Pasaytirilgan yoki umuman yo'q qilingan bojxona bojlari;</p> <p>Bojxona zonalariga hech qanday bojxona to'lovlarini to'lamasdan mahsulotlarni olib kirish mumkin;</p> <p>Ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan qurilish materiallari, detallar va uskunalardan boj to'lovidan ozod.</p> <p>Import kvotalarining mavjud emasligi;</p>
Ichki bozor	<p>Zonada ishlab chiqarilgan tovarlarning ichki bozorga kirib kelishi muvofiq tarzda chegaralanganligi</p>

Xitoy maxsus iqtisodiy zonalari tavsifi

MIZ nomi	Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni	Ixtisoslashuvi	Kiritilgan xorijiy investitsiyalar manbasi
Shantou	3000 dan ortiq	Neft-kimyo , tekstil, poyafzal va elektronika, agrosanoat	Kiritilgan 95 % xorijiy investitsiyalar Gonkong, Tayvan va Singapurga tegishli
Shenjen	17500 dan ortiq	Yadro energetikasi, elektronika, mashinasozlik, yuqori texnologiyalar va turli xizmatlar	Kiritilgan 85 % xorijiy investitsiya Gonkongga tegishli
Chjuxay	5000 dan ortiq	Og'ir sanoat, elektronika, dengiz va yo'l qurilishi, turizm va boshqa xizmatlar	Kiritilgan 80 % xorijiy investitsiyalar Gonkong, Makao, Tayvan va Singapurga tegishli
Syamen	4150 dan ortiq	Elektronika, tekstil, oziq-ovqat sanoati, kimyo sanoati va turizm	Kiritilgan 80% xorijiy investitsiyalar Tayvanga tegishli
Xaynan	7320 dan ortiq	Elektronika, telekommunikatsiya va yuqori texnologiya	Jami xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi shartnomalar 22,3 mlrd. AQSH doll.

Qozog'iston MIZ laridagi imtiyozlar tavsifi

Xususiyatlar	Maxsus iqtisodiy zonalar
Soliq imtiyozlari:	
Import tariflari	Import qilinadigan mahsulotlar bo'yicha belgilangan tariflardan ozod qilish (Evroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatdagi boshqa MIZga eksport qilinganda yoki MIZda eksport uchun mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilganda)
Eksport tariflari	Preferensial rejim yo'q
Boshqa bojxona yig'implari	Preferensial rejim yo'q
QQS (standart stavka 12 foiz)	ozod qilingan (MIZni tashkil etish maqsadlaridan kelib chiqib, o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida to'liq iste'mol qilingan tovarlar uchun)
Yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i (standart stavka 20 foiz)	ozod qilingan
Mulk solig'i	ozod qilingan
Yer solig'i	ozod qilingan
Yerdan foydalangalik uchun soliq	ozod qilingan
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (standart stavka 10 foiz)	Preferensial rejim yo'q
Soliqsiz imtiyozlar:	
Davlat organlarining moliyaviy bo'lmagan inyeksiyalari	MIZ tugatilgandan so'ng yerlarni infratrakturasi bilan birga sotib olish huquqi
Mahalliy iqtisodiyot bilan bog'liqliklar	MIZda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi ichki bozorga yo'naltiriladi. Shuningdek, "Innovatsion texnologiyalar parki" Qozog'istondagi ta'lim muassasalari bilan aloqalari mavjud
Boshqaruv kompaniyasi: davlat yoki xususiy	Boshqaruv kompaniyasi xususiy, ammo davlat aksiyador hisoblanadi
Infrastruktura bilan ta'minlash	Davlat infrastruktura obyektlari bilan ta'minlaydi

Qozog'iston MIZ larini boshqaruvchi kompaniyalar


MIZ nomi	Tashkil etilgan yil	Maydoni (ga)	Boshqaruvchi kompaniya
“Astana – yangi shahar”	2001	7634	Viloyat akimati
“Oqtou”	2002	2000	Viloyat akimati
“Xorgos-sharqiy darvozalar”	2011	5740	“Qozog'iston temir yo'li”
“Milliy neft-kimyoo sanoat texnoparki”	2007	3475	Energetika vazirligi (97,5 % aksiya) 2018-yilgacha; “Birlashgan kimyoviy kompaniyalar” (2,5 %) “Samruk-kazina” Fondi
“Sariyarka”	2011	535	Viloyat akimati
“ Taraz kimyo parki”	2012	505	“Birlashgan kimyoviy kompaniyalar”
“Pavlodar”	2012	3300	
“Innovatsion texnologiyalar parki”	2003	163	Investitsiya va taraqqiyot vazirligi;
“Ontustik”	2005	200	Viloyat akimati
“Xorgos – chegaraviy hamkorlik xalqaro markazi”	2017	492	“Qozog'iston temir yo'li”
“ Ostona texnopolis”	2017	584	Nur-Sultan shahar akimati
“Turkiston”	2018	1338	Turkistan shahar akimati

№	MIZ nomi	Maydoni (ga)	MIZ larning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari
1.	“Navoiy” EIZ (2008)	Butun viloyat	<ul style="list-style-type: none"> • Zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnikani, texnologiya liniyalari va modullarni, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardoshli mahsulotlarning keng doirasini ishlab chiqarish.
2.	“Angren” EIZ (2012)	4125	<ul style="list-style-type: none"> • Ichki va jahon bozorlarida raqobatbardoshli bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni barpo etish va ularning samarali faoliyat yuritishi uchun investitsiyalar, eng avvalo to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish borasida qulay shart-sharoitlarni shakllantirish; • Erkin iqtisodiy zonaga kiruvchi mintaqaning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta‘minlash, mineral-xomashyo resurslarini yanada chuqur qayta ishlash bo‘yicha yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish, hududda yangi ish o‘rinlarini yaratish.
3.	“Jizzax” EIZ (2013)	574,8	<ul style="list-style-type: none"> • Ichki va jahon bozorlarida raqobatbardoshli bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega

Maxsus iqtisodiy zonalardagi investitsiya loyihalari to'g'risida ma'lumot

№	EIZ nomi	Amalga oshirilgan loyihalar				Amalga oshirilayotgan loyihalar			
		So ni	Qiymat i (mln.d oll.)	Shund an, TTXI	Yaratil gan ish o'rinlar i	So ni	Qiymat i (mln.d oll.)	Shund an, TTXI	Yaratil gan ish o'rinlar i
1.	“Navoiy” EIZ	41	206.6	59.4	2494	54	488.8	151.3	5146
2.	“Angren” EIZ	69	723	283.4	8009	48	729.4	493.4	11900
3.	“Jizzax” EIZ	15	127.3	56	3126	20	226.2	93.3	2798
4.	“Urgut” EIZ	50	273.4	51.9	3295	25	78.7	15.7	1436
5.	“G'ijduvon” EIZ	30	94.7	7.7	2140	10	65.5	15	1252
6.	“Qo'qon” EIZ	39	69	14.9	2283	47	166.1	39.5	4562
7.	“Xazoras p” EIZ	14	30	15.6	1100	4	275.9	250.7	476
8.	“Sirdaryo” EIZ	24	113	32.3	2398	14	80	26	1782
9.	“Nukus” EIZ	3	16.2	3.9	436	2	6.8	2.5	173
10	“Zomin-farm” EIZ	2	6		37	2	7.6	1	45

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar (mlrd. so‘m)



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Erkin iqtisodiy zonalar hududlarida amalga oshirilgan loyihalar tomonidan ishlab chiqarilgan eksport mahsulotlari to‘g‘risida ma‘lumot

№	Erkin iqtisodiy zona nomi	Eksport (mln.doll.) 2018 yil	Eksport (mln.doll.) 2019 yil	Eksport (mln.doll.) 2020 yil
Jami (12 ta EIZ)		49,7	177,4	257,6
1.	“Navoiy” EIZ	6,2	23,5	28,0
2.	“Angren” EIZ	7,4	55,7	67,5
3.	“Jizzax” EIZ	11,7	16,6	14,6
4.	“Urgut” EIZ	20,0	31,2	28,6
5.	“G‘ijduvon” EIZ	1,6	20,1	22,0
6.	“Qo‘qon” EIZ	0,9	9,3	28,5
7.	“Xazorasp” EIZ	0,5	0,5	1,8
8.	“Sirdaryo” EIZ	1,4	19,8	53,8
9.	“Nukus” EIZ		0,1	0,5
10.	“Sirdaryo-farm” EIZ		0,4	0,9
11.	“Buxoro-agro” EIZ			2,2
12.	“Namangan” EIZ		0,2	9,2

Manba: Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma‘lumotlari

MIZ lar eksport hajmi (choraklik), YaIM deflyatori, YaIM hajmi, TTXI hajmi

Yil	Y (mln doll)	x1	x2 (mln doll)	x3(mln doll)
2020 Q1	13	37%	8901	428
2020 Q2	16	33%	13017	1,7
2020 Q3	11	25%	14408	128
2020 Q4	10	20%	14121	71
2021 Q1	54	21%	11103	221
2021 Q2	38	17%	15235	832
2021 Q3	48	19%	15748	448
2021 Q4	37	18%	15402	814
2022 Q1	67	15%	11713	267
2022 Q2	81	13%	14262	478
2022 Q3	55	10%	15394	370
2022 Q4	54	10%	16119	611

Manba: O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va sanoat savdo vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2-model koeffitsiyentlari

```
lm(formula = SEZexport ~ inflation, data = data_sez)
```

Residuals:

Min	1Q	Median	3Q	Max
-29.93	-7.40	-1.60	10.58	26.39

Coefficients:

	Estimate	Std. Error	t value	Pr(> t)
(Intercept)	81.88	12.90	6.346	8.4e-05 ***
inflation	-209.73	60.42	-3.471	0.00601 **

Signif. codes: 0 '***' 0.001 '**' 0.01 '*' 0.05 '.' 0.1 ' ' 1

Residual standard error: 16.7 on 10 degrees of freedom

Multiple R-squared: 0.5465, Adjusted R-squared: 0.5011

F-statistic: 12.05 on 1 and 10 DF, p-value: 0.00601